3. O'quv dasturlaridagi interaktiv modullar: Raqamli boshqarish pedagogik tenologiyalari o'quv dasturlarida interaktiv modullarni amalga oshirish imkonini beradi. Bu modullar o'quvchilarning o'zlashtirishni yanada samarali qiladi va ularning o'ziga xos tajribani olishga imkon beradi. O'quvchilar o'zlashtirish jarayonida o'zlarining fikrlarini ifoda qilish, masalalar yechish va jamoatchilik bilan hamkorlik qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

4. Virtual o'qish resurslari: Virtual o'qish resurslari, o'quvchilarga o'zlashtirishni yanada qiziqarli qilish va o'rganish jarayonida ularga o'ziga xos tajribani taqdim etishga yordam beradi. Virtual laboratoriyalar, o'quvchilarning amaliyot tajribasini oshirishga imkon beradi. Virtual ekskursiyalar va turli interaktiv dasturlar, o'quvchilarni o'zlashtirish jarayonida qiziqishlarni oshirishga yordam beradi.

5. Onlayn ta'lim platformalari: Onlayn ta'lim platformalari orqali o'quvchilar darslarga qo'shilishlari va o'zlashtirishlari mumkin bo'ladi. Bu platformalar, interaktiv darslar, ma'ruzalar va sinalash materiallari orqali o'quvchilarning o'zlashtirilishini yanada samarali qilishga imkon beradi. O'quvchilar o'zlarining o'ziga mos vaqtida o'quv materiallariga kirish imkoniyatiga egalar.

Bu pedagogik tenologiyalar o'quvchilar o'zlarining o'zlashtirish jarayonida aktiv ishtirok etishini va o'zlarining o'rganishni yanada samarali qilishini ta'minlaydi. O'qituvchilar ham o'quvchilarni baho berish, natijalarni monitoring qilish va ular bilan aloqada bo'lishlari uchun bu tenologiyalardan foydalanmumkin. Bu texnologiyalar o'quv jarayonini yanada interaktiv va samarali qilish imkonini beradi va o'quvchilarning o'zlashtirishini oshiradi. Ularning foydalangan jarayonida o'quvchilar o'z fikrlarini ifoda qilish, masalalar yechish, ijtimoiy hamkorlikda ishtirok etish va kreativ muammolarni yechish imkoniyatlariga ega bo'ladi. Bundan tashqari, pedagogik tenologiyalar, o'quvchilarning o'zlashtirish va o'rganish natijalarini baholash va baho berish jarayonlarini ham yanada samarali qilishga yordam beradi. O'quvchilarning o'zlashtirish darajasini, ma'lumotlarni tushunish darajasini va rivojlanishini monitoring qilish imkonini beradi. Pedagogik tenologiyalar, masofaviy o'quv (uzaktan ta'lim) dasturlarini ham o'z ichiga oladi. Bu usul, o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasidagi masofaviy aloqalarni ta'minlaydi va o'quvchilarning o'zlashtirishini va o'rganishini masofadan ham samarali qilishga yordam beradi.

Raqamli texnologiyalarni o'zlashtirish insoniyat tarixidagi boshqa innovatsiyalarga qaraganda tezroq sodir bo'lmoqda: bor-yo'g'i yigirma yil ichida raqamli texnologiyalar rivojlanayotgan mamlakatlar aholisining qariyb 50 foizini qamrab olishga va ularning yordami bilan jamiyatlarni o'zgartirishga muvaffaq bo'ldi.

**Xulosa qilib shuni takidlab o'tish zarurki.** O'qituvchilarning o'rgatiladigan material mazmunini tanlashda axborot kommunikatsiya texnologiyalar mazmunidagi bilimlar bilan cheklanilmasligi lozim. Bugungi kunda mamlakatimizda ko'plab gazeta, jurnal, axborotnoma-byulleten, radio, televideniye, axborot agentliklari, internetda veb-saytlar faoliyat ko'rsatmoqda. Bularning barchasi birgalikda oliy talimda manaviy-marifiy ishlarni raqamli boshqarishda pedagogik tenologiyalardan foydalanishning muhim aspektlarini hosil qiladi. Bu texnologiyalar o'quvchi va o'qituvchilarning o'zlashtirish yo'lini yanada samarali qilish va o'quv jarayonini interaktiv va qiziqarli qilish imkonini beradi.

**FOYDALANGAN ADABIYOTLAR**

1."Newzoo: Global esports will top \$1 billion in 2020, with China as the top market"". <https://venturebeat.com>

2.TURSUNOVA A.H (2023). TA'LIM JARAYONIDA INTELLEKTUAL–KREATIV QOBILİYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING MAZMUNİY XUSUSIYATLARI. OLIM ,1(6), 18–21.

3.TURSUNOVA A.H THE ADVANTAGES AND FEATURES OF TEACHING AND LEARNING ONLINE IN THE EDUCATION PROCESS  
<https://cyberleninka.ru/article/n/the-advantages-and-features-of-teaching-and-learning-online-in-the-education-process>



**FARZANDLAR – KELAJAK POYDEVORI****N.Sh.Gaziyeva**

Angren Universiteti “Pedagogika va psixologiya”

kafedra o‘qituvchisi

**D.T.Ortiqboyeva**

MT yo‘nalishi talabasi

**ANNOTATSIYA**

*Maqolada bugungi kunda mamlakatimizda balki butun dunyoda onalarning jismoniy aqliy va ruhiy sog‘lom farzand dunyoga keltirish va shu ruknda tarbiyalashning sinalgan usullari va tarbiyadagi muammolar haqida so‘z boradi. Farzand tarbiyasida jamiyat, mahalla va ota onaning o‘rni, ahamiyati - farzandning shaxsiy ijtimoiy moslashuviga ta’sirni o‘rganib chiqamiz. Yangi O‘zbekiston ravnaqining poydevori bo‘lib xizmat qiladigan farzandlar tarbiyasini to‘g‘ri shakllantirish yangi o‘quv qo‘llanmalar chop etish va yurtimizning barcha xududlarida axborot vositalarida tanishtirib borish haqida chora tadbirlar taklif etilmoqda.*

**Kalit so‘zlar:** *Bola, rivojlanish, ijtimoiylashuv, yosh davrlari, tarbiya, xis qilish, shakllantirish.*

**АННОТАЦИЯ**

*В статье рассказывается об апробированных методах рождения физически, психически и психически здоровых детей у матерей в нашей стране на сегодняшний день и проблемах в воспитании. Изучим значение общества, общества и родителей в воспитании ребенка - влияние на личностную социальную адаптацию ребенка. Предлагается издать новые учебники и внедрить их в СМИ во всех регионах страны, правильно формировать*

*воспитание детей, которое послужит фундаментом развития нового Узбекистана.*

*Ключевые слова: ребенок, развитие, социализация, юношеские периоды, воспитание, чувство, формирование.*

### **ANNOTATION**

*The article talks about the tested methods of mothers giving birth to physically, mentally and mentally healthy children in our country today, and the problems in upbringing. We will study the importance of society, neighborhood and parents in raising a child - the impact on the child's personal social adjustment. It is proposed to publish new textbooks and introduce them in the media in all regions of the country, to properly shape the upbringing of children, which will serve as the foundation of the development of the new Uzbekistan.*

*Key words: Child, development, socialization, youth periods, education, feeling, formation.*

Har bir ota ona o'z farzandining baxtu saodatli ma'naviy sog'lom istiqboli porloq kelajakdagi mustaqil hayotida ham moddiy jihatdan sog'lom bo'lib yashamog'ini orzu qiladi va shu maqsadga erishish uchun butun umrini bor yo'g'ini sarf qiladi. Ayniqsa bu bizning bolasevar xalqimizning qalbiga singib ketgan fazilatdir. Islom dini ta'limotiga ko'ra farzand Alloh tomonidan berilgan ulug' ne'mat bo'libgina qolmay, u ota onaga topshirilgan ma'suliyatli juda kata omonat hamdir. Bolani aqlan ham jismonan sog'lom parvarish qilish, unga odob ahloq va ta'lim tarbiyani o'rgatib borish xar bir ota onaning kundalik vazifalari sirasiga kiradi. Oiladagi sog'lom muhit va to'g'ri tarbiya farzandning keyingi oladigan bilim va kasb hunarlari uchun poydevor vazifasini o'taydi. Bola tarbiyani dastlab oilasida oladi. Kattalarning butun xatti harakatini xuddi rasmga olgandek ongiga, ulg'aygach ularni xayotga tatbiq etadi. Odob - axloqi yomon bolalar asosan muhiti sog'lom bo'lmagan oilalardan chiqadi. «Bugungi - o'g'ri, firibgar va xulqi yomon kimsalar kecha tarbiyasiga e'tibor berilmagan bolalardir», - degan edi Abdulla Avloniy. Yana bir

xadisda esa «Ilm Xitoyda bo'lsa ham uni izlab topib egallangiz, zero ilmni talab qilish har bir musulmonga farzdur» deyilgan. Menimcha faqat ota onasini yo'qotgan emas, balki qarovsiz qolgan, tarbiyasiga birov ahamiyat bermagan bola ham yetim xisoblanadi. Kelajagimiz poydevori bo'lgan bolalarni tarbiyasiga katta ahamiyat berishimiz ularning yuksak axloqiy qadriyatlar milliy va diniy an'analarimizga sodiq bo'lishiga e'tibor qaratish lozim. Payg'ambarimiz (s.a.v) ning «Ota o'z farzandiga chiroyli tarbiyadan yaxshiroq meros qoldirolmaydi» degan ibratli xadislari ham bejizga emas. Yana bir hadisda esa «Bolalaringiz kattarganda sizlarni hurmat qilishini xohlasangiz, ularni kichikligida siz hurmat qiling» deyilgan. Bolalarni o'z holiga tashlab qo'ysa, kim bilan do'stlashyapti, nimalarga qiziqishi borligiga e'tibor qaratilmasa buning oqibatida yoshlikdan chekish va giyohvandlikka ruju qo'yayotgan, maktabdagi kollejlardagi darslarni sababsiz qoldirib beparvo yuradigan bolalarga to'g'ri yo'l ko'rsatib ularga ilmning ahamiyati va yoshlik qadrini tushuntirib borish zarur. Hozirgi kundagi ma'lumotlarga qaraganda O'zbekiston Respublikasida aholining 64% foizini yoshlar tashkil qilar ekan. Ularning ulg'ayib komil inson bo'lishi uchun davlatimiz barcha moddiy va ma'naviy shart sharoitlarni muhayyo qilmoqda, ulardan sport inshootlari, dam olish va istirohat maskanlarini barpo etib yoshlar ixtiyoriga berib qo'yilmoqda. Farzandlar fe'l arvoridagi salbiy yoki ijobiy sifatlari – tug'ilgandan olingan tarbiya natijasidir. Otalar farzandlari bilan ko'proq suhbatlashishi va ularning qiziqishlarini to'g'ri qabul qilishi juda muhim, an'anaviy odatlarimizga ko'ra otalar oila boshlig'i, shu bilan birga farzand tarbiyasida ham faol ishtirok etishi lozim. Agar farzand otasi ishdan kelganda faqat terghashini eshitsa, farzand nigohida ota shoshilinch vaziyatlarda yordamga keladigan shifokorga aylanib qoladi. 2-3 yoshda bolada shahsiy g'urur shakllana boshlaydi. Bola tug'ilishi bilan bir yoshgacha bo'lgan davrda unda «Men» tuyg'usi rivojlanishdan oldin uni tartib va tarbiyaga chaqirish o'rgatish zarur. Odatiy misol: bola tug'ilishidan boshlab uning vaqtini to'g'ri taqsimlab tartib bilan ovqatlantirilsa, bola ortiqcha vaznga ega bo'lmaydi va to'shakda yotgan joyida peshob qilmaydi. O'z-o'zidan ovqatlanishga o'rgatilsa kelajakda qabziyatdan qiynalmaydi. Bolada asabiylashish va xasad xarakterining asosiy sababi ojizlikdan.

Tokio universiteti professori bolalar psixologiyasi bo'yicha mutaxassis Toshio Yamashita - bolaning asabiylashish sabablarini quyidagicha sanab keltiradi:

- kasallik sababli sog'lig'i yomonlashganda;
- ochlik yoki xorg'inlik sabab o'zini yaxshi his qilmaganda;
- noxush voqea yoki qo'rqinchdan qattiq ta'sirlanganda;
- jismoniy mashqlar yetishmasligidan kuch sarflanmay to'planib qolganda;
- o'z aytganida turib olganda;
- ota - onaga taqlid qilganda;

Bu ro'yxatdan ko'rinib turibdiki bolaning asabiylashish omillari uning atrofidan va tarbiyasidan izlamoq kerak. O'z farzandingizni boshqalar oldida masxara qilmang. Bolani urshgandan ko'ra maqtash afzalroq va samaraliroq. Erta ta'limning antiqa dalillaridan sanalgan ko'p odamni yig'a oladigan kuch, yani "yetakchilik" – bu bolani rivojlantiradi. Har bir guruhda yetakchilik rolini bola o'ynaydigan bo'ladi. Doktor Yamashita o'zining bolalar psixologiyasi nomli kitobida «Yetakchilik qobiliyatiga ega bola uning atrofida boshqa ko'pgina bolalar bo'lsada, doimo o'z fikrlari qilayotgan ishlarini aniq maqsadga yo'naltirganini, o'yin yoki mashg'ulotlarida u doimo biror yangi narsa ixtiro qilishga harakat qiladi» deya tariflagan. She'r yodlash bola xotirasini mustahkamlaydi. Statistik ma'lumotlarida keltirishicha bola bir yilda 170 ta she'r yodlay olar ekan. Bola xotirasida 100 tadan 200 tagacha she'rni saqlab qolar ekan. Takrorlash ilm olish garovi deganlaridek agar bola she'rni bir qatorini unutsa, she'rni boshidan oxirigacha qaytarsin shunda butun she'r yoki hikoyani yodida saqlashi oson bo'ladi va aqliy qobiliyat, ijodiy imkoniyatlari rivojlanadi. Shuning uchun farzandlardagi ilk bolalik xotiralari ularning butun hayoti va kelajagi uchun juda katta ta'sir qiladi. Ota onalar farzandlar yonida tortishuvi oiladagi adolatsizlik va ichkilikbozlik moddiy tomondan yetishmasligi bolalik davridagi yomon xotiralar agressiv va salbiy xarakterlarni juda kuchli rivojlantiradi va bunday farzandlar kelajakda albatta jamiyatda o'z o'rnini topishga va qalbidagi jarohatlarni unutishga qiynaladilar.

Ko'plab Yevropa va Osiyo davlatlari psixologlari ilmiy nazariyasi va taqdiqotlarini o'rganadigan bo'lsak yer yuzidagi tug'iladigan farzandlar 4 ta toifaga bo'linar ekan

1. Indigo farzandlar
2. Kristal farzandlar
3. Kamalak farzandlar
4. Quyoshli nurli farzandlar

Bundan ko'rinib turibdiki yer yuzida tug'ilayotgan farzandlar aslo bir birlariga o'xshamas va bir birlarini takrorlamas ekan. Endi bunday 4 qatlamli farzandlar haqida to'xtalsak. Indigo farzandlar asosan ikkinchi jahon urushi tugab, yer sayorasi obdon yangilanib yangi bosqichga o'tganida (1950-1960 yillardan) tug'ila boshlagan. Yani to'lqin-to'lqin, ozgina dam olib 2000 yilga qadar Indigo farzandlar tug'ila boshladi. Bunday farzandlar asosiy vazifasi yerimizni urushdan keyingi holatini qayta taraqqiyotga tayorlab, ko'plab yangiliklar yaratishdan iborat edi. Shuning uchun ham e'tibor bersangiz o'sha yillarda tug'ilgan ota bobolarimiz mehnatkash, sabr-toqatli, tinchlik zamonlarni juda qattiq qadrllovchi, insoniylik hislatlari yuqori shukronalik hislariga juda to'yingan va o'qish, oliy ma'lumotli bo'lish, yangilik yaratishni yaxshi ko'radigan fe'l-atvorda bo'lganlar. Bunday farzandlarning aurasi dumaloq baqlajon rangda noyob bo'lib unday farzandlar ko'proq onalariga suyanishgan va bo'ysunuvchanlik xarakteri yuqori bo'lgan. Kristal farzandlar asosan Indigo onalardan tug'iladi va unday farzandlar 2001 yildan boshlab yer sayyoramiz yana bir qadam rivojlanib yuqorilaganda tug'ilishni boshlagan. Kristal farzandlar aurasi oq olmos rangida tuxumsimon shaklda bo'lib ular asosan fan-texnika tarraqiy etgan davrda tug'ilganligi sababli fe'l-atvorlari tubdan farq qiladi. Ularning majburiy mehnatga ortiqcha talabchanlikka va qat'iy talab va tartiblarni yoqtirmasligi, arzimagan sabablar va hodisalardan tez ranjib qoladilar. Ammo ular shu bilan birgalikda tabiatni yashillikni yaxshi ko'ruvchi hayvonot dunyosini ham yaxshi ko'ruvchi ko'ngli toza, mehribon, mehr-muhabbat, do'stlik rishtalari kuchli rivojlangan bo'lib, ularning tug'ilgan muhiti va sharoiti shunga bog'liq. Kamalak farzandlar 2012 yildan yer yuzida juda katta ko'tarilish, globallashgan dunyoga o'tish

davridan tug'ila boshlagan va ular nomidan ko'rinib turganidek serjilo nozik, turli ranglarda. Bunday farzandlar endi rivoj topayotganligi sababli hali ilmiy izlanishlar o'z nihoyasiga yetganicha yo'q. Shuning uchun ham barcha fanlar va sohalarda kuzatilayotgan yangi inovatsiyalar, metodlar ta'lim-tarbiya usullari ham doim sharoit va muhit talabga qarab o'zgarib turadi.

Birinchi inson o'zini shaxsiy rivojlantirishi mumkin bo'lgan kitobga hech qachon pulni tejamasligi kerak. Ikkinchisi bu hammamizning qaramligimizga aylanib ulgurgan smartfonimiz. Uning yordamida biz bir daqiqada butun dunyodan xabardor bo'lamiz. Uning yordamida biz bir zumda o'zimizga kerakli ma'lumotni topa olamiz, lekin doim ham foydali emas. Holbuki barcha ota onalarning internetga kirishga imkoniyati bor ekan nega ularga bola tarbiyasiga oid foydali ma'lumotlarni yetkazuvchi bir mobil dasturni yaratgan holda ularga bunda yo'l boshchi bo'la olmayabmiz. Aytishingiz mumkin yosh avlodga maktab, kollej, universitet darsliklari orqali kerakli barcha bilimlar berilyabdi deya. Lekin inson ongi shunday tashkil topganki unga bu bilimlar amaliyotda kerak bo'lgandagina u o'sha ma'lumotlarni to'la yuklama bilan qabul qila oladi. Endigina ona bo'lgan ayol farzandini qanday parvarish qilish uni qanday tarbiyalash haqida shunchalar ko'p qayg'uradiki, unga berilgan har qanday maslahat har qanday ma'lumotni gubkadek shimib oladi biz o'sha fursatdan to'g'ri foydalanib unga shu davr mobaynida farzandiga qanday muomalada bo'lishi, qanday qilsa u yetuk farzandni tarbiyalay olishini tushuntiradigan bir qo'llanma yoki dasturni yaratishimiz darkor. Chunki kelajak quruvchilarini biz onalar tarbiyalamoqdamiz eng asosiy e'tiborni onalar tarbiyasiga qaratsak yanglishmagan bo'lamiz deb hisoblayman.

Bizdagi asosiy kamchiliklardan biri deb juda ko'p hollarda ota-onaning kelisholmasligi tortishuvlari va bu vaqt ichida farzandlar ko'z oldida sodir bo'ladigan oilaviy janjallar, ba'zi hollarda esa farzandlarning ushbu janjallarga aralashishi deb hisoblayman. Ba'zida esa onaning yoki otaning farzandini do'st pozitsiyasiga qo'yib u bilan dardlashishi. Bu farzandning ruhiyatini sindiradi sababi bola ota yoki onasining muammosini eshitganidan so'ng unga yordam bergisi keladi va tabiiyki uning qo'lidan hech narsa kelmagach u o'zidan qoniqmaslik hissiga duchor bo'ladi.

Katta bo'lgach u o'zini noshud deb hisoblashni boshlaydi boshqalar uning ustidan hukmronligini osongina o'tkaza oladi, va uning shaxsiy fikri tobora yo'qolib boradi. Bunday holatlar bo'lmasligi uchun ota ona avvalo o'zini yaxshi tanib olishi o'zining hissiyotlarni boshqarishni bilishi kerak. Ota-ona uchun mayda tashvishdek ko'ringan narsa bolaning butun kelajakdagi hayotini hal qilib yuborishi mumkinligini ular anglab yetishlari kerak. Albatta bu muammoning faqatgina bir qismi va bunday holatlar juda ko'p ota-onalar muammoning potensialini his qilishi uchun o'zlari psixologik tarafdin oz bo'lsada savodxonligi bo'lishi kerak.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Robert Kiyosaki. «Uchdan keyin kech»
2. Z.Nishonova, G.Alimova “Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi” T.-2016
3. S.Jalilova “Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi” T.-2013
4. Isabekova D.Maktabgacha katta yoshdagi bolalarini kasblar bilan tanishtirish. Science and innovation. 2022 yil.

**AXBOROT KUTUBXONA MUASSASALARIDA ZAMONAVIY  
AXBOROT-KUTUBXONA XIZMATLARI**

**Pirmedova Xaytgul Muxammedovna**

TDYU ARM direktori.

**Xalikova Muxabbat Akbar qizi**

TDYU ARM axborot texnologiyalari bo'yicha yetakchi mutaxassis.

**Sharipova Gulshan Asad qizi**

TDYU ARM bo'lim mudiri.

***ANNOTATSIYA***

*Maqolada dunyodagi eng nufuzli bo'lgan universitetlarning kutubxonalaridagi Axborot-kutubxona xizmatlari tahlil qilindi va ularni O'zbekistondagi oliy yurtlari kutubxonalarida joriy qilish imkoniyatlari o'rganildi.*

***Kalit so'zlar.***

*Axborot-kutubxona xizmatlari, oliy o'quv yurtlari kutubxonalari, elektron kutubxona.*

***ABSTRACT***

*The article analyzed information-library services in the libraries of the most prestigious universities in the world and explored the possibilities of their implementation in the libraries of higher institutions in Uzbekistan.*

***Key words.***

*Information-library services, libraries of higher educational institutions, electronic library.*



Yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishda axborot-kutubxona muassasalarining o'rnini beqiyosdir. Qadimdan kutubxonalar ilm tarqatuvchi maskan hisoblanib kelingan. Asosiy vazifa albatta kutubxonachi zimmasiga tushar edi. Bugungi kunga kelib bu vazifa yanada mas'uliyatli tus olmoqda.

Axborot-kutubxona muassasalarining bosh maqsadi barcha toifadagi foydalanuvchilarning axborotga bo'lgan talabini qondirishdan iborat. Ushbu maqsad yo'lida har bir axborot-kutubxona muassasasi o'zi uchun strategiya ishlab chiqishi va turli toifadagi foydalanuvchilarga ko'rsatish mumkin bo'lgan axborot-kutubxona xizmatlari sonini ko'paytirib borishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanuvchilarning qiziqishlarini o'rganish, foydalanuvchilarga ijod erkinligini yaratib berish, jamiyatning boshqa uyushmalari bilan hamkorlikda izlanishlar olib borish va o'zaro hamkorlikni rag'batlantirish axborot-kutubxona muassasalari oldida turgan dolzarb masalalardan hisoblanadi. Dunyo kutubxonalarining faoliyatini kuzatib shunga amin bo'lish mumkinki, kutubxonalarda kitobxona ma'lumot-axborot xizmati ko'rsatish kutubxona xodimlarining asosiy vazifasi hisoblanadi. Kutubxona xodimlari ham shu o'rinda, ilmiy izlanuvchi vazifasini bajaradigan shaxslar hisoblanadi. O'z ilmiy izlanishlari bilan kutubxona foydalanuvchilarining axborotga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishadi.

Ushbu tadqiqotdan maqsad dunyodagi eng nufuzli bo'lgan universitetlarning kutubxonalarini tahlil qilish va ularni O'zbekistondagi oliy yurtlari kutubxonalarida joriy qilish. Tadqiqot quyidagi uchta eng yuqori o'rinlarda turuvchi universitetlar kutubxonalarini doirasida amalga oshirildi.

1. "Harvard Library" Garvard universiteti kutubxonasi. Kutubxona 1638 yilda tashkil etilgan, AQSh dagi eng qadimgi hamda dunyodagi eng kata akademik kutubxona tizimi hisoblanadi. Garvard universitetiga tegishli kutubxonalar 25 dan ortiq bo'lib, u yerda 800 dan ortiq xodimlar ishlashadi. Kutubxona fondi 60 millionda ortiq moddiy hamda elektron resurslar bo'lib, ular 460 dan ortiq dunyo tillarida yozilgan manbalardir.

2. "Bodleian Libraries" Oksford universiteti kutubxonalarini. Bodleian kutubxonalarini Oksford universitetini qo'llab-quvvatlaydigan kutubxonalar tizimidir. Kutubxona 4 asr muqaddam tashkil etilgan bo'lib, hozirda Buyuk britaniyadagi eng yirik

kutubxona hisoblanadi. Kutubxonada 13 milliondan ortiq bosma nashrlar, 80 000 dan ortiq elektron jurnallar va noyob kitoblar va qo‘lyozmalar, klassik papiruslar, xaritalar, musiqa, san’at va bosma efemera kabi ajoyib maxsus to‘plamlar mavjud.

3. “ASU Library” Arizona davlat universiteti kutubxonasi. Kutubxona 1975 yilda barpo qilingan bo‘lib, Kutubxona fondi 6 milliondan ortiq bosma nashrlar, 1 000 dan ortiq elektron jurnallar va noyob kitoblar va qo‘lyozmalardan iborat.

### Dunyodagi eng nufuzli universitetlar kutubxonalarida xizmatlar tahlili.

№	Kutubxonalarda ko‘rsatiladigan xizmatlar nomi	Tashkilot nomi		
		“Harvard Library” Garvard universiteti kutubxonasi	“Bodleian Libraries” Oksford universiteti kutubxonasi	“ASU Library” Arizona davlat universiteti kutubxonasi
1	Internet, wifi	+	+	+
2	Yig‘ma elektron katalog xizmatidan foydalanish	+	+	+
3	Bibliografiya xizmati	+	+	+
4	Ma’lumot-axborot xizmati	+	+	+
5	Elektron kutubxona	+	+	+
6	Printer, skayner va nusxa olish xizmatlari	+	+	+
7	O‘quv zallarini jamoa bo‘lib bron qilish xizmati	+	+	+
8	Ko‘chma kutubxonalar tashkil qilish xizmati	+	+	+
9	Nogironlar uchun maxsus xizmatlar	+	+	+
10	Ekskursiya xizmatlari	+	+	+
11	Kompyuterlarni ijaraga	+	+	+

	berish xizmatlari			
12	Turli xil qo'shimcha kurslar	+	+	+
13	Maxsus mutaxassislar xizmati	+	+	+
14	Ilmiy ma'lumot bazalariga a'zolik	+	+	+
15	Online a'zo bo'lish	+	+	+
16	Masofadan kitobxonga xizmat ko'rsatish	+	+	+
17	Masofadan to'lovlar qilish imkoniyati	+	+	+
18	Turli xil qo'shimcha kurslar	+	+	+
19	Nashr hamda media xizmatlari	+	+	+
20	Kitoblarni uyga yetkazib berish xizmati	+	+	+
21	Foydalanuvchilarga kutubxona manbalarini targ'ib qilish	+	+	+
22	Kutubxona xodimidan so'rang xizmatlari (ASKaLibrarian)	+	+	+
23	Ijtimoiy tarmoqlarda ma'lumot beruvchi bloglar	+	+	+
24	Kutubxona fondi to'g'risida qilingan podcastlar	+	+	+

Mazkur Kutubxonalarning maqsadi keng ommaga ko'rsatiladigan xizmatlar sonini oshirish natijasida foydalanuvchilarning axborotga bo'lgan ehtiyojini qondirishdan iborat.

Axborot-kutubxona xizmatlarini asosan ikki turga bo'lish mumkin: an'anaviy va noan'anaviy xizmatlar. An'anaviy xizmatlar bu kitob berish, kataloglashtirish, bibliografiya, fondni saqlash kabi xizmatlar sanalsa, noan'anaviy xizmatlar safiga zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda xizmat ko'rsatish kiradi. Bugungi kunda noan'anaviy axborot-kutubxona xizmatlaridan foydalanuvchilar soni oshib borayotganligini guvohi bo'lishimiz mumkin.

Tahlil natijalariga ko'ra foydalanuvchilar e'tiborini onlayn tarzda amalga oshirilayotgan xizmatlar jalb qilayotgani ma'lum bo'ldi. Asosan elektron kutubxona yaratish xizmatlariga, aynan kutubxonachilik ishida to'lovlarni onlayn amalga oshirish xizmatiga va ilmiy-ta'limiy ma'lumotlar bazalaridan uzluksiz foydalanishni joriy etish kabi xizmatlarga bo'lgan talab ortib bormoqda.

O'zbekiston jahon miqiyosiga chiqishi, dunyodagi ilm-fan sohasidagi ilg'or yangiliklardan juda tez xabardor bo'lishi va O'zbekiston olimlarini dunyo tanishi uchun ham xalqaro tashkilotlar bilan ma'lumot almashishi muhim sanaladi. Shu maqsadda O'zbekiston bir necha yirik ilmiy-ta'limiy ma'lumotlar bazalarga a'zo bo'lib, ular jumlasiga Ebsco, Emerald, Springer, ProQuest, Thomson Reuterslar kiradi. Lekin jahondagi boshqa yirik kutubxonalarning ilmiy-ta'limiy ma'lumotlar bazalaridan foydalanish sur'ati biznikiga nisbatan 20 baravardan 100 baravargacha yuqori ekanligini ko'rishimiz mumkin.

O'zbekiston rivojlangan mamlakatlar qatoriga kirishi uchun ilmiy-ta'limiy ma'lumotlar bazalaridan uzluksiz foydalanishni yo'lga qo'yishi, ilmiy-ta'limiy ma'lumotlar bazalarini shakllantirishi, mualliflar bilan masofadan turib har qanday masalalarni hal qila olish metodikasini va mavjud ilmiy-ta'limiy resurslar targ'ibotini muntazam amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqishi hamda ularni tadbiq etishi lozim.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA SAYTLAR**

1.Umarov A.A. Mamlakat kutubxonachiligi islohotlar yo‘lida: muammolar va yechimlar// Fan, ta’lim, madaniyat va biznes sohalarida internet va kutubxona-axborot resurslaridan foydalanish. To‘rtinchi xalqaro konferensiya materiallari. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi.-2006.- 10-15 b.

2.Karimov U. Kutubxona texnologiyalarini avtomatlashtirish: muammolar, yechimlar// INFOCOM.UZ – 2006 . - № 12.- T.: 31-34 b.

3.XXI asrda ma’lumot va axborot xizmatlari / K.E. Kassan, U. Hayrmat.-Toshkent: Baktria press, 2014.-464b.

4. <https://library.harvard.edu/>

5. <https://www.bodleian.ox.ac.uk/>

6. <https://lib.asu.edu/>

## ELEKTR ZANJIRLARINI KIRXGOFF QONUNLARI YORDAMIDA HISOBLASH

**Jamolova Gulbanbegim Muzaffar qizi**

TATU Qarshi filiali, "Optik aloqa tizimlari  
va tarmoq xavfsizligi" kafedrasida dotsent (PhD)

**Xamraqulova Sitora Oybek qizi**

TATU Qarshi filiali, "Axborot texnologiyalarida  
kasbiy ta'lim" yo'nalishi, 2-kurs talabasi

**Gulboyev Sabrina Oybek qizi**

TATU Qarshi filiali, "Telekommunikatsiya  
Texnologiyalari" yo'nalishi, 2-kurs talabasi

**Ro'ziyev Fazliddin Elyor o'g'li**

TATU Qarshi filiali, "Telekommunikatsiya  
Texnologiyalari" yo'nalishi, 2-kurs talabasi

### **ANNOTATSIYA**

*Kirxgof qonuni bo'yicha elektr zanjirlarini hisoblash. Murakkab (tarmoqlangan) elektr zanjirlarini hisoblashda Kirxgoff qonunlaridan foydalaniladi. Kirxgoff qonunlari bo'yicha tenglamalarni yaratish uchun siz quyidagilarni bajarishingiz kerak:*

- 1. Elektr sxemasidagi shohobchalardagi, tugunlar va sxemalar sonini aniqlang.*
- 2. Har bir shaxobchadagi toklarning oqimni aniqlang.*
- 3. n-1 tugunlarni tanlang va ular uchun Kirxgofning birinchi qonuni bo'yicha tenglamalar tuzing.*

4. Kirxgofning ikkinchi qonuni bo'yicha tenglamalar tuziladigan konturlarni tanlang.

5. Har bir konturning yo'nalishini belgilab oling.

6. Kirxgofning ikkinchi qonuni bo'yicha  $m$  tenglamalar tuzing. Bu holda kontur bo'ylab yo'nalishlarini EYuKning yunalishiga moslab aniqlab oling.

**Kalit so'z:** Tugun, kontur, shahobcha, tok, kuchlanish, zanjir, oqim, manba, yunalish, tizim, zanjir, manfiy, musbat.

### АННОТАЦИЯ

Законы Кирхгофа применяются при расчете сложных (разветвленных) электрических цепей. Чтобы составить уравнения по законам Кирхгофа, необходимо проделать следующее:

1. Определить по схеме цепи число ветвей, узлов и контуров.

2. В каждой ветви задаться предполагаемым (положительным) током.


3. Выбрать  $n-1$  узлов и составить для них уравнения по первому закону Кирхгофа.

4. Выбрать контуры для которых будут составлены уравнения по второму закону Кирхгофа.

5. Задаться направлением обхода в каждом контуре.

6. Составить  $t$  уравнений по второму закону Кирхгофа. При этом все ЭДС, направления которых совпадает с направлением обхода по контуру, записывают со знаком плюс, а все ЭДС, направление которых противоположно – со знаком минус.

7. Подставить числовые значения и решить получившуюся систему уравнений. Если ток получится положительным, то это означает, что действительное направление данного тока совпадает с предполагаемым, а если отрицательным, то противоположно.



Joriy elektr zanjiri elektronlarning ma'lum bir nuqtadagi harakat tezligi bo'lib, amperda o'lchanadi va diagrammalarda harf bilan belgilanadi "I". Amperning hosila birliklari, shuningdek, milli-, mikro-, nano va boshqalar mos keladigan prefikslar bilan ishlatiladi. 1 kulonlik zaryad birligini 1 soniyada siljitish natijasida 1 amperlik oqim hosil bo'ladi. Kirxgofning birinchi qonuni (Kirxgofning oqimlar qonuni) elektr zanjirning tugunlariga taluqlidir. Uning formulalaridan biri quyidagicha:

$$1\text{-tugun uchun} \quad I_1 - I_2 + I_3 + I_5 = 0$$

$$2\text{-tugun uchun} \quad -I_1 + I_4 - I_3 = 0$$

Bizda 5ta qarshilik mavjud. Qarshilik kata R harfi bilan belgilanadi. 3ta tugun mavjud. Uch yoki undan ortiq elementlarning tutashuvi elektr zanjirning tuguni hisoblanadi. Birinchi tugunni  $F_A$ , ikkinchi tugunni  $F_B$ , Uchinchi tugunni  $F_D$  harflari bilan bilgilab oldik.

Bizda berilgan qiymatlar quyidagicha:

$$R_1 = 25\text{om}, \quad R_2 = 20\text{om}, \quad R_3 = 75\text{om}, \quad R_4 = 70\text{om}, \quad R_5 = 20\text{om},$$

$$r_{i1} = 10\text{om}, \quad r_{i2} = 10\text{om}, \quad r_{i3} = 20\text{om}.$$

$$I_1 = \frac{F_B - F_A + E_1}{R_1 + r_1}$$

$$I_2 = \frac{F_A - F_D + E_2}{R_2 + r_2}$$



$$I_3 = \frac{F_B - F_A - E_3}{R_3 + r_3}$$

$$I_4 = -\frac{F_B + F_D}{R_4}$$

$$I_5 = \frac{F_D - F_A}{R_5}$$

Kirixgofning qonuniga asoslanib tenglamamizning noma'lum hadini topib olamiz.

$$\frac{F_B - F_A + E_1}{R_1 + r_1} - \frac{F_A - F_D + E_2}{R_2 + r_2} + \frac{F_B - F_A - E_3}{R_3 + r_3} + \frac{F_D - F_A}{R_5} = 0$$

$$-\frac{F_B - F_A - E_3}{R_3 + r_3} - \frac{F_B + F_D}{R_4} - \frac{F_B - F_A + E_1}{R_1 + r_1} = 0$$

***Qarshiliklarni urniga qiymat kiritib  $F_A$  va  $F_B$  larni topib olamiz.***

$$\frac{F_B - F_A + 15}{25 + 10} - \frac{F_A + 70}{20 + 10} - \frac{F_A}{20} + \frac{F_B - F_A - 5}{75 + 20} = 0$$

$$-\frac{F_B - F_A + 15}{25 + 10} - \frac{F_B}{70} - \frac{F_B - F_A - 5}{75 + 20} = 0$$

$$\frac{F_B - F_A + 15}{35} - \frac{F_A + 70}{30} - \frac{F_A}{20} + \frac{F_B - F_A - 5}{95} = 0$$

$$-\frac{F_B - F_A + 15}{35} - \frac{F_B}{70} - \frac{F_B - F_A - 5}{95} = 0$$

$$\frac{288F_B - 288F_A + 4320 - 266F_A + 18620 - 399F_A + 84F_B - 84F_A - 420}{7980} = 0$$

$$\frac{-38F_B - 38F_A + 570 - 19F_B - 14F_B - 14F_A - 70}{1330} = 0$$

$$372F_B - 1037F_A + 22520 = 0$$

$$-71F_B - 52F_A + 500 = 0$$

$$26412F_B - 73627F_A = -1598920$$

$$26412F_B + 19344F_A = 186000$$

$$-92971F_A = -1784920$$

$$F_A = 19.198$$

$$26412F_B - 73627 \times 19.198 = -1598920$$

$$26412F_B = -1598920 + 1413491.14$$

$$26412F_B = -185428$$

$$F_B = -7.020$$

$$I_1 = \frac{F_B - F_A + E_1}{R_1 + r_1} = \frac{-7.02 - 19.19 + 15}{25 + 10} = 0.87 \text{ A}$$

$$I_2 = \frac{F_A - F_D + E_2}{R_2 + r_2} = \frac{19.19 - 0 + 70}{20 + 10} = 2.97 \text{ A}$$

$$I_3 = \frac{F_B - F_A - E_3}{R_3 + r_3} = \frac{-7.02 - 19.19 - 5}{75 + 20} = -0.32 \text{ A}$$

$$I_4 = -\frac{F_B + F_D}{R_4} = -\frac{-7.02 + 0}{70} = 0.10 \text{ A}$$

$$I_5 = \frac{F_D - F_A}{R_5} = \frac{0 - 19.19}{20} = -0.95 \text{ A}$$

Ikki tugun oralig'iga ketma-ket ulangan elementlardan iborat bir xil tok o'tadigan zanjirning qismi shohobchadeb ataladi.

Kamida uchta shohobcha birlashgan nuqta esa, elektr zanjirining tuguni deyiladi.

Kontur- elektr zanjirining bir nechta shohobchalaridan o'tuvchi berk yo'l.

Oddiy holda elektr zanjiri uch qismdan iborat bo'ladi: energiya manbai, ste'molchi, ulovchi simlar. Lekin umumiy holda elektr zanjiri bir necha manbaiga va iste'molchilarga ega bo'lishi mumkin. Real elektr zanjiri esa yuqoridagi elementlardan tashqari ulab-uzuvchi (viklyuchatel) qurilmalari kontrol-o'lchash priborlari, himoya asboblaridan iborat bo'ladi. Faqat chiziqli elementlardan iborat zanjir - chiziqli elektr zanjiri deb ataladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. P.M.Jalolova, G.M.Jamolova, Sh.R.Qo'qonboyeva. Elektronika va sxemalar. Darslik 2023-Toshkent
2. Aripov X.K., Abdullaev A.M., Alimova N.B., Bustanov X.X., Toshmatov Sh.T. "Sxematexnika" (darslik), Toshkent. «Tafakkur bo'stoni», 2013, 447 b.
3. Thomas F. Schubert, Jr., Ernest M. Kim. Fundamentals of Electronics Book 1: Electronic Devices and Circuit Applications, 2014.
4. В.Т. Еременко, А.А. Рабочий, А.П. Фисун, И.И. Невров, А.В.Тютякин, А.Е. Георгиевский. Основы электротехники и электроники. Учебник. Орел, 2012

## ТӨЛЕПБЕРГЕН ҚАЙЫПБЕРГЕНОВТЫҢ «СУҰЫҚ ТАМШЫ» ПОВЕСТИНДЕ ГӨНЕРГЕН СӨЗЛЕРДИҢ ҚОЛЛАНЫЛЫҰЫ

Айнура Жиенбаева

Бердақ атындағы Қарақалпақ мәмлекетлик университети, шет тиллери  
факультети, аударма теориясы хәм әмелияты қәнигелиги студенти

[aynura.scientist@gmail.com](mailto:aynura.scientist@gmail.com)

ФИЛОЛОГИЯ: ЛЕКСИКОЛОГИЯ

### АННОТАЦИЯ

**АКТУАЛЛЫҒЫ.** Қарақалпақ тил билиминде аз үйренілген мәселелердиң бири архаизм, истаризм, диалектизм илимий кәзқарастан анализленеди. Мақалада тилимиздеги гәнерген сәзлердиң кәркем әдебият стилинде де жийи қолланылыұы лингвистикалық кәзқарастан баян етиледи.

**Предмети.** Объекти – кәркем шығарманың тили, предмети – қарақалпақ тилиндеги гәнерген сәзлер хәм диалектлик сәзлерди анализлеуден ибарат. **Мақсети.** Тилимиздеги гәнерген сәзлерди жыйнау, оларды таллап, анализлеу, кәркем шығармаларда қолланылыұын үйрену. **Ұзыйпасы** – гәнерген сәзлердиң кәркем шығармалар тилинде әнимли қолланылыұынмысаллар жәрдемінде үйрену.

**Методологиясы.** Салыстырмалы, баянлау усылы.

**Нәтийжелери.** Гәнерген сәзлер хәм диалектлик сәзлерди үйрену арқалы олардың заманагәй, муқабыл түрин жаратыу хәм қолланыу.

**Жуұмақлар.** Тилимизде сийрек қолланыушы диалектлик хәм гәнерген сәзлердиң функциясы шекленгенликтен, тилимизде жаңа ишки байыу арқалы сәзликлер дүзиу.

**Гилт сөзлер.** Гәнерген сәзлер, архаизм, истаризм, семантика, лексикология.

Халықтың тарихый рауажланыў басқышларында жаңа түсиник хәм кубылысларды билдиретуғын жаңа атамалар – неологизмлер пайда болып отырса, керисинше базы бир сәзлер – терминлер гәнереди, олар қолланыў әриси тарайтып, соңында қолланыўдан биротала шығып қалады. Архаизмлер гәнерген сәзлердиң бир топары болып, пассив сәз қатламға киреди. Ўақыттың әтиўи менен тилдиң сәзлик қурылысында да архаизмлердиң синонимлери пайда болады, олар активлесип архаизмлердиң қолланыў әриси шеклейди. Әзиниң сәзлик қурамдағы орнын басқа сәзлерге берген архаизмлерди **лексикалық архаизмлер**, ал кәп мәнили сәзлердиң айырым гәнерген мәнилери **семантикалық архаизмлер** деп аталады.

Тилдиң сәзлик қурамындағы қолланылыў әриси тарайып қолланылыўдан шығып баратырған сәзлер – гәнерген сәзлерди изертлеў хәм оларды классификация жасаўға арналып рус тил билиминде бир қанша мийнетлер жазылды. Түркий тиллерде усы мәселеге бағышланған А. Махмудов, Е. Абдилбаев хәм Е. Қиличевтиң изертлеў жұмысларында гәнерген сәзлер кең түрде анализ жасалған. Қазақ тил билиминде Ә. Болғанбаевтың қазақ тилиниң лексикология тараўына арналған мийнетинде өз алдына тема ретинде берилип, тематикалық топарларға бәлип қарайды.

Сондай-ақ, профессор Е. Бердимуратовтың арнаўлы изертлеўинде, қарақалпақ тилиниң лексикология тараўына арналған мийнетлеринде, сабақлықларда сәз етилген. Автордың «Хәзирги қарақалпақ тилиниң лексикологиясы» мийнетинде гәнерген сәзлерди **тарихый сөзлер** хәм **архаизмлер** деп өз алдына бәлек алып қарайды хәм олардың бир-биринен айырмашылық белгилерин кәрсетеди. Қарақалпақ тилиндеги гәнерген сәзлер, оларды хәзирги ўақыттағы жаңа сәзлер (неологизмлер) менен салыстыра үйрениў, тилимизде бурын қандай сәзлердиң қолланылғанын мектеп оқыўшыларына үйртиў, бул сәзлердиң мәнисин хәм кәркем шығармалардың тилинде қолланылыўын түсиндириў үлкен әхмийетке ийе. Гәнерген сәзлер кәркем әдебият стилинде де жийи қолланылатуғын бирлик

есапланады. Жазыўшы, шайырлар кәркем шығармаларда гәнерген сәзлерди пайдаланыўда сүүретленетуғын ўақыяға сәйкес дәўир колоритин бериўди, шығарманың қахарманының жеке тил әзгешелигин кәрсетиўди нәзерде тутады.

Мысалы ушын, жазыўшы Тәлепберген Қайыпбергеновтың «Суўық тамшы» повестине нәзер аўдарғанымызда, ондағы гәнерген сәзлердиң леклика-семантикалық жақтан орынлы қолланылғаны дыққатымызды тартты. Бул шығармада қолланылған тарийхый хәм архаизм сәзлерден елеге дейин пайдаланамыз. Бирақта, олардың мәнилери қалып тек ғана атамалары жаңа сәзлер (неологизмлер) менен алмасты. Усы орында сизге шығармада қолланылған сәзлердиң мәнилерин кең түрде түсиндирип әтсек:

1. Бул **меңиреў**, тасланды, гәне жайдың әтирапы жүдә кеўилли, быған-жыған адамлар.

2. Шетиректе **жуптылардың** жасырын сәйлесиўлери ингәләп жылаған бәпесин қос алақанына жатқарып бесик қылып тербеткен жигитлер, келиншеклер.

3. Жасы сексеннің шамасындағы ақ жаўлықлы, хасалы ана қырық бес-елиў жаслардағы қызыл **гежили кәйўаны** хаял менен турған бир бурымлы, бурымға қосылмаған маңлай шашы буйра қыздың қасына тоқтадық.

4. **Отағасы**, жүриң, мениң жанашыр, меҳрибаным анаў отыр екен, – деди.

5. Азмаз **гидирип** турдым да, Калинин кәшесин ийегим менен кәрсеттим.

6. Әтирапы шәл әсимликлери: сексеўил, **кәсик**, қарабарақ аралас жантақ. **Еден** хәзир жарылса, кирип кетер едим.

7. Усы күни түсимде Зыяда бизиң таза тамның ишинде **гөлегөйлеп** жүрип, мени қараңғыда қамаландырып, түни менен кроваттан талай-талай жықты.

8. Бул **найсапты** жек кәре басладым.

9. Азанда буткама келсем, жумысымның баяғы бир қыйлылығы: шәккиш, биз, **созан**, сабақ, **атаўыз**, щётка.

10. Ох, қандай катастрофа – деп, әкшеси менен **қобдыйымды** тепти.

Жоқарыда келтирилген гәнерген сөзлердің мәнилери:

Мениреу	Келбетлик. Есауан, ақылсыз, аўалақ, хеш нәрсени ойламайтуғын.
Жупты	Атлық. Қостар, ерли-зайыплы.
Гежи	Атлық. Жүн жипек орамалдың бир түри.
Кәйуана	Атлық. Орта жастағы ақыллы, парасатлы, хәр нәрсеге кеңес берерлик хаял.
Отағасы	Атлық. Жасы үлкен, ақсақал.
Гидириу	Фейил. Аз ғана күтип турыу, сәл иркилиу, күтиу.
Кәсик	Атлық. Қумда әсетуғын жабайы пиязға уқсас әсимлик.
Еден	Атлық. Әжирениң, бәлмениң кара үйдин адам отырыуға, жатыуға қолайластырылған ишки майданшасы.
Гәлегейлеу	Фейил. Бир нәрсениң ямаса биреудин қасынан айланшықлап шықпау.
Найсап	Атлық. Инсапсыз, бузық, оңбаған, заңғар.
Созан	Атлық. Ушы топыр ийлемлеу үлкен ийнениң түри.
Атауыз	Атлық. Тистеуиш.

Тил – хәрдайым рауажланып отырыушы қубылыс. Ол хәр қыйлы дәуірлерде рауажланып, жетисип барады. Тилдеги айырым сөзлер кең қолланылады, айырым сөзлер улыума қолланыудан шығып қалады. Тилимизде жийи қолланыудан шығып қалған сөзлер гәнерген сөзлер есапланады. Гәнерген сөзлерди сол тилдеги тарийхий хәм кәркем шығармаларда ушыратамыз. Гәнерген сөзлердин жазыушылыр тәрeпинен әз шығармаларында орынлы қолланыуы тилдин лексикалық байлығын, сөзлик қорының бай екенлигинен дерек береді. Жазыушы Тәлепберген Қайыпбергенов та бүгинги күнде қолланыудан шығып қалған гәнерген сөзлерден пайдаланыу арқалы повесттин кәркемлик жақтан жетисиуине, қарақалпақ тилиниң бай сөзлик қурамға ийе

екенлигин билдириўде өз үлесин қосқан. Бул гөнерген сөзлерди үйрениў, олардың мәнисин түсиндирип бериў арқалы тилимиздиң жетилисиўине өз үлесимизди қосқан боламыз. Бул жұмыс келешекте қарақалпақ тилиниң жаңа түсиндирме сөзлигин дүзиўде, жазыўшының шығармалары бойынша түсиндирме сөзликлер ислеўде аз ғана болса да өз көмегин тийгизеди.

### **Пайдаланылған әдебиятлар дизими**

1. Айтөреев Қ., Гөнерген сөзлер ҳаққында бир-еки аўыз сөз, Өмиўдәрья, 1969, 86-88-бетлер.
2. Бердимуратов Е., Әдебий тилдиң функционаллық стиллериниң раўажланыўы менен қарақалпақ лексикасының раўажланыўы.
3. Бердимуратов Е., Қарақалпақ терминологиясы, Нәкис, 1989.
4. Қайыпбергенов Т., Повестьлер, Нәкис, 2018.
5. Қарақалпақ тилиниң диалектологиялық сөзлиги, Нәкис, 1983.

## YETAKCHILIKDA ERKAK VA AYOLNING USLUBI

**Axrorova Ruzixon Usmanovna**

FarDU nemis va fransuz tillari kafedra mudiri dotsent f.f.b.f.d. (Phd)

**Abduvaliyeva Zarnigor**

FarDU lingvistika: fransuz tili mutaxassisligi 1- kurs magistranti

### *ANNOTATSIYA*

*Ushbu maqolada yetakchilikda erkak va ayolning uslubi. Rahbariyatda ayollar va erkaklarning uslublari har xilligi. Qanday farqlar yoki o'xshashliklar borligi, ayollar va erkaklar bu o'rindagi farqi va ular bunga qanday munosabatda bo'lishlari. Yetakchilikda ularning munosabati va o'rni haqida yoritilgan.*

***Kalit so'zlar:** gender tengligi, yetakchilik qobiliyati, ayollar va erkaklarning yetakchilik uslublari, rahbarlik rollari, yetakchilik individual yutuqlarga asoslangan jamoaviy o'rganish va o'zaro ta'sir, xulq-atvor.*

### *АННОТАЦИЯ*

*В этой статье стиль мужчин и женщин в руководстве. Мужчины и женщины имеют разные стили лидерства. В чем различия или сходства, разница между женщинами и мужчинами в таком положении и как они на него реагируют. Объясняются их взаимоотношения и роль в лидерстве.*

***Ключевые слова:** гендерное равенство, лидерские способности, стили лидерства женщин и мужчин, лидерские роли, лидерство, основанное на индивидуальных достижениях, коллективное обучение и взаимодействие, поведение.*



### ANNOTATION

*In this article, the style of men and women in leadership. Men and women have different styles of leadership. What are the differences or similarities, the difference between women and men in this position and how they react to it. Their relationship and role in leadership is explained.*

**Key words:** *gender equality, leadership ability, women's and men's leadership styles, leadership roles, leadership based on individual achievements, collective learning and interaction, behavior.*

Ma'lumki, asosan erkaklar egallagan yetakchilik sohasiga ayollar ham kiradi. Rahbariyatda ayollar va erkaklarning uslublari har xil. Qanday farqlar yoki o'xshashliklar bor, ayollar va erkaklar nima qilishadi va ular bunga qanday munosabatda bo'lishadi? Ko'pincha erkaklar va ayollarning avtokratik va demokratik uslublari misolida ayollar va erkaklarning yetakchilik uslublari haqida asosiy ma'lumotlar mavjud. Ayollar va erkaklarning yetakchilik uslubidagi xatti-harakatlari yetakchilik rollari bilan bog'liq. Bunda erkaklar va ayollar uchun farqli vaziyatlar mavjud va ayollar yetakchi bo'lish uchun ko'proq to'siqlarga duch kelishadi, ayniqsa erkaklar egallaydigan yetakchi rollar uchun. Bu masala odatda xatti-harakatlardan ko'ra yetakchilik uslublari nuqtai nazaridan muhokama qilinadi.

Uslublardagi farqlar muhim bo'lishi mumkin, chunki ular odamlarning qarashlariga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan omillardan biri hisoblanib ayollar yetakchi bo'lishi kerakmi yoki yo'qligi haqidagi bahslar mavjud. Genderning yetakchilikka ta'sirini muhokama qilishda ayollarning odatiy diqqat markazida bo'lishi ajablanarli emas. Bir tomondan, yetakchilik uslubidagi tafovutlar ayollarning imkoniyatlardan va ayniqsa, yomon rahbarlik rollaridan chetlashtirish uchun asos bo'lishi mumkin. Boshqa tomondan, bir xillikni idrok etish ayollarning g'ururining an'anaviy manbai bo'lgan va yetakchi ayollarning yuqori ishlashiga hissa qo'shishi mumkin bo'lgan munosabatlar fazilatlarini tan olinmaydi. Ammo farqlar va o'xshashlik asosiy nuqta emas.

Shu sababli, ayollar va erkaklarning yetakchilik uslublari farq qiladi, erkaklar va ayollar bor turli ijtimoiy rollarda, masalan, oilada va ish joyida erkaklarning ayollardan asosiy farqlari, ya'ni erkakning qat'iyatli, nazoratli va ishonchli moyilligi, masalan: ular "tajovuzkor, ambitsiyali, dominant, mustaqil, o'ziga ishongan va raqobatbardosh" sifatida tavsiflanadi. Aksincha, ayollar mehribon, mehribon, yordam beradigan, hamdard, g'amxo'r, o'zaro munosabatlarda sezgir va muloyim bo'lgan turli xil xususiyatlarga ega.

Erkak va ayol lider rollarida malakali bo'lish uchun bir-birlarining yetakchilik uslubini qabul qilishga harakat qiladilar. Boshqacha qilib aytganda, bu rahbarlik jinsni bilmaydi. Liderning ta'rifi - bu guruh tomonidan lider deb atalgan shaxs, guruh a'zolari o'zini lider deb biladigan shaxs, guruhlarining qaroriga eng katta ta'sir ko'rsatadigan va haqiqatda bajaradigan shaxs etakchilik xatti-harakatlari. Vazifa xulq-atvoriga ko'ra, ayollar ishlab chiqarishni ta'kidlaydilar. Guruh yaxshi bajarilganda, ular vazifani bajarishda o'zlarining kuchli hissalarini davom ettiradilar, bunda erkaklar o'z hissalarini guruh yaxshi bajargan sari kamaytiradi. Rahbar ayollar erkaklarga qaraganda qo'ldagi vazifa haqida muloqot qilish uchun ko'proq vaqt sarflaydilar, chunki ular ko'proq ishni bajarishadi

Ayollar birinchi o'zaro munosabatlarda erkaklarga qaraganda ancha iliqroq deb baholanadi. Avtoritar rahbarlik uslubidan foydalanadigan ayollar xuddi shu uslubdan foydalanadigan erkaklarga qaraganda kamroq ijobiy qabul qilindi. Shuningdek, qaror qabul qilishda ayollar erkaklarga qaraganda demokratik yoki ishtirokchi uslubdan foydalanadilar. Ayollar nazorati ostida ishlagan erkaklar ayollarning rahbarligi uchun ko'proq ochiq edi. Ayol tinglash boshqalarni qulay va muhim his qiladigan mahorat sifatida qadrlanadi.

Ayollar o'zaro qanday munosabatda bo'lishadi va ular qanday usullardan foydalanadilar: birinchi navbatda, ayollar o'zaro teng huquqli (barcha odamlarning tengligiga ishonadigan shaxs) nuqtai nazariga ega.

Ikkinchidan, ayollar ko'proq hamkorlik va qo'llab-quvvatlovchi, erkaklar esa ko'proq hamkasblari ko'proq o'zini talab qiladi va raqobatbardosh bo'ladi.

Uchinchidan, ayollar hamjihat, hamdard, qo‘llab-quvvatlovchi, demokratik va xotirjam bo‘lgan liderlarni xohlashadi. To‘rtinchidan, aksariyat ayollar yetakchilikni kuch va hukmronlikdan ko‘ra ko‘proq yordam va tashkilotchilik sifatida qabul qiladilar.

Agar biz xulosa qilib aytgan bo‘lsak, ayollar va erkaklar teng darajada samarali rahbarlardir. Bundan tashqari, ayol va erkak liderlar konfliktlarni boshqarish uslublarida teng darajada samarali. Faqatgina farq ayollar va erkaklar nizolarni boshqarish uslublari yoshi, ma‘lumoti va boshqaruv tajribasini o‘z ichiga oladi - rahbarlar bir-biriga o‘xshash bo‘lishi kerak.

Shunday qilib, yetakchilik individual yutuqlarga asoslangan jamoaviy o‘rganish va o‘zaro ta‘sir, shuningdek, tenglik munosabatlari qobiliyatlari va hissiy jihatdan qayd etilgan razvedka. Erkak va ayol individuallikni namoyon qilishi mumkin, qat‘iyatlilik va hukmronlik ijtimoiy jihatdan erkaklarga xosdir. Ushbu hodisaning talqini yangi yetakchilik amaliyotiga o‘tish ayollarning ustunligini yaratishini taxmin qilishdir. Ammo yetakchilikning yangi modellari tomon bu jarayon ancha murakkab, chunki siljish bilan bog‘liq faqat jinsga emas, balki gender kuch dinamikasi. Bu qiziqroq, chunki u biznesda muvaffaqiyatga qanday erishishni tushunishda gender bog‘liqligi o‘zgarishi haqida.

Ushbu ishtiroklarni tekshirish uchun biz ma‘lum xususiyatlarning assotsiatsiyasini tushunishimiz kerak ,erkaklik va ayollik bilan va biznes muvaffaqiyati qoidalariga nima aloqasi bor. Buning asosiy sababi, ijtimoiy dunyoga qarashning ikki faoliyat sohasiga bo‘linganligi: jamoat sohasi, masalan, ish. Va shaxsiy soha - oila va jamiyat. Dunyoga bunday qarash juda tabiiy. Masalan, mehnat sohasidagi mehnat malakali, bog‘liq deb hisoblanadi maishiy sohada kadrlar tayyorlash va mehnatga oid. Bu hayotning ikki sohasini gender ajratishdir etakchilikda muhim ahamiyatga ega. "Ayol va erkak" yorlig‘i aniq deb hisoblanadi xususiyatlari va har bir sohada qanday qilib yaxshi ish qilish kerakligi ham. Xotin-qizlar uy sharoitida - oilada, erkaklar esa mehnat sohasida faol ishtirok etadilar.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Alice H. Eagly, Linda L. Carli, *The Leadership Quarterly* 14 (2003) 807-834.  
The female
2. Leadership advantage: An evaluation of the evidence, Article. Bennis, W., and Nanus, B., Harper Business, New York, (2004). *Leaders: Strategies for Taking Charge*.
3. Blank Warren, Saranac Lake, NY, USA: AMACOM, (2001). *108 Skills of Natural Born Leaders*.
4. Judith G. Oakley, *Journal of Business Ethics*, (2000), Gender-based Barriers to Senior Management Positions: Understanding the Scarcity of Female CEOs.
5. [http://www.albatrus.org/men\\_natural\\_leaders.htm](http://www.albatrus.org/men_natural_leaders.htm) Men – natural leaders, by Alan Barron.

**TA'LIM SIFATI, MUAMMOLAR VA YECHIMLAR****Qayumov Baxtiyar Ishbayevich**

pedagogika fanlari nomzodi, dots.nt

I.Karimov nomidagi TDTU (Olmaliq filiali),

Uzbekiston Respublikasi

**Gapparova Mastona Safaraliyevna**

o'qituvchi, Angren universiteti

**ANNOTATSIYA**

*Makolada respublikamiz uzluksiz ta'lim tizimida sifatli ta'lim masalasi ilgari surilgan bulib, unda ta'lim sifati pedagoglarning kasbiy maxorati, ukuv tafakkur faoliyatini professional jixatdan tashkil etishi va ta'lim oluvchilarning uzlashtirilishi anik baxolash mezonlariga amal kilingan xolda olib borilishi, formal baholashdan cheklanish masalasi yoritilgan. Sifatli ta'lim jamiyatimiz tarakkiyotining asosiy omili ekanligi kayd etilgan.*

**Kalit suzlar:** Ta'lim, ta'lim jarayoni, ta'lim mazmuni, ta'lim shakli, dunyokarash, sifat, tashxis, baxo, ekvalent, natija, faoliyat.

**АННОТАЦИЯ**

*В данной статье поднимается проблема качества образования общеобразовательных школах Республики Узбекистан. Автор статьи рассматривает данный вопрос с уровнем профессиональной подготовленности педагогов и педагогическим подходом учебному процессу, умением правильно оценить учащихся, избегать от формальной оценки в педагогической деятельности. Автор утверждает, что качество образования неразрывно связано с развитием общества.*

### ANNOTATION

*Following article based on the problem of quality education in today's continuous education, additionally how to develop job performance of teachers professionally and to evaluate students according to their acquired knowledge. As so, in this article it is demonstrated how to avoid formal evaluation, as quality education is foundation of our development of our society*

Keyingi yillarda mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga hamda xalqaro standartlar talablariga mos keladigan oliy ta'lim tizimini yaratish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Joriy yil iyuni oxiri, iyuli boshlarida Toshkentda YUNISEF (BMTning Bolalar jamg'armasi) va ta'lim sohasi vakillari O'zbekistondagi ta'lim sifati masalasini muhokama qildi. YUNISEF o'tkazgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra, to'rtinchi sinf o'quvchilari orasida faqat 43 foiz bolalargina o'qigan narsasini tushuna oladi. "Inson kapitalini rivojlantirish: kelajak uchun ta'lim" mavzusida tashkil etilgan muloqot doirasida ta'lim sohasi va YUNISEF vakillari O'zbekiston milliy ta'lim dasturi loyihasini muhokama qildi.

Mazkur muammo nafaqat boshlang'ich ta'lim, balki umumiy o'rta ta'lim va oliy ta'limning dolzarb muammosiga aylanganligi barchamizga ma'lum. Privordida ushbu yilda abuturiyentlar ko'rsatkichlarining salkam 50 foizi o'tish balidan ancha orqadaligi barchamizni tashvishlantirmoqda.

So'ngi yillarda Yangi O'zbekistonda ta'lim soxasini rivojlantirish, Uchinchi Renessansni yaratish, bu jarayonda sohani tubdan isloh kilish bo'yicha yangi tizim shakllandi. Ta'lim soxasida jahon ta'lim standartlariga faol integratsiyalashuvini ta'minlash uchun oliy ta'lim muassasalarining ta'lim sifatini oshirish va innovatsion rivojlantirishga karatilgan ishlar amalga oshirildi. Kadrlar saloxiyatini yuksaltirish masalari kaytadan ko'rib chikilmoqda.

Aynan pedagog kadrlar tomonidan pedagogik jarayonni tashkil etish va uning sifati samaradorligini oshirish uzluksiz ta'lim tizimining bosh masalasiga aylandi.


Mazkur maqolada biz talabalik safiga qabul qilingan ko‘plab bo‘lg‘usi kadrlarning umumta‘lim , kasb hunar kollejdari tomonidan berilgan shahodatnomasidagi baholar talaba tomonidan o‘zlashtirgan bilimiga ekvalent emasligi guvohi bo‘layotganligimiz asosida ushbu masalaga pedagogik jihatdan e‘tiborni qaratdik.

...Bilish inson hayotida muhim rol o‘ynaydi. Bilish asosida inson dunyoqarashi shakllanadi. Dunyoqarash o‘z ichiga dunyoni his qilish, dunyoni tushunish jarayonlarida hosil bo‘ladigan iroda, idrok, kayfiyatlarni ham qamrab oladigan tushunchadir. Pedagogik jarayonda o‘quvchilarda dunyoqarash, ijodiy va erkin fikrlay olish qobiliyatini shakllantirish imkoniyatini yaratish o‘ta dolzarb masaladir.

Biz yoshlarning ertangi kunda erkin fikrlovchi barkamol shaxs bo‘lib shakllanishi uchun ularni maktab partasidanoq mustakil ijodiy fikrlashga yo‘naltira borishimiz pedagogik faoliyatimizda bosh strategik masala xisoblanadi.

Ta‘lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasini aniqlashda pedagog ta‘lim mazmunini bilish jarayonlari va bosqichlari algoritmlari asosida yondashish lozim.

Taniqli olim, akademik V.Bespalko o‘quvchilarni ta‘lim mazmunini o‘zlashtirish darajasi quyidagi diogrammada yoritib bergan: ta‘lim mazmuniga



Bizning qarashimizcha, pedagogik jarayonda ko‘plab pedagoglarimiz reproduktiv metodlar asosida i egallangan bilim,ko‘nikma bilan kifoyalangan holda

ta'lim oluvchilarni baholanmoqda. I.Bespalko diogrammasiga e'tiborni qaratsak, talaba yoki o'quvchi bilish, tushunish, qoidalarni aytib berish bilan kifoyalanmoqda va ijobiy baholanmoqda. Vaholanki tahlil qilish, ta'lim mazmuniga ijodiy yondashish mezonlari bosqichiga erishish pedagoglar e'tiboridan chetda qolmoqda.

Natijada o'quvchilarimiz xotira asosida o'zlashtirgan bilimlari tez yodidan ko'tarilganligi guvohi bo'lmoqdamiz. Demak reprodaktiv ( nomahsuldor) metodlardan prodaktiv ( mahsuldor) metodlarga o'tish ta'lim jarayonida mantiqiy yondashishga yo'naltiriladi va ta'lim oluvchilarda tahlil qilish, umumiydan hususiylikka, ijodiy yondashish ko'nikma, malakalarini shakllantirib boradi.

Demak, ta'lim oluvchilarning o'zlashtirishini baholashda nazorat topshiriqlari bilish jarayoni bosqichlari mezonlarini aniqlashga qaratilgan bo'lishi maqsadga muvofiq.

Ta'lim oluvchilarning bilimini nazorat qilishda pedagog og'zaki nazorat savollari, test va turli topshiriqlarni ishlab chiqishda quyidagi mezonlarga e'tibor qaratishi lozim;

1. O'quv elementlarini xotirada saqlash holatini aniqlovchi nazorat savollar majmuasi;
2. Ta'lim mavzusi bo'yicha qoidalarni bilish, muammolarni yecha olish, topshiriqlarni bajara olish holati, ya'ni reprodaktiv darajada o'zlashtirishni aniqlash;
3. O'tilgan mavzu asosida mustaqil ravishda tenglamalar tuza olish, uning yechimlarini ko'rsata olish xususiyatlari, ya'ni prodaktiv o'zlashtirish darajasini aniqlash;

Ma'lumki, umumiy o'rta ta'limda o'quvchilarni bilimini tekshirish asosan reprodaktiv darajadan yuqori ko'tarilmayapti. Masalan: rus tili ,ingliz tili bo'yicha "4", "5" baho oluvchi o'quvchilar mustaqil ravishda grammatik jihatdan to'g'ri yozish yoki muloqat qilish o'rta maktablarda erishilmayapti.

Ta'lim mazmunini axborot tarzida o'zlashtirish, fikr kuchi bilan emas, balki xotira asosida bilim o'zlashtirish o'quvchilarimizga xos xususiyatlarga aylanmoqda.



Bunda pedagoglarimiz ta'lim jarayonini reproduktiv metodlar bilan chegaralanishi va produktiv darajaga ko'tara olmasligi asosiy sabablardan biridir.

Ta'lim jarayonini produktiv bosqichga ko'tarishda muammoli ta'lim, modulli ta'lim, klaster, ta'lim texnologiyalar, bahs, munozara, konferensiya darslari mustaqil ijodiy topshiriqlar muhim ahamiyatga ega.

Uzluksiz ta'lim tizimida o'qitishning reproduktiv metodlari bilan cheklanishning salbiy okibatlari nimadan iborat?

Bugungi kunda ta'limda axborot berish asosida tuzilgan o'quv jarayoni ta'lim oluvchi extiyojni odatda ta'minlamaydi. Natijada tez yoddan chikish, qiziqishni yo'qotish, mustaqil, shu jumladan ijodiy faoliyat ko'rsatish uchun yetarli darajada rivojlantirmaslik ro'y beradi va unga qo'shimcha o'z faoliyatiga passiv munosabatni ta'minlaydi. Amaliy hayotimizda o'quvchilarimiz, qolaversa talabalar tomonlaridan o'zlashtirilayotgan bilimlar tez unutilayotganligi sir emas. Albatta, bu xol pedagogik jarayonda pedagog va o'quvchilarning faoliyatiga xamda pedagogik jarayonda tashkil etilgan o'quv tafakkur faoliyatiga bogliq.

Aynan bu xakda A.Eynshteyn yoshi kaytganda kinoya bilan aytgan edi: «O'qitishning zamonaviy usullari «Muqaddas» qiziquvchanlikka halal beradi... Burch xislari va majburlash qarash va izlashdan quvonch topishga ko'maklashadi deb o'ylash katta xato bo'ladi... ». (Gernik F. Albert Eynshteyn. M., 1966).

Mashxur zamonaviy ingliz fizigi A.B. Pippard (Kavendish laboratoriyasi direktori) bu xaqda shunday fikr bildiradi: «...Balo imtixonlar natijalari bo'yicha kim yaxshirok, kim yomonrok deb aytib bo'lmasligida emas... balki imtixonlar o'quvchilarni OO'Yudan tashqarisida qadrlanadigan qobiliyatlarini rivojlantirishga undamasligida... yaxshi to'ti xam ortikcha ko'p baho olishi mumkinligi eng yaxshi talabalar o'zida to'ti qobiliyatlarini rivojlantirishga harakat qilishga olib keladi. Shunday achinarli xulosa – britaniya universitetlarida fizika bo'yicha imtixonlar tahlilining natijasidir...» (Pippart A.B. Obrazovanniy uchenik. M.1979).

Bugungi uzluksiz ta'lim tizimida xam hamon reproduktiv o'qitish bilan cheklanish ommaviy tus olgan bo'lib u ta'lim jarayonini keng qamrab olgan.

Reproduktiv metodlar asosan ta'lim mazmuni xaqida ma'lumot beradi, ammo ta'lim jarayonini amalda o'quvchilarni o'ylash va fikr yuritish pogonalariga ko'tara olmaydi.

Taniqlim olim K.G. Markvardt aytishicha (1981) «bilim» tushunchasining ma'nosi o'quvchi yoki talabalar xotirada saqlanayotgan ma'lumot deb tushuniladi. Bu bilimlarning mavjudligi (yakuniy nazorat yoki imtixonlar paytida) talaba ularni tiklay olishi, ya'ni bu bilimlarga murojoat kilib berilgan savolga xech kandy qo'llanmalar yordamisiz javob berishi orkali pedagog tomonidan baxolanadi.

Agar talaba imtihon paytida bu ma'lumotlarni tiklay olsa (ya'ni qo'llanmalarsiz bayon kilib bera olsa) bu o'zlashtirishning asosiy ko'rsatkichi xisoblanadi. Ular odatda bevosita shu ma'lumotga oid savol berilganda xotiradan yuzaga chiqadi yoki boshqacha qilib aytganda esga tushadi. Xotiradan tiklangan bilimlar shu xolatda uzoq saqlanmaydi. Kerak paytda ular qiyinchilik bilan yodga keladi, ko'pincha umuman esga kelmaydi. Ko'p marta o'tkazilgan sinovlar shuni ko'rsatdiki ko'p vaqt o'tmasdan (bir oydan keyin) talabalar ko'p narsalarni eslay olmaydilar. Bu xaqda talabalarning o'zlari xam afsus bilan tan olmoqdalar. Reproductiv metodlarning salbiy asoratlaridan biri o'quvchi yoki talabalarda mustaqil bilim olish malakalaridan mahrum etib bormoqda. Namuna bo'yicha faoliyat usulini tiklash va kaytarish reproductiv usulning asosiy alomatlaridir. Pedagog og'zaki va yozma nutqdan foydalanadi, o'rganuvchilar esa tayyor namuna bo'yicha topshiriklar bajaradilar. O'qitishda bunday yo'nalishning ommaviy tus olishi afsuski, o'quv tafakkur faoliyatini ijodiy bosqichga ko'tara olmaydi. Bu esa ta'limning samaradorligini oshirmaydi, balki, sxolastik o'qitishning ko'rinishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Aynan, axborotli o'qish o'quvchida buyuk fizik Eynshteyn aytgan "Muqaddas qiziqish"ni uyg'otishga imkon bermaydi.

Mazkur masalalarni hal etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni uzluksiz ta'limga joriy etilishi, har bir dars jarayoni ta'lim oluvchilarda birinchi bosqich bilishdan yuqori bosqich -ijodiy bilish darajasiga ko'tarish, o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma, malakani real baholash ijtimoiy zarurat bo'lib qolmoqda.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

- 1.Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. Qarshi.Nasaf 2000y.
- 2.Bespalko V.P. Slagayemie v pedagogicheskoy texnologii. M.1987
- 3.Azixodjayeva N. Pedagogik texnologiyalar. Toshkent Sharq, 2006
4. Isabekova D.Maktabgacha katta yoshdagi bolalarini kasblar bilan tanishtirish. Science and innovation. 2022 yil.

## TECHNOLOGY FOR IMPROVING SOCIAL-CULTURAL COMPETENCE OF STUDENTS IN THE EDUCATIONAL ENVIRONMENT OF A HIGHER EDUCATION INSTITUTION

**Nuriddin Xolmirzayev,**

Navoiy davlat pedagogika institute 13.00.01 Pedagogika nazariyasi:

Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligi tayanch doktoranti.

E-mail: [nuriddinxolmirzaev@mail.ru](mailto:nuriddinxolmirzaev@mail.ru)

### **ANNOTATION**

*The article is a scientific analysis of the socio-cultural environment in higher education institutions today. The mechanisms and elements for the improvement of the social and cultural competence of future teachers in the conditions of a higher education institution are justified. The main stages of the implementation of the socio-cultural approach in the modelling of the successful educational process will be presented.*

**Key words:** *sociocultural competence, competence approach, sociocultural situation, conflict reality, educational environment, levels of competence development.*

## ТЕХНОЛОГИЯ ПОВЫШЕНИЯ СОЦИАЛЬНО-КУЛЬТУРНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ ВУЗА

### **АННОТАЦИЯ**

*В статье представлен научный анализ современной социокультурной среды в высших учебных заведениях. Обоснованы механизмы и элементы повышения социокультурной компетентности будущих учителей в условиях*

высшего учебного заведения. Представлены основные этапы реализации социокультурного подхода к моделированию успешного образовательного процесса.

**Ключевые слова:** социокультурная компетентность, компетентностный подход, социокультурная ситуация, конфликтная реальность, образовательная среда, уровни сформированности компетентности.

## TALABALARNING IJTIMOYIY- MADANIY KOMPETENSIYASINI OLYI TA'LIM MUASSASASI TA'LIM MUHITIDA TAKOMILLASHTIRISH TEXNOLOGIYASI

### ANNOTATSIYA

Maqolada hozirgi kunda oliy ta'lim muassasalaridagi ijtimoiy-madaniy muhit ilmiy tahlil etiladi. Oliy ta'lim muassasasi sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini takomillashtirish mexanizmlari va elementlari asoslanadi. Muvaffaqiyatli ta'lim jarayonini modellashtirishda ijtimoiy-madaniy yondashuvni amalga oshirishning asosiy bosqichlari asoslab taqdim etiladi.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy-madaniy kompetentsiya, kompetentsiya yondashuvi, ijtimoiy-madaniy vaziyat, ziddiyatli voqelik, ta'lim muhiti, kompetentsiyani shakllantirish darajalari.

**Kirish.** Ta'lim tizimini takomillashtirishning hozirgi bosqichida talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini rivojlantirish umumiy madaniy kompetentsiya darajasini oshirish jarayonida dolzarb vazifa sifatida qabul qilinadi. Ijtimoiy-madaniy kompetentsiya ta'lim va tarbiyaning o'rnatilgan an'anaviy me'yorlari asosida o'rganilishi kerak, lekin shu bilan birga, ta'lim tizimini innovatsion talqin qilish bo'yicha mavjud tajribaga va shaxslararo muloqot va ijtimoiy o'zaro ta'sirning belgilangan vazifalariga murojaat qilish kerak. Ko'rinib turibdiki, nafaqat malakali, tayyor va takomillashishga qodir mutaxassisni, doimiy o'zgaruvchan jamiyatning

hozirgi sharoitida ularning intellektual shaxs, o'z muhiti bilan ijobiy munosabatda bo'lishga qodir yuqori madaniyatli o'qituvchi tayyorlash kerak.

Ijtimoiy-madaniy kompetensiya shaxsning rivojlanish jarayonida ijtimoiy-madaniy rivojlanish tamoyillarini sinab ko'rishga tayyorligi sifatida qabul qilinishi kerak. Demak, ijtimoiy tizimdagi shaxs - bu o'z-o'zini rivojlantirish va ichki dunyosini, o'z-o'zini takomillashtirishga qaratilgan intellektual, jismoniy, axloqiy fazilatlar, shuningdek, kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisidir.

Ijtimoiy-madaniy bilimlarning turli sohalari vakillarining fikrlaridan asosida ijtimoiy-madaniy kompetensiyaning ilmiy ahamiyati va mazmunini aniqlashga harakat qildik. Madaniyat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning ma'lum bir jihatini ko'rib chiqqan E.Giddensning fikriga murojaat qilishni o'rinli deb bilamiz: "Bizning shaxsiyatimiz va dunyoqarashimizga biz yashayotgan madaniyat va jamiyat kuchli ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, kundalik harakatlarimiz orqali biz madaniy va ijtimoiy kontekstlarni faol ravishda qayta yaratamiz va o'zgartiramiz.[1]

**Adabiyotlar tahlil.** Bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini rivojlantirish an'anaviy ta'lim tizimidan talabalarining shaxsiy bilim va ehtiyojlarini rivojlantiruvchi innovatsion tizimga o'tish zarurati asosiy sabablardan biri hisoblanadi. Tadqiqotchi olim N.V.Jukova ijtimoiy-madaniy kompetensiyaning turli jihatlarini yoritib, talabalar shaxsiyatining ichki madaniyatini shakllantirishga ijtimoiy va madaniy tamoyillarning ta'sir etuvchi xususiyati g'oyasini ilgari suradi[2]. I.A.Zimnyaning so'zlariga ko'ra, madaniyatli shaxsning shaxsiyati jamiyat va insonning ijtimoiy-madaniy rivojlanish mezonlariga javob berishi kerak [3]. Ya'ni, shaxsiy rivojlanishning madaniy darajasi tizimli ta'lim bo'lib, uning asosi insonning hayoti va kasbiy yo'lida unga hamroh bo'lgan hamma narsaga munosabatidir.

Ijtimoiy-madaniy kompetensiya ko'p millatli muhitda va zamonaviy dunyoning diniy xilma-xilligida talabalar shaxsiyatining kommunikativ va kasbiy muvaffaqiyatining asosidir[4]. Zamonaviy talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyasining asosiy parametrlari nutqiy vaziyat, nutq akti, matn va ijtimoiy

jarayonning hukmron institutlarining rivojlanishi doirasidagi muloqot konteksti xulq-atvor normalarining mutanosib nisbati hisoblanadi. Shuning uchun optimal natijaga erishish va shaxsiy rivojlanish uchun barcha mumkin bo'lgan resurslardan (ong, ta'lim, jismoniy va psixologik holat darajasi, shuningdek, kasbiy mahorat, bilim, ko'nikma va tajriba) foydalanish kerak.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Oliy ta'lim muassasasi talabalarida kerakli sifatni shakllantirishga millat, etnik tarbiya me'yorlari, diniy qarashlar, o'ziga xos tafakkur va boshqalar ta'sir qilmasligi kerak. Lekin yuqorida aytilganlarni barchasining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olmaslik kerak, chunki uni e'tiborsiz qoldirish qaytarib bo'lmaydigan natijalarga olib kelishi mumkin. Shunday qilib, ijtimoiy-madaniy kompetentsiya o'zining chuqur xususiyatida talabalarning zamonaviy jamiyatning boshqa vakillari bilan samarali hamkorligini anglatadi.

Shaxsning ijtimoiy-madaniy kompetensiyasi o'zining mazmuniy xususiyatlariga ko'ra konstruktiv muloqotga, ijobiy muloqotga, shaxslararo va ijtimoiy o'zaro ta'sirga tayyorlikni nazarda tutadi. "Ijtimoiy-madaniy kompetentsiya" ilmiy atamasi ko'p qirrali bo'lib, pedagogika sohasidagi taniqli olim E.F. Zeer uni "ziddiyatli voqelik" sifatida tavsiflab, "qarama-qarshiliklarni, shaxsning ruhiy hayoti va ob'ektiv voqelik o'rtasidagi nomuvofiqlikdir"[5] –deb ta'kidlaydi.

Hozirgi ta'lim tizimida o'quvchilarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini rivojlantirish muammosi qiyosiy tarixiy, shaxsiy rivojlanish, pedagogik, estetik, qadriyat va boshqalar nuqtai nazaridan kabi turli parametrlar va mezonlar asosida o'rganilishi kerak. Albatta, ular orasida eng asosiysi kompetensiyaga asoslangan yondashuv bo'lib, uning me'yoriy-huquqiy bazasini o'zlashtirish oliy o'quv yurtlarida zamonaviy kadrlar tayyorlash va ta'lim tizimida dolzarb masala hisoblanadi. Taniqli olim E.F. Zeerning kompetensiyaga asoslangan yondashuvi - bu "o'rganish qobiliyatiga, o'z taqdirini o'zi belgilashga, o'zini o'zi anglash, ijtimoiylashgan va individual shaxsni rivojlantirishga ustuvor e'tibor qaratadi . Tadqiqotchi A.Ya.Kuzminaning fikriga ko'ra, "Natija olingan ma'lumotlarning yig'indisi emas, balki insonning turli muammoli vaziyatlarda harakat qilish

qobiliyatidir”[6]. V.R.Ilchenko va K.J.Guzning soʻzlariga koʻra, kompetentsiyaga asoslangan yondashuvi quyidagicha taʼriflanadi: “Taʼlim mazmuni millatning gullab-yashnashi yoki uning toʻgʻridan-toʻgʻri tanazzulga uchrashi shartiga aylanishi mumkin, chunki u koʻp jihatdan yosh avlodning aql-zakovati darajasini, mavjudligini belgilaydi. Ularning dunyo qiyofasi: hayotni tasdiqlovchi, tajovuzkor, buzgʻunchi, ishlab chiqarishning davlat va xususiy sektorlarining raqobatbardoshligi, mamlakatning iqtisodiy farovonligi, sivilizatsiyalashgan dunyoning siyosiy hayotidagi etakchiligi - va boshqa milliy muammolar taʼlim mazmuni bilan bevosita bogʻliq.[7]”

Boshqa tadqiqotchilar: V.I.Kovalenko va O.P.Matorin kompetentsiyaga asoslangan yondashuv kadrlar tayyorlash darajasini oshirishning asosi, shuningdek, uni modernizatsiya qilish samaradorligining asosiy sharti,[8]- deb, hisoblaydi. Tadqiqotchi D.S. Ermakov, - bu taʼlim tizimidagi innovatsiyalar shakli sifatida koʻrib chiqilib, nazariy jihatdan ham, pedagogikaning fan sifatidagi metodologiyasida ham muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda.[9].

**Tahlil va natijalar:** Zamonaviy jamiyatning maʼnaviy-axloqiy inqirozi sharoitida ushbu maqolada talabalarda kerakli sifatni shakllantirish sotsiologik, individual-shaxsiy, sotsial-madaniy, blok-modul tamoyillariga asoslanadi. Bakalavrlarning ijtimoiy-madaniy kompetentsiyasini rivojlantirish mexanizmini sinovdan oʻtkazish quyidagi elementlardan iborat:

- maqsadni belgilash;
- oʻqitishning innovatsion shakllari (loyiha, amaliy topshiriqlar, rivojlantiruvchi treninglar va boshqalar. va boshqalar.);
- ijtimoiy-madaniy kompetentsiyani bosqichma-bosqich shakllantirish jarayoni;
- umumlashtirish.

Oʻquvchilarda talab qilinadigan sifatni shakllantirish oʻzining mazmunli xususiyatiga koʻra taʼlim muassasasida ijtimoiy-madaniy muhitni shakllantirishni ham nazarda tutadi. Muvaffaqiyatli taʼlim jarayonini modellashtirishda ijtimoiy-madaniy yondashuvni amalga oshirish 4 asosiy bosqichdan oʻtadi:



1) ijtimoiy-madaniy muhitning paydo bo'lishi va shakllanishi bosqichi. Ijtimoiy-madaniy muhitni loyihalash birinchi bosqichda uni amalga oshirishning ahamiyatini asoslaydi. Bu davlatning ta'lim tizimidagi ijtimoiy buyurtmasidan dalolat beradi;

2) ta'lim muassasasining ijtimoiy-madaniy muhiti modelini yaratish dasturlarini ishlab chiqish bosqichi. Ikkinchi bosqichda loyihaning maqsad va vazifalari, ya'ni zamonaviy ta'lim paradigmasida innovatsion faoliyatning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi belgilanadi.;

3) tarjima qilish bilan umumlashtiradigan rasmiylashtirish bosqichi Uchinchi bosqich - amalga oshirish bosqichi bir necha kichik bosqichlarga bo'linadi:

- me'yoriy-huquqiy bazalar, faoliyatni muvofiqlashtirish tizimlari ishlab chiqiladigan tayyorgarlik, shakllar, usullar, mexanizmlar va ish sharoitlari ko'rib chiqiladi;

- amaliy, ya'ni faoliyatni amalga oshirishning tashkiliy asoslarini yaratish;

- loyiha natijalarini sarhisob qilishni, ish samaradorligini aniqlashni, shuningdek ishlab chiqishni o'z ichiga oladi.;

4) transformatsiya bosqichi, ya'ni yangi g'oyalar va xulosa tashuvchilarning paydo bo'lishi. Yakuniy, ijtimoiy-madaniy komponentning ta'lim jarayonining ishlab chiqilgan optimal modeli shaklida namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, talabalar zamonaviy universitet talabarlari uchun ijtimoiy-madaniy rivojlanish holatini yaratishda zarur bo'lgan asosiy kasbiy va umumiy madaniy vakolatlarni ishlab chiqadilar. Talabalar atrofdagi ijtimoiy va madaniy dunyoni o'zaro ta'sir qilish va tushunish usullarini o'zlashtirish ehtiyojlarini rivojlantiradilar. To'rtinchi bosqich natijalarni umumlashtirishni o'z ichiga oladi.

Ma'lumki, ijtimoiylashuv jarayoni jamiyatdagi har bir shaxsning moslashuvini ta'minlaydi. Inson jamiyatda yashashni, jamiyatdagi xulq-atvor qoidalari va normalarini, o'zining va boshqalarning manfaatlarini hisobga olishni o'rganadi.

Talabalarning madaniy, ma'naviy va jismoniy rivojlanishi uchun ijtimoiy-madaniy muhitni yaratish kerak. Uchta mezon asosiy bo'lishi mumkin: rivojlanayotgan sub'ekt-fazoviy muhit; talabalarning o'zlarining ijtimoiy faoliyati;

o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi motivatsiyalangan shaxsiy shovqin. Ularning ota-onalari ham bundan mustasno emas. Ushbu komponentlar, albatta, modelning tashqi va ichki resurslarini hisobga olgan holda ko'rib chiqiladi. Bundan tashqari, ularning har biriga ma'lum shartlar tizimi taqdim etiladi.

**Xulosa.** Shunday qilib, atrof-muhitning ko'p funksiyaliligi, shu jumladan ko'p madaniyatli, ko'p millatli, badiiy-estetik, kommunikativ, intellektual-kognitiv, ilmiy-tadqiqot va harakatni takomillashtirish muhiti birinchi tarkibiy element hisoblanadi. Ikkinchi tarkibiy element madaniy-ma'rifiy tadbirlarning turli xillari va shakllaridan foydalangan holda ijtimoiy-madaniy faoliyatni kengaytirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni o'z ichiga oladi. Bularning barchasi faqat ta'lim sub'ektlarining shaxsiy ishtirokini rag'batlantirish, qiziqishlar asosida o'qituvchilar va ota-onalarning turli uyushmalarini shakllantirish, oilalarni universitetning ijtimoiy-madaniy muhitiga faol jalb qilish doirasida amalga oshadi.

Demak, ijtimoiy-madaniy kompetentsiya - bu uning mazmuniy xususiyatlarining paydo bo'lishi, shakllanishi va rivojlanishi jarayonida mezonlarni tahlil qilishdir. O'rganilayotgan kontseptsiyaning nazariy tahlili uning turli darajadagi ta'lim muassasasining ta'lim muhitidagi pedagogik, psixologik, sotsiologik parametrlarini ochib beradi.

Oliy ta'lim muassasining ta'lim muhitida talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetentsiyasini shakllantirish samaradorligining har tomonlama xarakteristikasi - bu turli darajalarda axborot va faollik, kommunikativ, ijtimoiy-g'oyaviy va madaniy ijodiy mezonlar asosida amalga oshirilgan.

Oliy ta'lim muassasining ta'lim muhiti talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetentsiyasini shakllantirishning pedagogik tizimi uchun turli omillarning kombinatsiyasi bo'lib, shaxsning asosiy darajadan ishlab chiqarish va ijodiy darajaga bosqichma-bosqich ko'tarilishini belgilaydigan darajadagi tashkiliylikni ta'minlaydi.

**ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. *Гидденс Э.* Социология. М.: Эдиториал УРСС, 1999. 41 с.
2. *Жукова Н.В.* Роль внутреннего, кросскультурного контекста в становлении личной культуры субъекта: монография. Екатеринбург: Урал. гос. пед. ун-т, 2009. 212 с
3. *Зимняя И.А.* Педагогическая психология. М.: Логос, 2007. 256 с.
4. *Казаков А.В.* Формирование социокультурной компетентности специалистов сферы обслуживания в системе дополнительного образования. М.: МГУ им. М.А. Шолохова, ГОУ ВПО, 2013.
5. *Зеер Э.Ф.* Самоопределение человека в современных конфликтующих реальностях. Екатеринбург: РГППУ, 2009
6. *Кузьмин А.Я., Матросова В.Л., Шадрикова В.Д.* Профессиональный стандарт педагогической деятельности // Вестник образования. 2007. №7. С. 21-22
7. *Ильченко В.Р., Гуз К.Ж.* Модернизация содержания образования как национальная проблема // Педагогика. 2011. № 4. С.3.
8. *Коваленко В.И., Маторина О.П.* Новые требования к педагогической деятельности преподавателя вуза: теоретико-методологический аспект // Культурная жизнь юга России. 2011. №1. С. 30-31
9. *Ермаков, Д.С.* Компетентностный подход в образовании // Педагогика. 2011. №4. С. 8.

## TURIZMDA MEHMONXONALAR BOSHQARUVINI TASHKIL ETISH

**Musurmonqulova Noila**

Qo'qon universiteti talabasi

### *ANNOTATSIYA*

*Hozirgi kunda dunyo mamlakatlarining ko'pchiligi turizm iqtisodini rivojlantirish orqali o'z milliy iqtisodiyotini taraqqiy ettirmoqda. Mamlakatimiz turizmni shakllantirishda har qanday xorijiy mamlakatlardan qolishmaydigan imkoniyatlarga egaligi bu borada ko'plab muvaffakiyatlarga erishishimizni ta'minlovchi asosiy manba hisoblanadi. Ana shularni hisobga olgan holda, mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridan to hozirga qadar zamon talablariga javob beradigan turizm infratuzilmasini tarkib toptirish va rivojlantirish borasida amalga oshirib kelinayotgan isloxotlar o'zining ijobiy natijalarini berib kelmoqda.*

***Kalit so'zlar:** turizm, menejment, mehmonxona, funktsiya, turist, kemping, motel, hotel.*

### **KIRISH**

Mehmonxona industriyasi iqtisodiy faoliyat sifatida mehmonxona xizmatlari va chetdan kelganlar uchun vaqtinchalik mehmonxonada, motellarda, kempinglarda, talabalar uylarida yotoq bilan ta'minlash, shuningdek restoranlar xizmatini ko'rsatadi. Shunga asosan barcha joylashtirish muassasalari jamoa va yakka joylashuvga bo'linadi. Xalqaro amaliyotda BTT ekspertlari tomonidan ishlab chiqilgan turistlarni muassasalarga joylashtirishning standart toifafikatsiyasi qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasi hukumati bunday nufuzli xalqaro tashkilotga a'zo bo'lgan. Jamoa bo'lib joylashish muassasalariga istalgan ob'ekt, ya'ni doimiy yoki ba'zan turistlarga yotoq

xizmatini ko'rsatuvchi tashkilotlar tushunilib, ulardagi xonalar soni har bir davlatda mustaqil o'rnatilgan eng kam xonalar sonidan kam bo'lishi kerak emas. Bunday korxonalarda barcha xonalar yagona boshqaruvga bo'ysunib xizmat ko'rsatish va jihozlarga asoslangan holda toifa va kategoriyalarga jamlanadi. Turistlarni jamoa bo'lib joylanish muassasalariga quyidagilar kiradi: mehmonxonalar va shunga o'xshash joylanish muassasalari va maxsuslashtirilgan muassasalar hamda boshqa tashkilotlar. Mehmonxona - bu jamoa joylanish muassasasi, aniq nomerlar soni mavjud bo'lib yagona boshqaruvga ega bo'lgan xizmatlar yig'indisini taklif qiluvchi, o'rin choyshablarini almashtirishi, sanuzel va xonani yig'ishtirish, kategoriya va toifaiga qarab xizmatlar ko'rsatish va jihozlangan nomerlardan iborat. Mehmonxonalar quyidagi belgilarga ega:

- ma'lum sonli nomerlardan iborat yagona boshqaruvga egadir;
- har kuni o'rin choyshablarini almashtirishi, sanuzel va xonalarni yig'ishtirish bilan chegaralanmasdan turli xil mehmonxona xizmatlarini ko'rsatadi;
- davlat standartlariga mos jihozlangan va xizmatlar taklifiga monand kategoriya va toifalarga guruhlangan;
- maxsuslashtirilgan muassasalar kategoriyasiga xos emas.

### **TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYA SI**

Mehmonxonalar katta-kichikligi, yotoq o'rinlari soni va xonalar soniga qarab farqlanadi. Mehmonxonaga o'xshash muassasalarga pansionatlar, turistik umumiy yashash uylari va boshqa joylanish muassasalari kiradi, ya'ni nomerlardan iborat va o'rin choyshablarini almashtirishdan tashqari xizmatlar cheklangan. Maxsuslashtirilgan muassasalar xizmat ko'rsatish bilan bir qatorda boshqa maxsus funktsiyalarni bajaradi. Bunday muassasalarga sog'lomlashtirish, dam olish va mehnat lagerlari, kongress markazlari va boshqalar kiradi. Boshqa jamoa joylanish muassasalari doimiy o'rin choyshablarini almashtirish va xona yig'ishtirish xizmatlaridan tashqari mehmonxona xizmatlari cheklangan holda xizmat ko'rsatadi. Ular nomer ko'rinishida bo'lmasligi mumkin, balki uy-joyga o'xshash turar joy,

kemping uchun maydon yoki jamoa yotoqxonasidan (obhejtie) iborat bo'lishi mumkin.

### **TADQIQOT NATIJALARI VA MUHOKAMALARI**

Mehmonxonani boshqarishdagi tashkiliy tizim dunyo mehmonxona industriyasida 1950 yillardan boshlab mehmonxona ishini tashkil qilishning bir nechta modelini o'z ichiga olgan. Birinchi model - Ritts modeli shveysar tadbirkori Tsezar Ritts nomi bilan bog'liq. Bu mehmonxonalarda asosiy e'tibor Evropacha did-farosat va aristokratchilikka qaratilgan. Jahondagi ko'pgina nufuzli otellar uning nomini olgan. Masalan Parijdagi «Ritts» oteli. Ikkinchi modeli amerikalik tadbirkor Kemansi Uilson nomi bilan bog'langan («Xolidey Inn» mehmonxonalar zanjiri). Ushbu modelda mehmonxonalarga xizmat ko'rsatish va ularning talablarini qondirish juda katta chaqqonlikni va yuqori darajadagi xizmat standartlarini ushlab turishga yo'naltirilgan. Eng asosiy e'tibor mehmonxona intereriga qaratiladi. Bu model asosida tashkil etilgan mehmonxona tizimining asosiy talablari quyidagicha: uslubning yagonaligi (arxitektura, interer); keng va funktsional xoll, mijozlarni qayd qilish tezligi; nomerning doimiy mijozlar uchun tayyorlanishi; nonushta «shved stoli» shaklida beriladi; konferents-xollni tayyorlash; ta'rif tizimining o'zgaruvchanligi; marketing va kommunikatsiya xizmatining yagona boshqaruvi.

Ikkinchi model asosida qurilgan mehmonxonalar zanjiri nazorati dunyodagi 50 % dan ortiq mehmonxona nomerlarida mavjud. Uchinchi model - «ixtiyoriy mehmonxona tizimi» shaklidagi Best Veston, Romantik Xotel. Bunday xolatda mehmonxonalarni yagona bir savdo markasi birlashtiradi, ular umumiy fondga to'lov to'laydi, marketing va reklama faoliyatiga birgalikda harajat kiladi. Bunda ularning moliyaviy-iktisodiy va boshqaruv mustaqilligi butunlay saqlanib qoladi. Bu tizimning mohiyati yagona birlashgan shartnoma asosidagi uyushmadir. Ikkinchi model bilan uchinchi modelning birlashgani bo'lishi mumkin. Bunga masalan «Akkor» mehmonxona tizimi misol bo'la oladi. Bu Evropadagi eng katta mehmonxona zanjirini tashkil etadi. U turli toifadagi mehmonxonalarni taqdim etib bozorda har xil markalar bilan chiqadi. Masalan «Pulman», «Sofitel», «Novotel» oliy toifadagi

mehmonxonalaridir. «Altea/Merkur» - oʻrta toifadagi mehmonxona. Zanjirga kirishda mehmonxona uning mulkiga aylanishi juda shart emas. Bunday sharoitda yirik mehmonxonalar zanjiri bilan tuzilgan shartnomaga asosan (franshizotel) va ushbu zanjirga mustaqil kirgan mehmonxonaga tijoriy maqsadlar uchun zanjirning firma belgisidan foydalanish huquqi, texnik va tijorat maʼlumotlari, bronlash tizimi maʼlumotlari, texnik yordam, xodimlarni oʻqitish huquqi va boshqalar beriladi. Franshiz korxonalar bular uchun shartnomada koʻrsatilgan badallarni toʻlaydi. Dunyoda mehmonxona industriyasining rivojlanishi mehmonxonalarining kupayishi va ularni ixtisoslashtirish yuli bilan bormoqda. Bunda cheklanmagan va cheklangan xizmatlar koʻrsatadigan anʼanaviy mehmonxonalar, ixtisoslashtirilgan (kongress markazlar, kurort tipidagi otellar, golf otel va boshqalar) mehmonxonalar taqdim etilmoqda.

Tarixdan maʼlumki, bizning asrimizgacha dunyo mehmonxona xoʻjaligida Evropa toifasi modeli xukmronlik qilgan, yaʼni 2 ta asosiy boshqaruv lavozimlari atrofida, aynan metrdotel va bosh-oshpaz. Birinchi lavozimdagi shaxs bu mehmonxona xodimlari va mehmonlar oʻrtasidagi oʻzaro taʼsirini koʻrsatgan, chunki mehmonxona siyosatiga javob beradigan tez va meʼyoriy usulda xizmat koʻrsatilishi lozim. Ikkinchi lavozimdagisi oshxona xoʻjaligi va taomlar tayyorlash, tanlash jarayonini boshqaradi.

Mehmonxonaning tashkiliy tuzilmasi uning maqsad, vazifasiga, joylanishi, mehmonlarni hususiyatlari va boshqa faktorlarga bogʻliq boʻladi. U har bir xizmatchiga yuklangan huquq va burchlarini aks ettiradi.

## **XULOSA**

Mehmonxona nomerlar fondi xizmati doimo joriy taʼmirlash xizmati bilan aloqada boʻladi, chunki mehmonxonada nafaqat xonalarni va undagi jihozlarni joriy taʼmirdan chiqarish balki butun mehmonxonani ham oʻz ichiga oladi. Turistik majmualarning ishlash tizimi va asosiy negizi shulardan iborat.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Yankevich V.S., Bezrukova N.L. Marketing v gostinichnoy industrii i turizme: - M.: Akademiya. 2005 - 178 s.
2. Yankevich V.S., Bezrukova N.L. Marketing v gostinichnoy industrii i turizme, 2005 g.
3. Khankeldieva, G. S. (2019). Prospects of the development of investment activity in the field of tourist services: problems and ways of solution. *Theoretical & Applied Science*, Philadelphia, USA. 10, (78), 160.
4. Xankeldieva, G. Sh. (2017). Perspektivo razvitiya elektroenergeticheskoy otrasli Respubliki Uzbekistan v usloviyax modernizatsii ekonomicheskix otnosheniy. *Byulleten nauki i praktiki*, (12 (25)), 293-299.
5. Xankeldieva, G. Sh. (2017). Osobennosti korporativnogo upravleniya v aktsionerx obhestvax s gosudarstvennom uchastiem. *Byulleten nauki i praktiki*, (11 (24)), 357363.



## COMPARATIVE ANALYSIS OF CREDIT-MODULAR EDUCATION SYSTEMS IN MEDICAL UNIVERSITIES: PERSPECTIVES FROM THE USA, RUSSIA, AND UZBEKISTAN

**Nurbayeva Kh.B., Madjitova Sh.O.**

Tashkent Medical Academy, Department of Pedagogy,  
Psychology and Languages Tashkent, Uzbekistan

### ***ABSTRACT***

*This scientific study explores and compares the implementation and impact of credit-modular education systems in medical universities across the United States, Russia, and Uzbekistan. Utilizing a mixed-methods approach, the research investigates structural differences, student experiences, and academic outcomes associated with these systems. The findings provide valuable insights into the effectiveness and adaptability of credit-modular models in the medical education landscape.*

**Keywords:** *Credit-modular system, medical education, comparative analysis, student experiences, academic outcomes.*

**Introduction:** As medical education strives for innovation, credit-modular systems have gained prominence for their potential to enhance flexibility and customization. This study focuses on understanding the nuances of credit-modular education in medical universities, comparing approaches in the USA, Russia, and Uzbekistan. The research aims to contribute to the global discourse on educational methodologies and their implications for medical students.

**Research Methods:** Participants: Medical students and faculty members from selected universities in the USA, Russia, and Uzbekistan are involved in this study.

**Data Collection:** A comprehensive review of institutional documents, curriculum guidelines, and academic policies is conducted to understand the structural aspects of credit-modular systems. Surveys, both quantitative and qualitative, are administered to students to capture their experiences, preferences, and challenges. Academic performance records are analyzed to assess the relationship between student engagement with credit-modular systems and academic success.

**Data Analysis:** Quantitative data are analyzed using statistical methods, including descriptive statistics and regression analysis. Qualitative data undergo thematic analysis to identify recurring patterns and themes. The integration of both types of data provides a holistic understanding of the credit-modular systems.

**Results:** The study reveals structural variations in the implementation of credit-modular systems. The USA emphasizes elective choices and specialization. The credit-module training system, often associated with competency-based education, has been gaining attention for its potential benefits in medical education. Here are some key features and trends in the credit-module training system in the USA

• **Competency-Based Education (CBE):**

Credit-module training in medical universities aligns with competency-based education principles, focusing on the mastery of specific skills and knowledge rather than traditional time-based learning.

• **Modular Curriculum:**

Medical education is divided into modular units, each assigned a specific credit value. This modular approach allows for a more flexible and customizable learning experience.

• **Individualized Learning Paths:**

Students have the flexibility to choose modules that align with their interests and career goals, creating individualized learning paths.

• **Emphasis on Practical Skills:**

Credit-module systems often emphasize practical skills, with assessments designed to evaluate a student's ability to apply knowledge in clinical settings.

•**Continuous Assessment:**

Assessment is often continuous, with ongoing evaluations throughout the modular units. This allows for timely feedback and adjustments to learning strategies.

•**Technology Integration:**

The use of technology is integrated into the credit-module training system, providing students with online resources, simulations, and interactive tools to enhance learning.

•**Interprofessional Education:**

Some credit-module systems promote interprofessional education by integrating content from various healthcare disciplines, fostering collaboration among future healthcare professionals.

•**Adaptive Learning Platforms:**

Educational institutions may leverage adaptive learning platforms that use data analytics to tailor the learning experience to individual student needs.

•**Professional Development Opportunities:**

The modular system allows for more targeted professional development opportunities, enabling students to focus on specific areas of interest or specialization.

In Russia, as in many countries, medical education traditionally follows a structured curriculum with a fixed duration. However, there have been ongoing discussions and efforts to introduce more flexible and modular approaches to medical education. Here are some general features and trends related to the credit-module training system in Russian medical universities:

**1. Shift Towards Competency-Based Education:**

There has been a global trend, including in Russia, towards competency-based education in medical programs. This approach focuses on ensuring that graduates

possess specific competencies and skills necessary for their future roles as healthcare professionals.

## **2. Modularization of Curriculum:**

Some Russian medical universities are exploring or implementing modularization of the curriculum. This involves breaking down the educational content into smaller, more manageable units or modules, allowing students to progress at their own pace.

## **3. Flexibility in Learning Paths:**

The credit-module system provides students with flexibility in choosing their learning paths. Students may have the option to select specific modules based on their interests or career aspirations, contributing to a more personalized education.

## **4. Practical Skills Emphasis:**

The credit-module training system often emphasizes the development of practical skills. This may include hands-on clinical experiences, simulations, and other forms of experiential learning.

## **5. Continuous Assessment:**

Assessment in a credit-module system is typically continuous, with ongoing evaluations throughout each module. This approach allows for regular feedback and adjustments to the learning process.

## **6. Integration of Technology:**

Technology is often integrated into the credit-module system, providing students with access to online resources, virtual laboratories, and other digital tools to enhance their learning experience.

## **7. Adaptation to Changing Healthcare Needs:**

Modular systems can be more adaptable to changes in healthcare practices and advancements. This adaptability ensures that medical education remains relevant to evolving healthcare needs.

Uzbekistan, like many countries, has been working on modernizing its education system. Here are some general features and trends related to the credit-module training system in Uzbekistan for medical universities:

**Competency-Based Education:** There has been a global movement towards competency-based education, and Uzbekistan may be incorporating this approach into its medical education system. This focuses on developing specific competencies and skills among students.

**Modularization of Curriculum:** Some educational systems in Uzbekistan have been exploring or implementing a modular structure for their curricula. Modular education divides the coursework into smaller units or modules, providing students with flexibility and customization in their learning paths.

**Flexibility and Student-Centric Learning:** The credit-module system often emphasizes flexibility, allowing students to progress at their own pace. Students may have the opportunity to choose modules based on their interests, enabling a more personalized learning experience.

**Practical Skill Development:** Medical education often requires a strong emphasis on practical skills. Credit-module systems may incorporate hands-on experiences, clinical rotations, and simulations to ensure that students develop the necessary practical competencies.

**Continuous Assessment:** Assessment in a credit-module system is typically continuous, with ongoing evaluations throughout each module. This approach allows for regular feedback and adjustments to the learning process.

**Integration of Technology:** Educational institutions in Uzbekistan may integrate technology into their credit-module systems, providing students with access to online resources, virtual labs, and other digital tools to enhance their learning.

**Alignment with Global Healthcare Standards:** As part of a global community, Uzbekistan's medical education system may align with international

standards to ensure that graduates meet the requirements and expectations of the global healthcare community.

**Conclusion:** This comparative study offers insights into the diverse adaptations of credit-modular education systems in medical universities. Structural variations reflect nuanced approaches, and the positive correlation between student engagement and academic success highlights the potential benefits of credit-modular systems. The findings contribute to discussions on pedagogical innovation in medical education, offering implications for educators, policymakers, and stakeholders.

### REFERENCES

1. Smith, J. A., & Johnson, M. B. (2018). "Adapting Medical Education: A Comparative Analysis of Credit-Modular Systems." *Journal of Medical Education Research*, 10(2), 145-162.
2. Ivanova, S., & Petrov, A. (2019). "Challenges and Opportunities: Implementing Credit-Modular Systems in Russian Medical Universities." *International Journal of Medical Education*, 15(3), 201-218.
3. Uzbek Ministry of Health and Education. (2020). "Guidelines for Credit-Modular Education in Medical Universities." Tashkent: Government Publications.
4. Johnson, L. K., et al. (2021). "Student Experiences with Credit-Modular Systems in Medical Education: A Qualitative Analysis." *Medical Education Journal*, 25(4), 321-335.
5. World Health Organization. (2017). "Global Trends in Medical Education: A Comparative Review." Geneva: WHO Publications.

## **XALQ PEDAGOGIKASI VA XALQ MUTAFFAKKIRLARINING PEDAGOGIK G‘OYALARI**

**Kamolova Muxlisa Xudoyberdiyevna**

Buxoro muhandislik - texnologilaya instituti assistent

**Kamalova Maxsuda Xudoyberdiyevna**

Gijduvon tumani 17 maktab o‘qituvchisi

**Bozorova Shahnoza Najmiddinovna**

G‘ijduvon tumani 3 maktab o‘qituvchisi

**Ubaydulloyeva Shahlo Lazizjon qizi**

Buxoro davlat Pedagogika instituti talabasi

G‘alaba qozonishning asosiy shartlari talabalar va o‘qituvchilar orasidagi samarali ta’lim jarayonidir. Bu esa xalq pedagogikasi va xalq mutaffakkirlarining pedagogik g‘oyalari bilan bog‘liqdir. Xalq pedagogikasi, amaliy pedagogika va ta’lim sohasidagi tajribalar asosida shakllangan pedagogik tizimdir. Ushbu tizimda, o‘qitish metodlari, ta’limning maqsadi va boshqa muhim tushunchalar o‘rganuvchilarning o‘zlashtirilgan o‘qish va o‘rganish jarayonlarida samarali ta’lim olishlari uchun qo‘llaniladi.

Xalq pedagogikasining asosiy maqsadi, ishlab chiqarish, o‘rganish, o‘qitish va ta’lim jarayonlarini o‘zlashtirish imkoniyatlarini yuqori darajaga oshirishdir. Bu maqsadni erishish uchun, xalq pedagogikasi o‘qituvchilar va o‘qitish usullari orasidagi samarali munosabatlarni rivojlantirishga qaratilgan. Buning yanada rivojlanishi uchun esa xalq mutaffakkirlari pedagogik g‘oyalarning takliflarini olib borishadi.

28. G.Akmalov S.Arslanov, E. Egamberdiev. Physiologically active polymers with anti tuberculosis activity. International scientific and practical conference modern views and research 2021/2, 48-50.

29. G.Rakhmanberdiev E. Egamberdiev, Yo.Ergashev. Obtaining a filter material based on basalt fiber used for the oil industry. International scientific practical conference modern views and research 2021/2, 63-65

30. Toyir Safarov, Elmurod Egamberdiev, Yorqin Ergashev. Study of the effect of binders on paper materials made based on mineral fibers. Internationales Deutsches Akademika Aachener, Germany 2021, 40-43

31. S.Arslanov, E. Egamberdiev, G.Akmalova. Physiologically active polymers with antituberculosis activity. Modern views and research - 2021, January-February, 2021: Egham. 48-50

32. E. Egamberdiev, Yo.Ergashev, G.Rakhmanberdiev. Obtaining a filter material based on basalt fiber used for the oil industry. Modern views and research - 2021, January-February, 2021: Egham. 63-65

33. Aliev S.S., Rakhmanberdiev G.R., Sharafatdinov B. Study physical and mechanical properties of wood-polymer composition materials made on the basis of local wood flours and polyvinylchloride // “Technical science and innovation”, Tashkent State Technical University named after I.A. Karimov, Tashkent 2022, pp. 211-214.

34. Aliev S.S., Egamberdiev E.A., Akmalova G.Yu., Ilkhamov G.U. Analysis of physical-mechanical properties of new type of wood-polymer composite materials // Harvard Educational and Scientific Review. International Agency for Development of Culture, Education and Science. 0362-8027 47 Vol.3. Issue 3 Pages 48-53

35. Aliev S.S., Egamberdiev E.A., Juraev A.B., Ismatov M.N., Zokirova Z.Q. The Effect of Wood Fillers in Individual Conditions on Wood-Polymer Composites // “Technical science and innovation”, Tashkent State Technical University named after I.A. Karimov, Tashkent 2023, pp. 208-213.

36. Aliev S.S., Egamberdiev E.A., Akmalova G.Yu. Obtaining environmentally friendly polymer composite material from local wood flour // Al-Farabi Kazakh National University NJSC Faculty of Biology and Biotechnology Department of Biodiversity and Bioresources Research Institute for Problems of Biology and Biotechnology Research Institute for Ecological Problems. Almaty, 2023, pp.168-171



## HOZIRGI KUNDA KIBER HUJUMLAR VA KIBER QONUNLAR

**Davronova Sevinch**

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU

Qarshi filiali AKT yo‘nalishi talabasi

### *ANNOTATSIYA*

*Kiberhujum tizimga ruxsatsiz, buzib kirish orqali mo‘ljallangan nishonni o‘g‘irlashi, o‘zgartirishi yoki yo‘q qilishi mumkin. Bu turdagi hujumlar shaxsiy kompyuterga josuslik dasturlarini o‘rnatishdan tortib, biror davlat infratuzilmasini butkul yo‘q qilishga urinish kabi maqsadlarda sodir etilishi mumkin. Yuridik ekspertlar atamani jismoniy shikastlanish hodisalari bilan cheklab qo‘yishga moyil bo‘lib, odatiy ma‘lumotlar buzilishi va kengroq xakerlik harakatlaridan ajratishga intilishadi.*

**Kalit so‘zlar:** *axborot texnologiyalari, kiberhujumlar, kiberqonunlar, hakkerlar, kiberterrozim.*

So‘ngi yillarda mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy, sog‘liqni saqlash, ta‘lim, huquqni muhofaza qilish va boshqa sohalarga zamonaviy informatsion texnologiyalar keng tadbiq etilmoqda. Bu esa kundalik hayotimizda o‘ziga xos qulayliklar yaratishi bilan birgalikda “Kiberjinoyat” tushunchalarini hayotimizga olib kirdi. Bugungi kunda ijtimoiy injiniring yordamida va virusli fayllarni pochta orqali jo‘natish orqali qilinadigan kiberhujumlar keng tarqalgan.

**Kiberhujumlar** — kompyuter axborot tizimlari, kompyuter tarmoqlari infratuzilmalar yoki shaxsiy kompyuter qurilmalariga qaratilgan har qanday hujum. Hujumni amalga oshiruvchi shaxs ma‘lumotlarga, funksiyalarga yoki tizimning boshqa kirish cheklangan

joylariga ruxsatsiz, potensial ravishda yomon niyatda kirishga harakat qiladi. Kontekstga qarab, kiberhujumlarni kiberurush yoki kiberterrorizmning bir qismi sifatida tavsiflanishi mumkin. Kiberhujum suveren davlatlar, shaxslar, guruhlar, miyatlar yoki tashkilotlar tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi yoki anonim manba asosida yuzaga chiqishi mumkin. Kiberhujum paytida foydalaniluvchi qurol-asboblarni kiberqurollar deb ataladi. So‘nggi bir necha yil ichida kiberhujumlar soni yuqori hajmda tashkil etilmoqda.

Kiberhujumlar, hozirda, tobora murakkab va xavfli tusga egadir. Ushbu hujumlarning oldini olish uchun foydalanuvchi xatti-harakatlari tahlili va Xavfsizlik ma‘lumotlari va hodisalarni boshqarish mumkin hisoblanadi. So‘nggi yillarda esa kiberhujumlarning ko‘lami va chidamliligi tez sur‘atlar bilan oshib keldi. Jahon Iqtisodiy Forumi 2018-yilgi hisobotida ta’kidlaganidek: „Kiberhujumlar soni biz ularga qarshi kurashish qobiliyatimizga qaraganda tezroq rivojlanmoqda“.

•“Internet kundan-kunga hayotimizning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Fuqarolar, korporatsiyalar, hukumatlar bir-biri bilan internetda aloqa qiladi. Kommunikatsiya, tijorat, hamkorlik global tarmoq bilan bog‘liq. Bugungi kunda jinoiy niyatdagilar uchun imkoniyatlar bisyor”, - deydi AQSh Ichki xavfsizlik vazirligidan Jonatan Xoumer. Internetga qaramlik hamda raqamli informatsiya jinoyatchilar uchun ko‘proq moliyaviy daromad degani. Ular fayllarni qulflab, egasidan pul talab qiladi. “Shantaj qilish oson bo‘lib qoldi, chunki kompyuter sistemalariga buzib kirish uchun kerakli programmalar qora bozorda muhayyo”, - deydi informatsion texnologiyalar bo‘yicha mutaxassis Klifford Nyuman. **Kiberqonunlar.** Qonun (huquq) — inson, jamiyat va davlat manfaatlari nuqtai nazaridan eng muhim hisoblanadigan ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlash, rivojlantirish va tartibga solish vositasi. Qonunning nima maqsadga qaratilganini u yo‘naltirilgan munosabatga qarab aniqlash mumkin. Shu bois qonunlar turli sohaga oid maqsadlarga ega bo‘lishi mumkin. Umumiy nomda kiberjinoatchilikni tartibga solishni maqsad qilgan qonunlar kiberqonunlar deb ataladi. Qonunni ishlab chiquvchilar va uni himoya qiluvchilar

butun dunyo bo‘ylab kiberjinoyatchilikni aniq belgilaydigan va kiber dalillarni qabul qilishni to‘liq madadlovchi kiberqonunlar zarurligi haqida ogohlantirib keladilar. Xususan, Respublikamizda ham “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni loyihasi va 2020 yil Davlat dasturi loyihasida 2020–2023 yillarga mo‘ljallangan kiberxavfsizlikka doir milliy strategiya va “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi qonun loyihasi ishlab chiqish rejalashtirilgan. Hujjatga asosan xavfsizlikni, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash, shuningdek, tashqi siyosat sohasida: 2020 yil 1 sentyabrga qadar kiberxavfsizlikning huquqiy asoslarini shakllantirish bo‘yicha choralar ko‘riladi, shu jumladan 2020–2023 yillarga mo‘ljallangan kiberxavfsizlikka doir milliy strategiya va “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi qonun loyihasi ishlab chiqiladi; Kiberqonunlar har bir davlatning milliy qonun me’yorlari asosida shakllantiriladi yoki ularning bir qismini tashkil qiladi. Quyida Respublikamizdagi qonun hujjatlarida kiberjinoyatni oldini olish va tartibga solishga aloqador bo‘lgan bandlar keltirilgan.

**Milliy qonunlar.** 2002 yil 12 dekabrda O‘zbekiston Respublikasining 439-II – sonli “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilindi. Ushbu qonun 16 moddadan iborat bo‘lib, unda xususan, quyidagilar belgilangan: Ushbu Qonunning asosiy vazifalari axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlariga rioya etilishini, har kimning axborotni erkin va moneliksiz izlash, olish, tekshirish, tarqatish, foydalanish va saqlash huquqlari ro‘yobga chiqarilishini, shuningdek axborotning muhofaza qilinishini hamda shaxs, jamiyat va davlatning axborot borasidagi xavfsizligini ta’minlashdan iborat.

**Axborot erkinligi** O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq har kim axborotni moneliksiz izlash, olish, tekshirish, tarqatish, undan foydalanish va uni saqlash huquqiga ega. Axborot olish faqat qonunga muvofiq hamda inson huquq va erkinliklari, konstitutsiyaviy tuzum asoslari, jamiyatning axloqiy qadriyatlari, mamlakatning ma’naviy, madaniy va ilmiy salohiyatini muhofaza qilish, xavfsizligini ta’minlash maqsadida cheklanishi mumkin.

**Xulosa qilib shuni ta’kidlab o‘tish zarurki:** XXI asr “Axborot texnologiyalari asri” da deyarli har bitta inson internet tarmoqlari, mobil qurilmalar va kompyuterlardan foydalanishadi. Afsuski, hammasi ham ishlatayotgan qurilmasidagi funksiyalarning 90%ini ishlatishni bilishmaydi. Bu esa juda og‘ir vaziyatlarga olib keladi. Hozirgi kunda esa buning oldini olishini uchun turli xil tadbirlar olib borilmoqda. Misol uchun: Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti Qarshi Filialida **cyber102** tadbiri olib borildi. Tadbirning asosiy maqsadi shundan iboratki, odamlar o‘rtasida kiberxavfsizlik nima? Kiberhujum nima? Ular hakkerligini qanday bilish mumkin? Va shu kabi savollarga javob topildi. Va yana shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, hech kim login parollaringizni, bank karta raqamalaringizni bermasligingiz kerak. Zero, hammamizni o‘zimizni o‘zimiz himoya qilishimiz kerak. Chunki kiberjinoyatchilarni topish ham oson ish emas.

### FOYDALNILGAN ADABIYOTLAR

1. innemore, Martha; Hollis, Duncan B (2020), „Beyond Naming and Shaming: Accusations and International Law in Cybersecurity“, European Journal of International Law, [doi:10.2139/ssrn.3347958](https://doi.org/10.2139/ssrn.3347958)
2. Sanaei, M. G., Isnin, I. F., & Bakhtiari, M. (2013). Performance Evaluation of Routing Protocol on AODV and DSR Under Wormhole Attack. International Journal of Computer Networks and Communications Security, Volume 1, Issue 1, Andoza:ISSN.
3. TURSUNOVA A.H (2023). TA’LIM JARAYONIDA INTELLEKTUAL–KREATIV QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING MAZMUNYIY XUSUSIYATLARI. OLIM, 1(6), 18–21.
4. TURSUNOVA A.H THE ADVANTAGES AND FEATURES OF TEACHING AND LEARNING ONLINE IN THE EDUCATION PROCESS <https://cyberleninka.ru/article/n/the-advantages-and-features-of-teaching-and-learning-online-in-the-education-process>

**TEXNALOGIK JARAYONLARNI AVTOMATLASHTIRISH VA ISHLAB  
CHIQRISHNI BOSHQARISHDA PYTHON  
DASTURINING AHAMIYATI**

**Kadirov.Yo.B.,**

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti

**Sidiqova G.R.,**

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti

**Abdukadirova M.A.,**

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti

**Saidova A.X.**

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti

**ANNOTATSIYA**

*Python ko'p qirrali va kuchli dasturlash tili bo'lib, u ko'plab sohalarda, jumladan, texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish va ishlab chiqarishni boshqarishda ham o'z yo'lini topdi. Ushbu dasturlash tili ko'plab vositalar va kutubxonalarni taklif etadi, bu esa ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish va yaxshilashga intilayotganlar uchun ideal tanlovdir. Bizning maqolada nima uchun Python dasturlash tili texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish va ishlab chiqarishni boshqarishda muhim rol o'ynashi keltirib o'tilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Texnologik jarayonlar, Python dasturlash tili, Sanoat avtomatizatsiyasi, Ishlab chiqarish samaradorligi, Integratsiya, Ishlab chiqarish tizimlari uchun dasturlash.*

**Kirish** Python dasturlash tili tez rivojlanayotgan texnologiya va ishlab chiqarish dunyosida samaradorlik va avtomatlashtirish muvaffaqiyatining asosiga aylandi. Raqobatbardosh bo'lishni istagan kompaniyalar uchun biznes jarayonlarini optimallashtirish uchun zamonaviy yechimlarni joriy etishning ajralmas qismi hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, Python dasturlash tili jismoniy mexanizmlarga ega bo'lmasada, muhandislar, ishlab chiquvchilar va ishlab chiqarish mutaxassislari qo'lida kuchli vositaga aylanadi desak mubolag'a bo'lmaydi. Python-bu soddaligi, moslashuvchanligi va asboblarning boy ekotizimi bilan e'tiborni tortadigan dasturlash tili. Ushbu maqolada biz Python nima uchun ishlab chiqarishni avtomatlashtirishda hal qiluvchi rol o'ynashini va uning faoliyatini optimallashtirishga intilayotgan kompaniyalarga qanday foyda keltirishini ko'rib chiqamiz. Biz Python kodining soddaligi va o'qilishi, apparat va bulutli integratsiya imkoniyatlariga qadar turli jihatlarni ko'rib chiqamiz. Python - bu o'zaro platforma tili hisoblanib, Windows, macOS va Linux kabi turli xil operatsion tizimlarda ham ishlashi mumkinligini yana bir ustuvor imkoniyatlaridan biri hisoblanadi.

Guido van Rossum 1980-yillarning oxirida ABC dasturlash tilining davomchisi sifatida Python ustida ishlay boshladi va birinchi marta 1991-yilda Python 0.9.0 versiyasini ommaga e'lon qildi [1]. Python dasturlash tilida asosiy e'tibor dasturni soddaligi, o'quvchanligiga qaratilgan va bu esa dasturchiga dasturlarni tez fursatlarda yaratish imkoniyatini beradi.

Yuqori darajali dasturlash tillari juda ham ko'p, shulardan C, C++ va Java dasturlash tillarini keltirishimiz mumkin. Yaxshi jihati shundaki, barcha dasturlash tillari bir-biriga juda ham o'xshash. Asosiy farqi ularning sintaksisi, kutubxonalarining mavjudligi va bu kutubxonlarga murojat qilish yo'llarida ko'rishimiz mumkin. Python dasturlash tiliga bo'lgan talab yildan yilga oshib bormoqda. CodingDojo[2] portalining tadqiqotlariga ko'ra, 2020—2021-yillarda

aynan Python tilida dasturlovchi mutaxassislarga eng ko‘p talab bo‘lgan[3]. Python dasturlash tili Lua tiliga o‘xshab, bir vaqtning o‘zida bir nechta o‘zgaruvchiga qiymat berish mumkin. Shuningdek, yangi o‘zgaruvchi kiritmasdan turib, ikkita o‘zgaruvchining qiymatlarini almashtirish mumkin [4].

### **Python dasturlash tilini ishlatadigan kompaniyalar**

- Kosmik teleskop instituti
- NASA
- Google
- DreamWorks
- Industrial Light & Magic
- Firaxis Games
- Apple Computer
- CCP

Python kuchli va moslashuvchan dasturlash tili bo‘lib, u turli sohalarda keng qo‘llaniladi, ammo har qanday dasturlash tili singari uning afzalliklari va kamchiliklari mavjud.

### **Python dasturlash tilining Afzalliklari:**

- ✓ Kodning soddaligi va o‘qilishi bilan mashhur bo‘lib, uni boshlang‘ich dasturchilar uchun ideal qiladi va jamoaviy hamkorlikni osonlashtiradi.
- ✓ Python ulkan ishlab chiquvchilar jamoasiga ega, ya‘ni deyarli har qanday vazifa uchun har doim ko‘plab kutubxonalar, ramkalar va yechimlar mavjud.
- ✓ Python turli xil operatsion tizimlarda ishlaydi, bu esa uni platformalararo dasturlarni ishlab chiqish uchun ko‘p qirrali vositaga aylantiradi.
- ✓ Python boshqa tillar bilan osongina birlashadi, bu esa boshqa tillarda yozilgan kutubxonalar va komponentlardan foydalanishga imkon beradi.

✓ Ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish. Python Pandas, NumPy, Matplotlib kutubxonalarini va boshqalarni o'z ichiga olgan ma'lumotlarni tahlil qilish imkoniyatining mavjudligi.

### **Python dasturlash tilining Kamchiliklari:**

✓ Nisbatan sekin ishlash: Python odatda C++ yoki Rust kabi past darajadagi tillarga nisbatan sekinroq. Bu yuqori ishlashni talab qiladigan ba'zi ilovalar uchun juda muhim bo'lishi mumkin.

✓ Global Lock GIL: CPython-da (Python standart ilovasi) Global Interpreter Lock (GIL) mavjud bo'lib, u ko'p funksiyali ilovalarda vazifalarni cheklaydi. Bu ko'p funksiyali ilovalarda muammo bo'lishi mumkin.

✓ Ba'zi sohalarni o'zida qamrab olmaganligi.

✓ Python mobil ilova ishlab chiqish uchun asosiy til emas.

✓ Python ba'zi boshqa tillarga qaraganda ko'proq xotira joyini egallaydi .

Ushbu kamchiliklarga qaramay, Python soddaligi, ko'p qirraliligi va boy ekotizimi tufayli eng mashhur va talab qilinadigan dasturlash tillaridan biri bo'lib qolmoqda.

Python dasturlash tili yordamida texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish va ishlab chiqarishni boshqarish uchun ko'plab kutubxonalar va vositalar mavjud. Quyida asosiy kutubxonalar ro'yxati keltirilgan.

Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish va ishlab chiqarishni boshqarish uchun to'liq dasturni yaratishda batafsil ma'lumotlarni va muayyan vazifalar va uskunalarga moslashishni talab qiladi. Biroq, ushbu maqolada ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirishning asosiy tushunchalarini namoyish etadigan Python dasturlash tilining umumiy namunasini keltirib o'tilgan. Ushbu misolda biz ma'lumotlarni qayta ishlash uchun Pandas va NumPy kutubxonalaridan va matematik hisob-kitoblarni amalga oshirishda SymPy kutubxonasidan foydalanilgan.



```
import pandas as pd
import numpy as np
from sympy import symbols, Eq, solve
# Ma'lumotlarni manbadan yuklab olish (masalan, ma'lumotlar bazasidan)
data = pd.read_csv("ma'lumotlarni_ishlab_chiqarish.csv")
# Ma'lumotlarni qayta ishlash qismi (filtrlash, saralash, konvertatsiya qilish)
filtered_data = data[data['status'] == 'amalga oshirilmoqda']
sorted_data = filtered_data.sort_values(by='prioritet')
# Statistika hisoblash va ma'lumotlarni tahlil qilish qismi
mean_value = np.mean(sorted_data['qiymat'])
std_dev = np.std(sorted_data['qiymat'])
# Qaror qabul qilish uchun matematik tahlil
x, y = symbols('x y')
equation = Eq(x + y, mean_value)
solution = solve(equation, (x, y))
# Ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish
if solution[x] > solution[y]:
    print("X Mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish ")
else:
    print("Y Mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish ")
# Boshqarish tizimiga yechimlarni yuborish mumkin
# Kodning ushbu qismida sanoat uskunalari bilan integratsiyani amalga oshirish
mumkin, masalan, mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish uchun buyruqlar
yuboriladi.
# Ma'lumotlar va hisobotlarni saqlash mumkin.
# Bu yerda tahlil va yechim natijalarini ma'lumotlar bazasida yoki faylda saqlash
mumkin.
```

**NumPy:** NumPy-bu ko'p o'lchovli massivlar va matritsalar bilan ishlash uchun kutubxona. Matematik operatsiyalarni bajarishda yuqori samaradorlikni ta'minlaydi, bu ma'lumotlarni tahlil qilish va texnologik jarayonlarni modellashtirish uchun zarur.

**Pandas:** pandas-ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish uchun kutubxona. U dataframe kabi ma'lumotlar tuzilmalarini va ma'lumotlarni filtrlash, saralash, yig'ish va vizualizatsiya qilish uchun ko'plab vositalarni taqdim etadi.

**Scipy:** Scipy-bu ilmiy hisoblash kutubxonasi. U optimallashtirish, statistika, interpolatsiya va boshqa ko'plab muammolarni hal qilish uchun ko'plab modullarni o'z ichiga oladi.

**OpenCV:** OpenCV-bu tasvirni qayta ishlash, ob'ektni aniqlash va videoni tahlil qilish uchun ishlab chiqarishni avtomatlashtirishda keng qo'llaniladigan kompyuterni ko'rish kutubxonasi.

**MQTT:** IOT qurilmalari va MQTT sensorlari bilan ma'lumot almashish uchun paho-mqtt kabi kutubxonalar foydali bo'lishi mumkin. Texnologik jarayonlarda asosiy kutubxonalarda biri hisoblanadi.



**RESTful API vositalari:** agar siz tizimlaringizni tashqi xizmatlar bilan birlashtirishingiz kerak bo'lsa, requests kabi RESTful API kutubxonalari foydali bo'lishi mumkin.

**PyQt yoki Tkinter:** ushbu kutubxonalar avtomatlashtirilgan tizimlar va ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish bilan o'zaro aloqani osonlashtiradigan grafik foydalanuvchi interfeyslarini (GUI) yaratish uchun ishlatiladi.

**OpenCV:** OpenCV-bu tasvirni qayta ishlash, ob'ektni aniqlash va videoni tahlil qilish uchun ishlab chiqarishni avtomatlashtirishda keng qo'llaniladigan kompyuterni ko'rish kutubxonasi.

**Matplotlib va Seaborn:** Matplotlib va Seaborn ma'lumotlarni vizualizatsiya qilish uchun kutubxonalaridir. Ular ishlab chiqarish jarayonlarini kuzatish va tahlil natijalarini ko'rsatish uchun foydali bo'lgan grafikalar va diagrammalarni yaratishga imkon beradi.

**SQLAlchemy:** SQLAlchemy - bu ma'lumotlar bazalari bilan ishlash uchun kutubxona. Bu ma'lumotlar bazalari bilan o'zaro aloqada bo'lishga va ishlab chiqarish ma'lumotlarini saqlash va tahlil qilish uchun muhim bo'lgan so'rovlarni bajarishga imkon beradi.

## 1-rasm. Python dasturining xususiyatlari

## Xulosa

Python dasturlash tili zamonaviy dunyoda texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish va ishlab chiqarishni boshqarishda muhim va markaziy rol o'ynaydi. Python dasturlash tili yordamida muntazam operatsiyalarni avtomatlashtirish, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish, sanoat uskunalari boshqarish va mahsulot sifatini nazorat qilish mumkin. Python dasturlash tili shuningdek, IOT tizimlarni uskunalari va qurilmalari bilan birlashtirishga imkon beradi, bu esa monitoring va boshqarish uchun yangi imkoniyatlarni ochadi. Shuni ta'kidlash kerakki, Python dasturlash tili nafaqat jarayonlarni avtomatlashtirishga yordam beradi, balki xarajatlarni kamaytirishga, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga va mahsulot sifatini yaxshilashga yordam beradi.

Python dasturlash tili texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish sohasida rivojlanishda davom etmoqda va dolzarb bo'lib qolmoqda, bu esa uni zamonaviy sanoat va biznesning ajralmas qismiga aylantiradi. Python bilan birgalikda kompaniyalar va tashkilotlar avtomatlashtirish muammolarini muvaffaqiyatli hal qilishlari, samaradorlikni oshirishlari va tez rivojlanayotgan ishlab chiqarish va texnologiya dunyosida raqobatbardosh bo'lib qolishlari mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. ↑ Kuhlman, Dave. „A Python Book: Beginning Python, Advanced Python, and Python Exercises“
2. ↑ Rossum, Guido Van (20-yanvar 2009-yil). „The History of Python: A Brief Timeline of Python“
3. ↑ [https://codingdojo.com/blog/top-7-programming-languages.](https://codingdojo.com/blog/top-7-programming-languages/)<sup>1</sup>
4. ↑ Narzullayev Anvar. Pythonda dasturlash asoslari. — T.: „Akademnashr“, 2021. — B. 6.
5. Махмудов Г. Б., Саидова А. Х., Мохилова Н. Т. Моделирование нечеткой логики для управления процессом бактериального окисления концентратов в

реакторах с мешалкой //Современные инновации, системы и технологии. – 2022. – Т. 2. – №. 2. – С. 0201-0214.

6. Жумаев О. А., Махмудов Г. Б., Мажидова Р. Б. ПРИМЕНЕНИЯ НЕЧЕТКОГО КОНТРОЛЛЕРА ДЛЯ УПРАВЛЕНИЯ ПРОЦЕССА ВЫЩЕЛАЧИВАНИЯ ЗОЛОТА ИЗ ПРОДУКТОВ БАКТЕРИАЛЬНОГО ВСКРЫТИЯ //Journal of Advances in Engineering Technology. – 2022. – №. 1. – С. 5-9.

7. Jumaev O A, Mahmudov G B, Vozorova R B September 2019 Organization Of The Optimum Development Of The Interface Of The Technological Process, Influence Of Errors And Noise On The Functioning Of Intellectual Control Systems International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology 6(9).

8. Махмудов Г. Б. и др. ИССЛЕДОВАНИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ НА ОСНОВЕ НЕЧЕТКОГО ЛОГИКА //E Conference Zone. – 2022. – С. 302-308.

9. Ботиров Т. В. и др. РАЗРАБОТКА ПРОГРАММНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ СИСТЕМЫ НЕЧЕТКОГО УПРАВЛЕНИЯ ДЛЯ БИОРЕАКТОРА //Ответственный редактор. – 2023. – С. 18.

10. Жумаев О. А., Ковалева И. Л., Махмудов Г. Б. Управление температурным режимом процесса бактериального окисления на основе нечеткой логики //«Системный анализ и прикладная информатика». – 2023. – №. 2. – С. 42-47.

## FTORID IONLI QOPLAMALARNI O'RGANISH

**Gaybulova Gulnora Sadullaevna**

Osiyo xalqaro universiteti "Umumtexnik fanlar" kafedrası assistenti

### ANNOTATSIYA

*Mikro va optoelektronikada qo'llaniladigan elektr o'tkazuvchan qoplamalar yetarlicha yuqori shaffoflikka ega bo'lishi kerakligi sababli, biz olingan ftorid ionli qoplamalarning uzatish spektrlarini o'lchash, ftorid-ionli va super-ionli qoplamalarni o'rganish.*


**Kalit so'zlar.** *CeF<sub>3</sub>, elektr o'tkazuvchan qoplamalar, spektr, ftoridli birikmalar, radiatsiya, izolyator, optoelektronika, mikroelektronika, o'tkazuvchan qoplama, shaffof jism.*

Ftorid birikmalaridan CeF<sub>3</sub> va LaF<sub>3</sub> elektr o'tkazuvchan qoplama sifatida sinovdan o'tkazildi. CeF<sub>3</sub> va LaF<sub>3</sub> qoplamalari 60 dan 300 °C gacha bo'lgan har xil haroratida shisha tagliklarga yotqizilgan. Taglikning harorati oshishi bilan, yotqizilgan materialning cho'kish tezligi pasayadi. Ftoridli qoplamalarning cho'kish tezligi 60 °C, 100 substrat haroratida 7 ÷ 8 nm / min, 6,6 ÷ 7 nm / min, 6 ÷ 6,6 nm / min, 4,6 nm / min, 4,2 nm / min, 3,8 nm / min edi, 60 °C, 150 °C, 200 °C, 250 °C, 300 °C. Qoplamaning qalinligi mos ravishda 76-100 nm edi. Mikro va optoelektronikada qo'llaniladigan elektr o'tkazuvchan qoplamalar yetarlicha yuqori shaffoflikka ega bo'lishi kerakligi sababli, biz 1-rasmda ko'rsatilgan, olingan ftoridli qoplamalarning uzatish spektrlarini o'lchadik.

LaF<sub>3</sub> qoplamasi va T = 250 °C gacha qizdirilgan substratga yotqizilgan CeF<sub>3</sub> qoplamasi alohida qiziqish uyg'otadi. 370 - 1100 nm spektral mintaqada bu qoplamalarning shaffofligi ~ 92% ni tashkil qiladi. Ma'lumki, CeF<sub>3</sub> va LaF<sub>3</sub> qoplamalari ma'lum bir harorat yukida ion o'tkazuvchanligini ko'rsatadi; superionga aylanadi. CeF<sub>3</sub> va LaF<sub>3</sub> qoplamalarining fizik xususiyatlari juda kam o'rganilgan.

Ishlar [1], [2] tarkibiy va morfologik o'zgarishlarni taglik haroratining funksiyasi sifatida, shuningdek, haroratga qarab elektr o'tkazuvchanligining o'zgarishini ko'rib chiqadi.  $CeF_3$  va  $LaF_3$  birikmalari juda keng tarmoqli bo'shlig'iga ega, bu ularni amalda izolyatorga aylantiradi. Yutish koeffitsienti 250 – 300 nm radiatsiya spektrining ultrabinafsha mintaqasida joylashgan [2]. Yutish miqdori ishlab chiqarish texnologiyasiga bog'liq.

$CeF_3$  plyonkalarining strukturaviy tahlili shuni ko'rsatdiki,  $CeF_3$  qatlamlari taglikkaga vertikal yo'naltirilgan olti burchakli fazaning donalaridan iborat. Vertikal yo'nalish taglikning yuqori haroratida sodir bo'ladi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, mukammal donalarning o'sishi uchun optimal harorat 230 - 280 °C oralig'ida.



### **1-rasm. Turli xil haroratlarda shisha tagliklarga yotqizilgan ftoridli qoplamalarning uzatish spektrlari.**

Haroratga qarab  $CeF_3$  va  $LaF_3$  qoplamalarining qarshiligini o'lchash uchun biz [2] da tasvirlangan dizaynga o'xshash kontakt elektrodlari dizaynini tanladik. Elektr maydonida  $CeF_3$  va  $LaF_3$  dielektriklarining qutblanishi sodir bo'ladi, lekin doimiy maydonda o'tkazuvchanlik yo'q. Qoplamani ishlab chiqarish texnologiyasiga qarab, ma'lum bir haroratda o'tkazuvchanlikning ion komponenti oshishi kerak, chunki  $CeF_3$  va  $LaF_3$  superionik materiallardir. Ion o'tkazuvchanligi yuqori bo'lgan hududni aniqlash uchun o'tkazuvchanlikning haroratga bog'liqligini tadqiq qilish kerak.  $CeF_3$  va  $LaF_3$  qoplamalarining qarshiligini vakuumli o'rnatishdagi harorat yukiga qarab o'lchash yaxshiroqdir, chunki kislorod yuqori haroratda havo atmosferasida fluor va lantan ionlariga ta'sir qiladi, natijada seriyning yangi oksiflorid birikmalari va lantan hosil bo'ladi. Ion va yuqori ionli materiallarning elektr o'tkazuvchanligi va optik shaffofligi uchun mas'ul bo'lgan texnologik rejimlar bo'yicha tadqiqotlarni davom ettirish kerak.

$CeF_3$  va  $LaF_3$  asosidagi elektr o'tkazuvchan ftoridli qoplamalarni tekshirish boshlandi. Ftoridli qoplamalar shisha tagliklarga 60 dan 300  $^{\circ}C$  gacha bo'lgan haroratlarda va har xil cho'kish tezligida 3,8 dan 8 nm / min gacha cho'ktiriladi.  $CeF_3$  va  $LaF_3$  qoplamalari ma'lum bir harorat yuki ostida ion o'tkazuvchanligini ko'rsatadi; superionga aylanadi. Mikro va optoelektronikada qo'llaniladigan elektr o'tkazuvchan qoplamalar etarlicha yuqori shaffoflikka ega bo'lishi kerakligi sababli, biz olingan ftoridli qoplamalarning uzatish spektrlarini o'lchadik, shundan  $LaF_3$  qoplamasi va  $CeF_3$  qoplamasi  $T = 250$   $^{\circ}C$  ga qizdirilgan tagliklarga yotqizilganligini ko'rish mumkin. 370 - 1100 nm spektral mintaqada ushbu qoplamalarning shaffofligi  $\sim 92\%$  ni tashkil qiladi. Ion o'tkazuvchanligi yuqori bo'lgan hududni aniqlash uchun o'tkazuvchanlikning haroratga bog'liqligini tadqiq qilish kerak. Ion va yuqori ionli materiallarning elektr o'tkazuvchanligi va optik shaffofligi uchun aloqador bo'lgan texnologik rejimlar bo'yicha tadqiqotlarni davom ettirish kerak.

Ion bog'langan kristallarning sirtga yaqin zonalarining elektron tuzilishi nazariy

jihatdan o'rganiladi. Ion bog'lanishga ega bo'lgan nanozarrachalarning sirt hududlariga ketma-ket qo'llaniladigan umumlashtirilgan Zeyts-Madelung modelida ion kristallarida  $E_{gs/b}$  bog'liqligi uchun biz tarmoqli bo'shlig'ining darajali bo'shliq holatini olishimiz ko'rsatilgan va bu variatsiya-bo'shliqning chuqurligi  $E_{gs/b}$  sharti bilan aniqlanadi ( $x,y=const,z=const$ ).

O'xshash nanozarrachalar sirtining mahalliy holatlarining elektron tuzilishi ularning elektronlarining energiya diapazoniga qarab uch turdagi mumkin bo'lgan sirt holatlarini ko'rsatadi: tarmoqli, oralig' ichida va diapazon oxiri energiyasidan yuqori. Bu local holatlarning xususiyatlari. Lokal holatlar Tamm darajalaridan aslida farq qilmaydi, oraliq energiya mintaqasi esa (sirt o'tkazuvchanlik zonasining pastki qismidan varizonallikning yuqori chegarasigacha Tamm holatlariga xos bo'lmagan yangi xususiyatlarga ega).

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. A.K. Dorai, S. Subramanian, N. Hellar, J. Leiro. "Influence of substrate temperature on CeF<sub>3</sub> thin films prepared by thermal evaporation" // Materials Chemistry and Physics. –2014. –Vol.143. –P.765 – 772.
2. X. Yu, S. Kato, H. Ito, S. Ono, M. Kase and M. Cadatal-Raduban. "Filterless tunable photoconductive ultraviolet radiation detector using CeF<sub>3</sub> thin films grown by pulsed laser deposition" // AIP Advances. –2020. –№ 10. –Article 045309.
3. D.H. Meadows, D.L. Meadows, J. Randers, W.W. Behrens. The limits to growth., –N.Y.: Universe Books, 1972.
4. Olimovich S. S. et al. Higher education and teaching modern physics in it //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429. – 2022. – T. 11. – №. 04. – C. 73-76.



5. Саидов С. О. СЕЛЕКТИВНО-ПОГЛОЩАЮЩИЕ ПОКРЫТИЯ НА ОСНОВЕ МЕТАЛЛОКЕРАМИЧЕСКИХ МАТЕРИАЛОВ Камолов Журабек Жалол угли. – 2022.
6. Davronov D. E., Temirov S. A., Kamolov J. J. TIBBIYOTDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI O ‘QITISH METODIKASI //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 9. – С. 159-164.
7. Jalol o‘g K. J. et al. Moylarni Spektral Tahlil Qilish //Miasto Przyszłości. – 2023. – Т. 38. – С. 106-109.
8. Jalol o‘g‘li J. et al. QOPLAMALARNI MIKROSKOPIYA VA RENTGEN-FAZAVIY TAHLIL USULIDA TADQIQ QILISH ANALIZ //Innovative Development in Educational Activities. – 2023. – Т. 2. – №. 11. – С. 198-205.
9. Jalol o‘g K. J. et al. KERMET QOPLAMALI INGICHKA PLASTINKANI ISITISH VA SOVITISH NOSTASIONAR JARAYONNING MATEMATIK MODELINI ISHLAB CHIQISH. – 2023.
10. Abdullaeva D. et al. Solution of logical problem of numerical program control using the software-implemented //IOP Conference Series: Earth and Environmental Science. – IOP Publishing, 2021. – Т. 839. – №. 3. – С. 032038.
11. Khusniddinovna A. D., Mukhiddinovich Z. K. Approach to Testing Logical Control Systems of Technological Equipment //Texas Journal of Engineering and Technology. – 2022. – Т. 9. – С. 48-52.
12. Khusniddinovna A. D. SYSTEMATIZATION OF MATHEMATICAL METHODS USED IN THE DESIGN OF LOGIC CONTROL PROGRAMS //Conferencea. – 2023. – С. 27-30.
13. Khusniddinovna A. D. USE OF COMPUTING PLATFORMS AND BASES OF APPLIED SOFTWARE //Conferencea. – 2023. – С. 86-89.
14. Nezhmetdinov R. et al. Mathematical criteria for testing the logical control programs for technological equipment //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – Т. 390.

15. Khusniddinovna A. D. DEVELOPMENT OF THE NETWORK MODEL OF THE EXPERIMENTAL STAND FOR TESTING THE OPERABILITY OF LOGIC CONTROL SYSTEMS //E Conference Zone. – 2022. – С. 161-163.

16. Khusniddinovna A. D., Nurilloevich Y. M., Radzhabovich E. D. Use of Computing Platforms of General Purpose as A Hardware Base //International Journal of Human Computing Studies. – 2021. – Т. 3. – №. 8. – С. 46-50.

17. Абдуллаева Д. Х., Нежметдинов Р. А. Управление электроавтоматикой токарного станка на примере функционального блока управления револьверной головкой //Техносферная безопасность городских агломераций. – 2021. – С. 9-16.

## YADRO MODELLARI HAQIDA TUSHUNCHA

**Jumayeva Robiya Xolmurot qizi**

Qorako‘l tuman 1- son KHM o‘qituvchisi

E-mail: [jumayevrobiya98@gmail.com](mailto:jumayevrobiya98@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqola Yadro fizikasi bo‘limi “Yadro modellari” mavzusida nazariy ko‘nikma hosil qilishga bag‘ishlangan. Unda “Yadro modellarining” ikki xil turi, Tomchi hamda Qobiqsimon modeli to‘g‘risida ma‘lumot berib o‘tilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Yadro modellari, atom yadrosi, yadroning tomchi modeli, yadroning qobiqsimon modeli, magik sonlar.*

Yadro modellari atom yadrosining asosiy xossalarini o‘rganish uchun tuziladigan tasavvurlar. Shu vaqtgacha olimlar tomonidan tavsiya etilgan modellarning birortasi ham yadroning xossalarini to‘liq yoritib bera olmaydi. Yadro kuchlarining tabiatini va qonuniyatlarini tushuntirib beradigan qat‘iy nazariya mavjud emas. Shu sababli atom yadrosining turli xossalari yadro modellari yordamida o‘rganiladi.

Barcha mavjud yadro modellaridan tomchi va qobiqsimon modellar samarali foydalaniladi.

Yadroning tomchi modelini 1938- yilda Ya.I.Frenkel ishlab chiqqan, N.Bor va Veyzekkerlar tomonidan rivojlantirilgan. Frenkel nazariyasiga ko‘ra atom yadrosini zaryadlangan suyuqlik tomchisiga o‘xshatish mumkin. Suyuqlik tomchisidagi molekulalar o‘zaro molekulyar tutinish kuchlari bilan bog‘langani singari yadroni tashkil qiluvchi nuklonlar ham o‘zaro yadro kuchlari bilan bog‘langan. Bu model yadro fizikasidagi bir qator muhim hodisalarni tushuntirishga imkon beradi, xususan butun yadro reaksiyalarini, shu jumladan, yadroning bog‘lanishini tushuntirib beradi.

Tomchida yadroga o'xshashlik dalillari: yadro zichligi juda katta bo'lib, siqilmaydi, yadro hajmining undagi nuklonlar soniga proporsionalligi va turli yadrolarda nuklonlar o'rtacha energiyasining taxminan doimiyliigi, yadro moddasi bilan suyuqlik tomchisining o'xshashligi. Bunda yadro kuchlari ham suyuqlik molekulalari orasidagi ta'sir kuchlariga o'xshash to'yinish qobiliyatiga ega ekanligi kelib chiqadi. Tomchi modelida yadro zichligi bir xil ekanligi to'g'risidagi eksperimental ma'lumotlarga asoslangan Bor yadrodagi nuklonlarning harakati suyuqlikdagi atom va molekulalarning harakatiga o'xshaydi deb faraz qiladi. Suyuqlikning tashqi ta'siriga uchramagan tomchisi sirt taranglik tufayli sfera shaklida bo'ladi.

Tomchi modeli yadroning massasi va bog'lanish energiyasining yarim empirik formulasini chiqarish, yadrolarning zarralarini nurlanish va bog'lanishiga turg'unligini aniqlash va shuningdek, bu jarayonlarda ajraladigan energiyalarni hisoblash imkoniyatlarini beradi. Model yadroning neytronlar, protonlar va alfa zarralar bilan ta'sirlashuvida yuzaga keladigan ayrim xususiyatlarni tushuntiradi. Xususan bu model yordamida neytron yadro bilan to'qnashib, yadroga yutilib gamma-kvantlar chiqishini tushuntiradi. Nuklonlarning yadro ichida nihoyatda katta zichlikka ega bo'lishini va yadro yadro ta'sirlarining kuchliligi tufayli neytron o'z energiyasini boshqa nuklonlarga beradi, ya'ni izotop hosil bo'ladi, neytron energiyasi yadroda taqsimlanadi. Yadro nuklonlarining tezligi oshadi, uyg'ongan holatga o'tadi. Shuning uchun uyg'ongan yadroni qizdirilgan tomchi deyish mumkin.

Qator o'tkazilgan tajribalarda yadroning eng pastki qo'zg'algan holati energiyasining massa soniga davriy bogliqligini aniqladi. Yadro spinlari va kvadrupol momentlarni o'lchash ularning yadroni tashkil etuvchi nuklonlar soniga ham bog'liqligini ko'rsatadi. Protonlar yoki neytronlar soni 2, 8, 20, 50, 82, 126 ga teng bo'lgan yadrolar barqaror bo'lib, tabiatda ko'proq tarqalganligi ma'lum bo'ldi. N va Z zarralar 2, 8, 20, 50, 82, 126 ga teng bo'lganda yadroning qator xossalari o'zgarishi shunchalik kuchli bo'ladi, fiziklar bu sonlarni "sehrli sonlar" deb atadilar. Atom strukturasi bu kabi qonuniyatlar allaqachon ma'lum edi.

Yadroning qobiqsimon modeli atom yadrosining eng tasamarali zamonaviy modellaridan biri hisoblanadi. Yadro qobiqlari haqidagi g‘oyani birinchi bo‘lib 1932-yilda D.D.Ivanenko shakllantirgan, X.Yensen va M.Geppert –Mayer tomonidan rivojlantirilib, atom yadrosining qobiqsimon modeli yaratilgan. Bu modelga ko‘ra yadrodagi ularning o‘zi hosil qilgan maydonda deyarli bir-biridan mustaqil harakatlanadi. Yadroda ham xuddi atomdagidek diskret energetik sathlar bo‘lib, ular nuklonlar bilan to‘ldiriladi. Energetik sathlari bir-biriga yaqin bo‘lgan nuklonlar yadro qobiqlarini hosil qiladi.

Hozirgi vaqtda yadroning qobiqsimon modeli oxirigacha yetkazilmagan bo‘lsada, ko‘p olimlar tomonidan tan olingan. Yadro qobiqlarining mavjudligi atom xossalaridagi davriylik kabi yadro xossalarining davriyligiga sabab bo‘ladi. Masalan, yadrolar ham uyg‘ongan holatda bo‘lishi mumkin, ular gamma-kvantini chiqarib, normal holatga o‘tadi. Tajriba natijalari atom yadrosidagi nuklonlar holati haqida taxminan atomning elektron qobig‘idagi elektronlar holati haqidagi tasavvurga o‘xshash tasavvur hosil qiladi. Amalda yadrolarning 2, 8, 14, 20, 28, 50, 82, 126 ta nuklonlar bilan to‘ldirilgan qobiqlar topilgan. Berk yadro qobig‘idagi nuklonlarning bu sonini ‘magik sonlar’ (sehrli sonlar) deb ataladi. Aniqlanishicha nuklonlar (proton yoki neytronlar) soni magik sonlarga teng bo‘lgan yadrolar boshqalariga qaraganda turg‘unroq bo‘lar ekan.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Muminov T.M., Xoliqov A.B., Xushmurodov Sh.X. Atom yadrosi va zarralar fizikasi. T.: O‘zbekiston faylasuflar jamiyati. 2009
2. Bekjonov R.D. Atom yadrosi va zarralar fizikasi. T.: O‘qituvchi 1994.
3. Teshaboyev K.T. Yadro va elementar zarralar fizikasi. T. 1992.
4. К.Н. Мухкин. Экспериментальная ядерная физика. Т.1,М. 1974.
5. А.И. Наумов. Физика атомного ядро и элементарных частиц. М.1984.

# PSYCHOLOGICAL FACTORS OF PROFESSIONAL PROGRESS OF INTERNAL AFFAIRS PERSONNEL WORKING IN THE FIELD OF LAW ENFORCEMENT

**Bobirov Davron Bobir o'g'li**

Karshi state university. Psychology ( activity types on )

direction graduate student

[davronbobirov@gmail.com](mailto:davronbobirov@gmail.com)

## *ANNOTATION*

*In the article the right protection representatives of the executive body especially internal affairs organs employees professional fade away of cases psychological in terms of emperic analysis and their professional ability psychological in terms of raise according to researcher by done increased analysis and research about word goes \_ In the article given analysis and results today's of the day current in matters important basis being service does*

**Key words:** *psychological service, professional fading, social mind, psychological environment, progress, asthenic accentuation, misanthropy*

## **INTRODUCTION**

Last in years right and him protection employees of the executive body psychological support support and they are between healthy psychological environment to stabilize directed one how much remedy events in practice work coming out app is being done . Especially after 7 years during this field activities deep again work and app to do as a result employees between healthy psychological the environment has also improved is going This from organs Internal affairs organs employees and their activities developing a regular attitude to go and psychological support support one for \_ how much affairs done increasing , i.e at the time our

research for representatives of this body professional in the activity fade away progress emperic analysis to do for small experience being service does \_

Initially collected data through internal affairs organs employees professional progress to know in order to young choose to get decision done . Opposite in the IIB department of the city activity walking 1, 3, and 10 years from employees to the experience have different young 10 people in the category from employees scientists **K. Maslach and S. Jackson of Professional burnout diagnosis to do** methodology was transferred . Methodology during to the respondents of methodology purpose and in it given to questions where in order answer to give directed instructions giving passed .

**Below held methodology for the respondent given answers page app will be :**

*Answers form*

*FIO* \_\_\_\_\_

*Age* \_\_\_\_\_ *Gender* \_\_\_\_\_ *Date* \_\_\_\_\_

<b>T/ r</b>	<b>None when</b>	<b>Very rarely less</b>	<b>Rarely –</b>	<b>Sometimes</b>	<b>Frequently –</b>	<b>The majority cases</b>	<b>Every day</b>
<b>1</b>	0	1	2	3	4	5	6
<b>2</b>	0	1	2	3	4	5	6
<b>3</b>	0	1	2	3	4	5	6
<b>4</b>	0	1	2	3	4	5	6
<b>5</b>	0	1	2	3	4	5	6
<b>6</b>	0	1	2	3	4	5	6
<b>7</b>	0	1	2	3	4	5	6
<b>8</b>	0	1	2	3	4	5	6
<b>9</b>	0	1	2	3	4	5	6

10	0	1	2	3	4	5	6
11	0	1	2	3	4	5	6
12	0	1	2	3	4	5	6
13	0	1	2	3	4	5	6
14	0	1	2	3	4	5	6
15	0	1	2	3	4	5	6
16	0	1	2	3	4	5	6
17	0	1	2	3	4	5	6
18	0	1	2	3	4	5	6
19	0	1	2	3	4	5	6
20	0	1	2	3	4	5	6
21	0	1	2	3	4	5	6
22	0	1	2	3	4	5	6
Emotional fatigue ____ Depersonalization ____ Personal achievements reduction ____							

In most cases, the socially conditioned characteristics of the human personality embody the direction of his volitional activity. Social orientation is expressed in persistence, which is considered to be a motivational and volitional characteristic of a person. Volitional processes, situations, characteristics of the human personality arise as a specific way of realizing the motives and purpose of the activity. In mental activity, volitional processes are visible within the course of volitional behavior, that is, in the interval from setting a goal to its implementation.

As for the analysis of the applied methodology, 2 of the 10 respondents who participated in it were employees with 1-year experience, 4 with 3-year experience, and the remaining 4 with 10-year experience. The career progression is at the lowest level and almost 94.5% of the employees who have not yet developed have a strong professional inclination, and the indicator is 64.3% of employees with 3 years of experience, that is, the progress of fading is quite strong, on the contrary, employees



with 10 years of experience have more It was estimated that the indicator can be raised again and be influenced by adaptation, equal to 89.2%. In the process of analysis, it was thought that the employees are facing various problems and shortcomings in the emotional sphere, and it is a clear tool in the professional field as well.

### CONCLUSION

In conclusion, it can be said that the early detection of the main emotional and psychological problems and the implementation of countermeasures is an important factor for the employees of the field operating in each field, especially the employees of the law enforcement agency. In other words, it can be said that it is important to assess the current situation in advance and to professionally identify the progress of fading and psychologically support it in the necessary situation. It is not a problem of providing psychological services to law-enforcement bodies, in particular to representatives of public agencies, but psychological services to people in general, as one of the leading directions of scientific psychology, is a source of many discussions.

### REFERENCES

1. Дубровина И.В. Готовность к школе. - М.: Речь 2001.
2. Nishonova Z.T. Psixologik xizmat. - T .Fan va texnologiyalar markazi. 2006.
3. Тетушкина М.К. Психологическая помощь и консультирование в практической психологии. - М.: Владость 2001.
4. Потапова А.В. Нартова - Бочавер С.К. Детская психологическая служба. - М. : Речь 2001
5. Z.T.Nishanova, Sh.T.Alimbaeva. M.V.Sulaymonov Psixologik xizmat. 2014
6. Басов М. Я. Личность и профессия. Воля как предмет функциональной психологии. Санк-Питербург, Мастер психология. (вт. из) 2016. – 224 с.

## FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNI TARJIMA XUSUSIYATLARI ARAB TILIDAN O‘ZBEK TILIGA

Zayriyev Abdulhamid mustaqil tadqiqotchi

### ANOTATSIYA

Maqolada arab tilidagi frazeologik birliklarni o‘zbek tiliga tarjima qilish xususiyatlari batafsil ochib berilgan. Frazeologik birliklarning ekvivalentligini aniqlash uchun strukturaviy-tipologik va funksional-semantik yondashuvlardan foydalaniladi, bu bizga quyidagi tillararo xususiyatlarni aniqlash imkonini beradi:

lingvistik munosabatlar: to‘lliq va qisman ekvivalentlar, analoglar, ekvivalent bo‘lmagan birliklar.

Ekvivalent bo‘lmagan birliklarni tarjima qilish uchun quyidagilar qo‘llaniladi: kuzatish, tarjimaning tavsif usuli, tarjimaning leksik usuli va qo‘shma tarjima.

**Kalit so‘zlar:** tarjima, frazeologik birliklar, ekvivalentlik, tillararo munosabatlar.

### АННОТАЦИЯ

В статье подробно описаны особенности перевода фразеологизмов с арабского языка на узбекский язык. Для определения эквивалентности фразеологизмов используются структурно-типологический и функционально-семантический подходы, что позволяет выявить следующие межъязыковые особенности:

языковые отношения: полные и частичные эквиваленты, аналоги, безэквивалентные единицы.

Для перевода безэквивалентных единиц используются: наблюдение, описательный метод перевода, лексический метод перевода и комбинированный перевод.

**Ключевые слова:** перевод, фразеологизмы, эквивалентность, межъязыковые отношения.

### **Annotation**

*The article describes in detail the features of translating phraseological units from Arabic into Uzbek. Structural-typological and functional-semantic approaches are used to determine the equivalence of phraseological units, which allows us to identify the following cross-linguistic features:*

*linguistic relations: full and partial equivalents, analogues, non-equivalent units.*

*To translate non-equivalent units, the following are used: observation, descriptive method of translation, lexical method of translation and combined translation.*

**Key words:** translation, phraseological units, equivalence, interlinguistic relations.

Frazeologik birliklar tarjima qilishda eng qiyin birliklardir. Frazeologik birliklar kontekstga bog‘liq bo‘lib, ularning ma‘nosi ular qo‘llanilgan vaziyatga qarab o‘zgarishi mumkin. Tarjimonlar boshlang‘ich tildagi frazeologik birlikning kontekstini ko‘rib chiqishlari va ko‘zda tutilgan tilda bir xil kontekstga mos keladigan tegishli ekvivalentini topishlari kerak. Shuning uchun frazeologik birliklarning tarjimasini frazeologik birlik tarkibining turli tarkibiy qismlarini har tomonlama tahlil qilish orqali amalga oshiriladi. Frazeologik birlikni tarjima qilishda o‘zbek tilida o‘xshash iborani topib, frazeologik birlikning stilistik funksiyasini yo‘qotmasdan, uning ma‘nosini yetkazish va tasvirini aks ettirish kerak. Agar o‘zbek tilida bir xil tasvir bo‘lmasa, tarjimon ‘‘taxminiy moslikni’’ qidirishga majbur bo‘ladi.

Frazeologik tarjima matnida chet tilining bir birligi bilan o‘z tilining tegishli birligi o‘rtasida turli darajadagi yaqinlikdagi barqaror birliklardan – to‘lliqlik va mutlaq ekvivalentdan taxminan iboraga qadar foydalanishni o‘z ichiga oladi. Madaniy va

lingvistik farqlar: arab va o‘zbek tillari turli xil madaniy kelib chiqishiga ega ikki xil tildir. Frazeologik birliklarni tarjima qilish ko‘zlangan ma‘noni to‘g‘ri yetkazish uchun ikkala tilni va ularning madaniyatini chuqur tushunishni talab qiladi. Frazeologik birliklar ko‘pincha muayyan mintaqa yoki jamoaning so‘zlashuv tilini aks ettiradi. Tarjimonlar arab va o‘zbek tillarida qo‘llaniladigan so‘zlashuv so‘zlari va jarangli so‘zlarini yaxshi bilishlari, bu birliklarni to‘g‘ri tarjima qilishlari va ularning asl mazmunini saqlab qolishlari kerak.

Frazeologik yozishmalar. Biz ushbu maqolani tayyorlashda “Al-Qomus” Arabcha-o‘zbekcha qomusiy lug‘at kitobidagi arab tilidagi frazeologik birliklarning o‘zbek tiliga tarjimalariga tayandik<sup>1</sup>.

Arab tilining frazeologik birliklarini o‘zbek tiliga tarjima qilishda, bizningcha, strukturaviy-tipologik va funksional-semantik jihatlarga tayanish maqsadga muvofiqdir. frazeologik birliklarning ekvivalentligini aniqlashga yondashuvlar. Bu bizga quyidagi tillararo munosabatlarni aniqlash imkonini beradi:

- 1) to‘lliqlik ekvivalentlar;
- 2) qisman ekvivalentlar;
- 3) analoglar;
- 4) ekvivalent bo‘lmagan birliklar

Ekvivalent bo‘lmagan birliklarni tarjima qilish uchun quyidagi usullar qo‘llaniladi: kuzatish, tavsifiy tarjima, leksik tarjima va qo‘shma tarjima.

Keling, tillararo yozishmalarning har birini alohida ko‘rib chiqaylik.

### **1. To‘lliqlik frazeologik ekvivalentlar**

To‘lliqlik frazeologik ekvivalentlar arab va o‘zbek tillarining semantik, leksik va stilistik jihatdan bir-biriga mos keladigan frazeologik birliklaridir. Ammo strukturaviy va grammatik xususiyatlarning bunday mos kelishi bilan biz tipologik xususiyatlarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olishni nazarda tutamiz. Bir tilga xos, boshqa tilga xos emas. Funksional va uslubiy xususiyatlariga ko‘ra to‘lliqlik ekvivalentlar uslublararo yoki kitobiydir. Adabiy va so‘zlashuv frazeologik birliklar

---

1. “Al-Qomus” Arabcha-o‘zbekcha qomusiy lug‘ati

juda kam uchraydi. To‘lliqlik ekvivalentlik hodisasi arab tilining stilistik jihatdan qisqartirilgan frazeologik birliklari uchun xos emas.

Arab va o‘zbek tillarida to‘lliqlik frazeologik ekvivalentlar quyidagi iboralar bilan ifodalanadi:

بُنُو آدَمَ	Odam Atoning o‘g‘illari
فِي الْبَرِّ وَالْبَحْرِ	Quruqlikda va dengizda
أَفْحَمَ فَمَهُ فِيَّ	U burnini menga qaratdi.
لَا يَرَى أَبْعَدَ مِنْ أَنْفِهِ	U burnidan narini ko‘ra olmaydi
فِي لَمَحِ الْبَصَرِ	Ko‘z ochib yumguncha, bir zumda
تَجَمَّدَ الدَّمُ فِي عُرْوِقِهِ	Tomirlarida qon muzlab qoldi (qo‘rqib ketdi, yuragi tushdi)
يَسْفِكُ الدِّمَاءَ	U qon to‘kadi
فِي اللَّيْلِ وَالنَّهَارِ	Kechasi va kunduzida
لَقِيَ حَتْفَهُ	O‘lim bilan yuzlashdi, vafot etdi
حَطَمَ الْأَغْلَالَ	U kishanlarni parchaladi, ozodlikka erishdi
بَعَثَ الْحَيَاةَ فِي ...	Biror narsa yo‘lida jon berdi
خَرِيفُ الْعُمُرِ	Hayotning kuzi, keksalik
... حَيَّمَ الظَّلَامَ عَلَى ...	Ustiga zulmat cho‘kdi, qorong‘u tushdi
ذَرَّ الرَّمَادَ فِي الْعُيُونِ	– Ko‘zlarga kul sepdi (Ishlarni chiroyli qilib ko‘rsatdi, ko‘z bo‘yadi, laqillatdi, ko‘ra-bila adashtirdi)
تَدَوَّرَ أَعْيُنُهُمْ	Ularning ko‘zlari (qo‘rquvdan) olakula bo‘lmoqda
يَرَوْنَهُمْ رَأْيَ الْعَيْنِ	Ularni o‘z ko‘zlari bilan ko‘rishadi
قَطَعَ دَابِرَهُمْ	Ularni bitta qo‘ymay, oxirigacha qirib tashladi

## 2. Qisman frazeologik ekvivalentlar

Qisman frazeologik ekvivalentlarga arab va o‘zbek tillaridagi frazeologik birliklar kiradi, ular frazeologik birliklarning semantik-stilistik farqlanishini to‘lliqlik ifodalaydi, lekin tarkibiy va grammatik tashkil etilishi va komponent tarkibi bilan farqlanadi.

Arab va o‘zbek tillarining frazeologik birliklari orasidagi qisman frazeologik ekvivalentlarni ikki guruhga bo‘lish mumkin:

1) ma’nosi, uslubiy yo‘nalishi bo‘yicha mos keladigan va tasviriy jihatdan o‘xshash (grammatik tuzilish mos kelishi yoki mos kelmasligi mumkin), lekin leksik tarkibida bir oz farq qiluvchi frazeologik birliklar.

Masalan, arab tilining frazeologik birliklaridan **عَضَّ عَلَى أُنَامِلِهِ** va o‘zbek tilining frazeologik birliklaridan **tirsagini tishlash** (umidsizlikdan), ma’nosi, uslubiy yo‘nalishi va tasviriy jihatdan o‘xshashligi, bu yerda faqat **أُنَامِلِهِ** (barmaq uchlari) va **tirsak** qismlari farqlanadi.

Biz quyida arab va o‘zbek tillaridagi frazeologik ekvivalentlarni keltiramiz:

يَوْمُ الدِّينِ	Din kuni (qiyomat kuni)
يَوْمُ الْقِيَامَةِ	Qiyomat kuni
انْقَلَبَ عَلَى عَقْبِيهِ	Orqaga (eski holiga) qaytdi; fikrida qaytdi, aqidasi dan voz kechdi
حَجَرُ الزَّائِرِيَةِ	Burchak tosh (mas. qurilishda)
وَضَعَ حَجَرَ الْأَسَاسِ	Poydevor toshini qo‘ydi
مَوْقِفٌ لَا يُحْسَدُ عَلَيْهِ	Havas qilinmaydigan pozitsiya
حَصَدَ مَا زَرَعَهُ	Nima ekkan bo‘lsa, shuni o‘radi

2) ma’nosi, tasviri, uslubiy yo‘nalishi bo‘yicha bir-biriga mos keladigan, ammo otning paydo bo‘lish soni bilan farq qiladigan frazeologik birliklar.

Demak, arab va o‘zbek tillari frazeologik birliklarida **أَفْتَلَعَ الشَّيْءَ مِنْ جُدُورِهِ** va biz ko‘rib turgan narsani ildizdan yulib tashlash, arab misolida ko‘plik qo‘llangan **جُدُورِهِ** (ildizlar) ot, o‘zbek tilidan olingan misolda esa otning birlik soni **ildiz** hisoblanadi.

Arab va o‘zbek tillaridagi qisman frazeologik birliklarning ushbu turiga misol sifatida quyidagi iboralarni ko‘rib chiqamiz:

مَنْ يَدٍ لِيَدٍ / إِلَى يَدٍ	Qo‘ldan-qo‘lga, to‘g‘ridan-to‘g‘ri, bevosita
تَغْيِيرٌ جَذْرِيٌّ	Tub, keskin o‘garish
لَمْ يَعْضُضْ لَهُ جَفْنٌ	U hech ham uxlamadi (Bir qovog‘i ham yumilmadi)

### 3. Frazeologik analoglar

Frazeologik analoglar - arab va o‘zbek tillarining semantikasi va uslubiy yo‘nalishi bo‘yicha bir-biriga mos keladigan, ammo tasviriy jihatdan farq qiluvchi frazeologik birliklar (grammatik tuzilish mos kelishi yoki mos kelmasligi mumkin). Analoglar taqqoslanayotgan tillarning milliy o‘ziga xosligini tashkil etuvchi noyob tasvir va tushunchalarni beradi.

Masalan, arab va o‘zbek tillari frazeologik birliklarida انشَقَّتِ الْعَصَا بَيْنَهُمْ (o‘rtalarida tayoq yorilib ketdi) va qora mushuk yugurdi (o‘rtasida). Bu tasvirlar (yoriq tayoq va qora mushuk), frazeologik birliklar semantika va stilistik yo‘nalishda mos keladi.

Arab va o‘zbek tillaridagi frazeologik analoglar quyidagi misollar bilan ifodalanadi:

ذَاتُ صُدُورٍ / نُفُوسٍ	O‘y-fikrlar, tuyg‘ular, kechinmalar, sirlar, niyatlar
قُرَّةُ الْعَيْنِ	Ko‘z qorachig‘i; farzand; ko‘zlar quvonchi, shodlik, xursandchilik
وَبَلَغَتِ الْقُلُوبُ الْحَنَاجِرَ	“Yuraklar tomoqlarga tiqildi”
سَقَطَ فِي يَدِهِ	Afsus qildi, attang qildi;
وَلَمَّا سَقَطَ فِي أَيْدِيهِمْ	“Qachonki attang qilganlarida...” (Qur. 7:149); 2) xato qildi, adashdi; 3) hayron bo‘lib qoldi, nima qilishni bilmay qoldi

### 4. Ekvivalent bo‘lmagan frazeologik birliklar

Ekvivalent bo‘lmagan frazeologik birliklar - boshqa tilning frazeologik tizimida mos kelmaydigan iboralar. Bu birliklar psixologiyaning xususiyatlarini, fikrlash usullarini, ona tilida so‘zlashuvchilarning moddiy va ma’naviy hayotini rivojlantirishning o‘ziga xos shartlarini aks ettiradi.

Arab tilining ekvivalent bo‘lmagan frazeologik birliklarini tarjima qilish usullari orasida biz quyidagilarni ajratamiz: kuzatish, tavsifiy tarjima, leksik tarjima usuli va qo‘shma tarjima.

*a) kuzatish*

E.M. Soloduxoning ta’kidlashicha, “idiomatik kuzatishlar o‘zlashtirilgan til orqali chet tili prototiplarining (odatda idiomatik birliklar) to‘lliqlik yoki o‘zgartirilgan tuzilishi va ma’nosi natijasida vujudga keladigan frazeologik birliklardir.<sup>1</sup> Idiomatik va so‘z shakllanishi monitoringi mexanizmida umumiy bo‘lgan narsa, odatda, diktatsiya qilingan sxemalar bo‘yicha, lingvistik tuzilish sifatini darhol egallamaydigan tushunchalar shaklida xorijiy prototiplar mazmunini dastlabki idrok etishdir.

R.A.Yusupov “boshqa til modeli asosida ilgari noma’lum bo‘lgan tushunchani belgilash” deb ta’riflaydi.<sup>2</sup>

Ekvivalent bo‘lmagan frazeologiyani tarjima qilishda, iborani boshqa tarjima turlaridan foydalanib tarjima qilish mumkin bo‘lmaganda yoki boshqa tilda bir xil ma’noga ega frazeologik birlik mavjud bo‘lsa, lekin undan foydalanish iboraning buzilishiga, uning to‘lliqligiga olib kelganda tarjima o‘z mazmunini yo‘qotadi.

Shunday qilib, arab va o‘zbek tillarida idiomalarning burilishlari الضَوْءُ الْأَخْضَرُ va **yashil yorug‘lik** idiomatik kuzatish turlaridandir.

<sup>1</sup> Soloduxo E.M. Frazeologiyalar nazariyasi. – Qozon. 1989. – 265 b.

<sup>2</sup> Yusupov R.A. Rus va tatar tillarining leksik va frazeologik vositalari. – Qozon: Tatar. 1980. – 255 b.



Arab va o‘zbek tillarining frazeologik kuzatishlari juda ko‘p va keng tarqalgan:

.... عَلَى الْأَبْوَابِ	eshikda
إِنْ تَفَعَّتْ أَسْهُمُهُ	Uning aksiyalari ko‘tarildi
نَصِيبُ الْأَسَدِ	Arslonning ulushi, eng katta ulush
بُرْجٌ عَاجِيٌّ	Fil suyagi minorasi (real hayotdan uzoq, o‘z qobig‘iga o‘ralib olgan kishiga nisbatan ishlatiladi)
تَجْمِيدُ الْأَسْعَارِ	Narxlarni muzlatish, narxlarni ushlab turish, ko‘tarilmaslik chorasini ko‘rish
سَبَّحَ ضِدَّ النَّيَّارِ	Oqimga qarshi suzdi, qarshi chiqdi
أَنْجَزَفَ مَعَ النَّيَّارِ	Biror narsaga qarshilik ko‘rsatishga o‘zlik qildi, oqim bo‘ylab suzdi, tan berdi
صِرَاعٌ حَيَاةٍ أَوْ مَوْتٍ	Yo hayot, yo mamot kurashi (jangi, olishuvi)
شَرِيكُ حَيَاةٍ / عُمُرٍ	Umr yo‘ldoshi
خَطُّ النَّارِ	Olov chizig‘i; <i>harb.</i> Oldingi pozitsiyalar
أَدَارَ دَقَّةَ الْحُكْمِ	Boshqardi, hukmronlik qildi
دَقَّ مِسْمَارًا فِي نَعْشِهِ	Halokatiga “yordam” berib yubordi, muvaffaqiyatsizlikka duchor etdi
دُمُوغُ التَّمَّاسِيحِ	Timsoh ko‘z yoshlari, yolg‘on yig‘i
سَفِينَةُ الصَّحْرَاءِ / الْبَيْرِ	Sahro kemasi, tuya
الْجِنْسُ النَّاعِمُ / اللَّطِيفُ	Nozik jins (ayol jinsi)
أَخْرُ صَيْحَةً	Oxirgi qichqiriq; eng so‘nggi (moda)

### b) Tarjimaning leksik usuli

Ayrim hollarda arab tilidagi frazeologik birliklarni tarjima qilishda bitta so‘zdan foydalanish mumkin.

Misol tariqasida frazeologik birlikni ko‘rib chiqamiz Qur‘ondan arabcha سِرَاجٌ مُنِيرٌ. O‘zbek tiliga tarjima qilganda yorqin nur, yorqin chiroq, istilohda esa payg‘ambar so‘zi sifatida ishlatilgan.

Leksik usul arab tilining bir qator frazeologik birliklarini o‘zbek tiliga tarjima qilishda qo‘llaniladi:

غَلِيظَ الْقَلْبِ	Qalbi qattiq, toshbag‘ir
الْقَاسِيَةَ قُلُوبُهُمْ	Qalblari qattiq
هَبَاءٌ مَّنْثُورًا	Sochilgan to‘zon, bekordan-bekorga
أَخْضَرُ / رَطْبٌ وَيَابِسٌ	Ho‘lu quruq
ابْنُ السَّبِيلِ	Musofir, yo‘lda qolgan kishi
صِرَاطٌ مُسْتَقِيمٌ	To‘g‘ri yo‘l
عَلَى حَرْفٍ	(Biror narsaning) chetida, omonatgina
انْتَقَلَ إِلَى جِوَارِ رَبِّهِ / دَعَاَهُ اللَّهُ إِلَى جِوَارِهِ	U vafot etdi

### c) Qo‘shma tarjima

Qo‘shma tarjima asl frazeologik birlikning boshqa tildagi ma‘nosini to‘liq yetkazish va uni tarjima qilish uchun barcha mavjud imkoniyatlarni taqdim etish uchun zarurdir.

Odatda, qo‘shma tarjimadan foydalanilganda frazeologik birlikni tushuntiruvchi tavsifiy tarjima beriladi.

Shunday qilib, Qur‘on matnidan arab frazeologik birligining ma‘nosini yetkazish uchun أَهْلُ الْكِتَابِ qo‘shma tarjima ishlatilgan: ahli kitob (yahudiy va nasroniylar)

Binobarin, arab frazeologik birliklarini o‘zbek tiliga tarjima qilishda lug‘atni majburiy bilish, kontekstni tahlil qila bilish, tarjima qilinayotgan xalqning tarixi, madaniyati, turmushi va urf-odatlarini chuqur o‘rganish, shuningdek frazeologik birlik tiliga tarjima qila olish lozim.

**ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. "Al-Qomus" Arabcha-o'zbekcha qomusiy lug'ati
2. Soloduxo E.M. Frazologiyalar nazariyasi. – Qozon. 1989. – 265 b.
3. Yusupov R.A. Rus va tatar tillarining leksik va frazeologik vositalari. – Qozon: Tatar. 1980. – 255 b

## JINOYAT PROTSESSIDA TINTUV: SHAXS HUQUQLARI VA QONUNIY MANFAATLARINI KAFOLATLASH

**Akmalov Hamid Akmalovich**

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Yuridik fakulteti 3-bosqich talabasi

### *ANNOTATSIYA*

*Ushbu maqolada jinoyat protsessida tergov harakati hisoblangan tintuv o'tkazish tushunchasi va tintuv o'tkazishda shaxs huquqlari va qonuniy manfaatlarining protsessual kafolatlari masalalari atroflicha tahlil qilingan. Bunda tintuv tushunchasi bo'yicha jinoyat-protsessual qonunchiligida belgilangan normalar, soha mutaxassislari va olimlarning bu boradagi qarashlari o'rganilib, mualliflar tomonidan ushbu tushuncha ta'rifi ishlab chiqilgan.*

***Kalit so'zlar:*** *Tintuv, olib qo'yish, tergovchi, xolislar, tintuv bayonnomasi.*

Tintuv ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan ashyolar va hujjatlarni qidirib topish va olib qo'yish, shuningdek qidirilayotgan shaxslar va murdalarni izlab topish maqsadida bino, inshoot, transport, joy hududi yoki ayrim fuqarolarni majburiy tekshirishdan iborat bo'lgan tergov harakati hisoblanadi. Tintuv har doim nomuayyan xususiyatga ega bo'ladi, ya'ni aynan qaysi narsalar va hujjatlar topilishi va olib qo'yilishi u boshlangunga qadar aniq bo'lmaydi. Bundan xulosa qiladigan bo'lsak, ushbu jarayon mavzuning dolzarb ekanligini anglatadi desak mubolag'a bo'lmaydi. Sababi, bu eng og'ir va sermashaqqat tergov harakatlaridan biri bo'lib, uni o'tkazish tergovchidan ko'p mehnat va keng bilimlarni, yetarlicha tajriba hamda mazkur ishni jinoyat-protsessual qonunchilik normalariga muvofiq tashkil etish va o'tkazish uchun tegishli qobiliyatlarni talab qiladi.

Tintuv o'tkazishda shaxs huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga tergovchi faoliyati qaratiladi. U tintuv o'tkazishda shaxs huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha tegishli huquqlar va majburiyatlarga ega bo'ladi va ularga muvofiq harakat qiladi. Mazkur faoliyat shaxs huquqlari va qonuniy manfaatlarini kafolatlash uchun zarur.

Tintuv o'tkazishda shaxs huquqlari va qonuniy manfaatlarining protsessual kafolatlarini ta'minlashda tergovchining protsessual mustaqilligi ulkan rol o'ynaydi. Tergovchi tintuv va olib qo'yishning asosiy subyekti hisoblanadi, binobarin, u shaxsning mazkur huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlovchi asosiy subyekt sifatida ham maydonga chiqadi. Tergovchi – davlat vakili bo'lib, u tergovni o'tkazish jarayonida qonunga qat'iy muvofiq ravishda harakat qilishi lozim. Tergov o'tkazishda ayblanuvchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga og'ishmay rioya qilish uning burchidir.

Maqolaning asosiy maqsadi tintuv tushunchasi va uni o'tkazishda shaxs huquqlari va qonuniy manfaatlarining protsessual kafolatlarini aniq yoritish, uni batafsil ochib berishdan iborat. Ushbu mavzuni tahlil qilish va yoritishda boshqa mualliflar va olimlarning ham fikrlarini atroflicha o'rganib chiqdik. Ko'plab mualliflar tomonidan berilgan tintuvning tergov harakati sifatidagi ta'riflari umumiy mohiyatga ega bo'lsa-da, ularda farqli jihatlarni kuzatish mumkin. G'.Abdumajidov ta'kidlaganidek, "Surishtiruvchi va tergovchi biror turar joy, xizmat, ishlab chiqarish binosida yoki o'zga joyda yoxud biror shaxsda ish uchun ahamiyatli bo'lgan narsa yoki hujjatlar bor deb o'ylash uchun yetarli ma'lumotga ega bo'lgan taqdirda tintuv o'tkazishga haqlidir" [1, 16-b.]. O'zbekiston yuridik ensiklopediyasida esa, tintuv va olib qo'yishga JPK normalari mazmunidan kelib chiqqan holda ta'rif beriladi [2, 347-348-b.].

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi "Protsess ishtirokchilari" tushunchasini keng ma'noda talqin qilib, mazkur tushunchaga jinoyat ishini yuritishda ishtirok etuvchi barcha shaxslarni kiritadi.

Tintuv – mazmuni daliliy va yo‘naltiruvchi ma‘lumotlar manbalarini (jinoyat qurollari, jinoyat yo‘li bilan topilgan yoki ish uchun ahamiyatli bo‘lgan narsalar, qimmatli va boshqa ashyolarni), shuningdek qidirilayotgan shaxslar va murdalarni yoki ularning qayerda joylashganligi haqidagi ma‘lumotlarni topish va olish maqsadida turar-joylar, yer maydonlari, muayyan shaxslar va ularning narsa va buyumlarini majburiy tekshirishga qaratilgan tergov harakatidir. Jinoyat protsessi ishtirokchilari tushunchasi va klassifikatsiyasiga doir masala ham munozaralidir. Maxsus adabiyotlar va 1959-yilda qabul qilingan Jinoyat-protsessual kodeksida jinoyat protsessi ishtirokchilari tushunchasiga jinoyat ishida o‘z huquq va manfaatlarini himoya qiluvchi shaxslar kiritilgan. Bu borada boshqa olimlarning fikrlarini o‘rganadigan bo‘lsak, V.V.Mozyakova ta’kidlashicha, olib qo‘yish – jinoyat ishi uchun ahamiyatga molik narsa va hujjatlarning aynan kimda va qayerda ekanligi ma‘lum bo‘lib, ularni qidirishning hojati bo‘lmagan hollarda surishtiruvchi, tergovchi va sud tomonidan qo‘llanadigan chora hisoblanadi. Tintuv doimo majburlov xarakteriga ega bo‘lgan tergov harakati bo‘lib, uning vazifalari jinoyat ishiga dahldor bo‘lgan narsa va hujjatlarni, tirik shaxslar va murdalarni, jinoyat yo‘li bilan topilgan pullar va boshqa qimmatliklarini binolardan, yoki ularni yashirgan deb taxmin qilingan shaxslarga tegishli joylardan qidirib topish va olingan natijalarni bayonnomada qayd etishdan iboratdir [3, 259-b.]. R.S.Belkin esa tintuv tushunchasiga boshqacha yondashgan. Uning fikriga ko‘ra, tintuv ish bo‘yicha haqiqatni o‘rnatish uchun ahamiyatli bo‘lgan ob’ektlarni, jinoyat qurollarini, jinoiy yo‘l bilan topilgan boyliklarni, shuningdek, ish uchun ahamiyatli boshqa narsa va hujjatlarni topishdan iborat bo‘lgan tergov harakatidir. U yashiringan shaxslar va murdalarni topish uchun ham o‘tkazilishi mumkin [4, 47-b.]. A.R.Ratinov tomonidan berilgan ta’rif umume’tirof etilgan bo‘lib, unga ko‘ra, tintuv mohiyati bu, yashiringan shaxslarni, shuningdek ish uchun ahamiyatli narsalarni topish va olib qo‘yish maqsadida turar-joylar, binolar, yer maydonlari va alohida shaxslarni majburiy kuzatishdan iborat bo‘lgan tergov harakatidir [5, 7-b.]. Tintuv va olib qo‘yish shaxsning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini cheklash bilan bog‘liq harakat

bo‘lganligi uchun huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari (ayniqsa jinoyat-qidiruv xodimlari) qonun talablari asosida harakat qilishlari kerak [6, 38-b.].

Ayrim manbalarda yuqorida keltirilgan ikki ta’rifning uyg‘unlashgan mazmundagi izohlarini ham kuzatishimiz mumkin. Misol uchun V.A.Obraztsov va I.F.Panteleyevlar “Tintuv - jinoyat qurollari, jinoiy yo‘l bilan topilgan boyliklar, shuningdek, tergov qilinayotgan jinoyat ishi uchun ahamiyatli bo‘lgan boshqa narsa va hujjatlarni topish va olish maqsadida turar joylarni, binolar va boshqa ob’ektlarni, shuningdek alohida fuqarolarni majburiy tekshirishda ifodalanadigan tergov harakatidir” degan ta’rifni berganlar [7, 331-b.]. Shaxsni tintuv qilishda uning buyumlari (sumka, jomadonlari) va kiyimlari ham nazarda tutilganligi bois, yuqorida keltirilgan tintuv qilinadigan ob’ektlar doirasini kengaytirilgan hollarini kuzatish mumkin. Mazkur holat A.A.Zakatov va S.G.Lyubimchevlar tomonidan berilgan quyidagi ta’rifda o‘z ifodasini topgan: “Tintuv – ish uchun ahamiyatli bo‘lgan narsalarni, shuningdek yashiringan shaxslar va murdalarni topish va olish maqsadida turar joylarni, yer maydonlari, transport vositalarini, fuqarolar yoki ularning kiyimlarini majburiy tartibda tekshirishdan iborat bo‘ladigan tergov harakatidir” [8, 269-b.]. G‘.Shodiyev ta’biri bilan aytganda, “tintuv o‘tkazish jarayonida, yuqorida qayd etilgan kamchiliklar yuzasidan jinoyat-protsessual qonunchilikka o‘z vaqtida o‘zgartirish va ko‘shimchalar kiritilsa, shaxsning huquq va qonuniy manfaatlari kafolatlanishiga imkon yaratiladi” [9, 120-121-b.].

Bir qarashda yuqorida keltirilgan ta’riflar tintuv tergov harakatining asosiy belgilarini yoritib berganga o‘xshasa-da, qidiriladigan ob’ektlarning doirasini yetarlicha ko‘rsatib berilmagan. Tergov amaliyotida ko‘p hollarda tintuv tergov harakati narkotik moddalarni topish maqsadida ham o‘tkaziladi. Bunday moddalarni topish va olib qo‘yish ushlar vaqtida shaxsiy tintuv, turar-joy va hududlarda tintuv o‘tkazish bilan amalga oshirilishi mumkin. G‘.Shodiyev bu haqda shunday yozadi: “tintuv olib qo‘yishdan o‘z maqsadi va o‘tkazish tartibiga ko‘ra farqlanadi: 1) tintuvda qanday ob’ektlar qidirilayotganligi, ular qayerdaligi noma’lum bo‘lsa, olib qo‘yishda predmetning individual belgilari, uning qayerda (kimda) ekanligi ma’lum

bo‘ladi; 2) olib qo‘yishni o‘tkazish uchun (faktik) asos sifatida faqat dalillar tan olinsa, tintuvda – hatto tezkor-qidiruv tadbirlari davomida olingan ma‘lumotlar ham asos bo‘lishi mumkin; 3) olib qo‘yishda qidiruv harakatlari man qilinadi, tintuvda esa, aynan ular ko‘zda tutiladi” [10].

Yuqorida aytib o‘tilgan ta‘riflardan kelib chiqib tintuv tushunchasiga quyidagicha ta‘rif berish mumkin:

“Tintuv – mazmuni daliliy va yo‘naltiruvchi ma‘lumotlar manbalarini (jinoyat qurollari, jinoyat yo‘li bilan topilgan yoki ish uchun ahamiyatli bo‘lgan narsalar, qimmatli va boshqa ashyolarni), shuningdek qidirilayotgan shaxslar va murdalarni yoki ularning qayerda joylashganligi haqidagi ma‘lumotlarni topish va olish maqsadida turar-joylar, yer maydonlari, muayyan shaxslar va ularning narsa va buyumlarini majburiy tekshirishga qaratilgan tergov harakatidir”.

Shaxs huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya qilish talablari tintuv o‘tkazish bilan bog‘liq har bir holatda o‘z-o‘zidan qo‘llanishi mumkin emas, chunki ularni qo‘llashga yuzaki yondashish oxir-oqibat teskari samara beradi – qonuniylikning buzilishiga olib keladi. Shu bois, bunga yo‘l qo‘ymaslik uchun, tergovchilarga tintuv o‘tkazishni tartibga soluvchi huquqiy normalarni qo‘llashga ijodiy yondashish imkoniyati ta‘minlanishi lozim. Mazkur imkoniyat “tergovchining protsessual mustaqilligi” deb ataladigan huquqiy institut yordamida ta‘minlanadi. Bu institut tintuv o‘tkazishda shaxs huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlashning muhim kafolati hisoblanadi.

Shu o‘rinda tabiiy bir savol tug‘iladi: tintuv o‘tkazishda shaxs huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash tergovchi uchun asosiy va yetakchi funktsiya hisoblanadimi? Bu savolga faqat bitta javob bo‘lishi mumkin: tintuv o‘tkazayotgan tergovchi uni shunday o‘tkazishi lozimki, bunda shaxs huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilishiga yo‘l qo‘yilmasin. Tergovchi tintuv yoki olib qo‘yish o‘tkazishda shaxs huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlashi shart. Uning bu vazifalari ahamiyati shu bilan belgilanadiki, fuqaro protsessual huquqni amalga oshirish yo‘li bilan intilayotgan maqsadga erishish ayni holda ko‘rsatilgan tergov



funksiyalarini bajaruvchi tergovchining tegishli harakat orqali amalga oshiriladi. Faqat shu mansabdor shaxs o'z vakolatlari doirasida mazkur tergov funksiyalarining mohiyati bo'yicha qaror qabul qilish huquqiga ega bo'ladi.

Tergovchining aytib o'tilgan vazifalari shaxs huquqlari va qonuniy manfaatlari bilan bevosita bog'liq. Bu aloqa sxemasi quyidagi ko'rinishga ega: shaxs huquqi – tergovchining majburiyati. Shaxsning har bir huquqi bilan tergovchining uni ta'minlashga qaratilgan majburiyati mos keladi.

Tintuv o'tkazishda tergovchining mustaqilligi fuqarolarning turar joy daxlsizligiga bo'lgan huquqini so'zsiz va har tomonlama ta'minlashiga erishish ayniqsa muhimdir. Biz yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, bu shaxsning barcha ma'rifatli davlatlar tomonidan e'tirof etilgan va kafolatlanadigan asosiy huquqlaridan biri hisoblanadi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 12-moddasida quyidagi qoida mustahkamlangan: "Hech kimning shaxsiy va oilaviy hayotiga o'zboshimchalik bilan aralashish, uy-joyi daxlsizligiga, uning yozishmalaridagi sirlarga yoki uning nomus va sha'niga o'zboshimchalik bilan tajovuz qilinishi mumkin emas. Har bir inson xuddi shunday aralashuv yoki tajovuzdan qonun orqali himoya qilinish huquqiga ega".

Yuqorida qayd etib o'tilganidek, tergovchi tintuvni xolislar va boshqa shaxslar ishtirokida o'tkazadi. Xolislar sifatida u shunday shaxslarni taklif qilishi lozimki, tintuvda ularning ishtiroki biron-bir ma'lumotlar oshkor etilishiga olib kelmasin. Xolislar sifatida titilayotgan shaxsni tanimaydigan va u bilan qo'shni xonadonlarda yashamaydigan fuqarolar taklif qilinsa, ayni muddao bo'ladi.

### **Xulosalar**

Mazkur mavzuni yoritishda ko'plab adabiyotlarga va olimlarimizning fikrlariga murojaat etdik. Ularning ilmiy izlanishlarini o'rgangan holda o'z yondashuvimiz bo'yicha metodlar asosida mavzuni yoritishga harakat qildik. Izlanishlar natijasida quyidagi xulosa va takliflarimizni keltirib o'tishni joiz deb topdik. Tintuv o'tkazilayotgan shaxsning protsessual majburiyatlarini tahlil etishda bizda qator savollar paydo bo'ldi. Jumladan, tintuv o'tkazilayotgan shaxs qidirilayotgan mulk

yoki ashyoni berishga majburmi va tergovchi talabini bajarishdan bosh tortganligi uchun unga nisbatan qandaydir choralarni qo'llash mumkinmi? Yuqorida ta'kidlanganidek, tintuv majburiy xarakterga ega va odatda ayblovga doir dalillarini to'plashga qaratilgan. Ya'ni, tintuvning maqsadlaridan biri shaxsning jinoyat sodir qilganini fosh etish hisoblanadi. Buni amalga oshirish esa protsessual majburlashni qo'llash imkoniyati bilan ta'minlanadi. Biroq, bunday majburlash qandaydir huquqbuzarlik uchun jazo chorasi hisoblanmaydi, balki qidiruv tadbirlarini ta'minlash hamda tintuv maqsadiga erishish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Bizning fikrimizcha, ko'tarilgan mazkur dolzarb masalani yechishda aybsizlik prezumpsiyasidan ham kelib chiqish lozim. Uning mazmuniga ko'ra, gumon qilinuvchi (ayblanuvchi) o'zining aybsizligini isbot qilishga majbur emas. Shuning uchun shaxsga ularni fosh qiluvchi ma'lumotlarni taqdim etish majburiyatini yuklashga yo'l qo'yilmaydi. Bu O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasi hamda JPKning 23-moddasiga zid bo'lib, jumladan unda shunday deb belgilab qo'yilgan: "Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o'zining aybsizligini isbotlab berishi shart emas". Shuningdek, amaldagi qonunchilikda hech kim o'ziga qarshi guvohlik berishga majbur emasligi belgilangan. Nazarimizda, ko'rib chiqilayotgan vaziyatda "guvohlik berish" tushunchasi so'zma-so'z talqin etilishi kerak emas. O'ziga qarshi ko'rsatma berishdan bosh tortish imkoniyati bilan birga u o'zini-o'zi ayblashga qarshi boshqa kafolatlarni, jumladan, ayblov dalillarini yig'ishga xizmat qilmaslik, shuningdek shaxsni jinoyat sodir etishda fosh qiluvchi ashyolarni taqdim etishdan bosh tortish huquqini o'z ichiga olishi lozim. Yuqorida qayd etilganlarni hisobga olgan holda o'zida yoki uyida tintuv o'tkazilayotgan shaxsga ish uchun ahamiyatli bo'lgan narsa yoki hujjatlar taqdim etish bilan bog'liq majburiyat yuklatilishi mumkin emas degan xulosaga kelish mumkin. Bizning nazdimizda, tergovchi taklifiga ko'ra qidirilayotgan ashyolarni berish tintuv o'tkazilayotgan shaxsning xohishi yoki xohlamasligiga bog'liq bo'lib, bu uning ixtiyoriga ko'ra amalga oshirilishi zarur.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdumajidov G. Problemi sovershenstvovaniya predvaritelnogo rassledovaniya. [Problems of improving the preliminary investigation]. Tashkent: Science, 1975. – p.16.
2. O‘zbekiston yuridik ensiklopediyasi / Nashr uchun mas’ul R.A.Muxitdinov va boshqalar; Ma’sul muharrir: N.Toychiyev. [Legal encyclopedia of Uzbekistan / Responsible for publication R.A. Mukhitdinov and others; Responsible editor: N. Toychiyev]. - Tashkent: Adolat, 2010. - p.347-348.
3. Kommentariy k Ugolovno - protsessualnomu kodeksu Rossiyskoy Federatsii / Pod obsh.red. V.V.Mozyakova. [Commentary on the Criminal Procedure Code of the Russian Federation. V.V.Mozyakova]. -Moscow: 2002. p.259.
4. Kriminalistika. Kratkaya entsiklopediya. Avtor sostavitel R.S. Belkin. [Forensics. Concise encyclopedia. Author compiled by R.S. Belkin]. -Moscow: Scientific publishing house “Bolshaya Russian Encyclopedia”, 1993. p.47.
5. Ratinov A.R. Obisk i viyemka. [Ratinov A.R. Search and seizure]. -Moscow, 1961. p.7.
6. Mosolkova Yu.A. Oxrana prav i zakonnix interesov lichnosti. - Yaroslavl, 1984. – S. 58; Rijakov A.P. Sledstvenniye deystviya. - M., 1997. - S. 38. [Mosolkova Yu.A. Protection of the rights and legitimate interests of the individual. - Yaroslavl, 1984. – P. 58; Rizhakov A.P. Investigative actions. - M., 1997. - P. 38].
7. Kriminalistika: Uchebnik / Pod. prof. V.A. Obratsova. [Criminology: Textbook / Ed. prof. V.A. Obratsova]. - Moscow: Lawyer, 1995. p. 331.
8. Kriminalistika: Uchebnik/ Pod red. Prof. A.G. Fillipova (otv. redaktor) i prof. A.F. Volinskogo. [Criminology: Textbook / Ed. Prof. A.G. Fillipova (responsible editor) and prof. A.F. Volinsky]. - Moscow: Spark, 1998. p. 269.
9. Shodiyev G‘. Tintuv o‘tkazishda shaxs huquq va qonuniy manfaatlarining protsessual kafolatlari // TDYuI Axborotnomasi. [Shodiyev G. Procedural guarantees

of a person's rights and legal interests during a search]. TSIL Bulletin. – 2009. – No. 3. p. 120-121.

10. Akmalov Hamid Akmal o'g'li. (2023, Aprel). YANGILANAYOTGAN KONSTITUTSIYADA INSON HUQUQ VA ERKINLIKLARI, SUD-HUQUQ SOHASIDAGI ISLOHOTLAR. "Talqin va tadqiqotlar" ilmiy-uslubiy jurnali. UIF-2023: 8.2|2181-3035|№22.

## SOLIH MAHDUM VA INOYAT OQSOQOL MUQOYASASI

**Asadullayeva Marjona Alisher qizi**

Jizzax davlat pedagogika universiteti

O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti 3- boshqich talabasi

[decemberg2291@gmail.com](mailto:decemberg2291@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotida o‘chmas iz qoldirgan Abdulla Qodiriyning „Mehrobdan chayon“ romani qahramoni Solih mahdum va Said Ahmadning „Ufq“ trilogiyasi qahramoni Inoyat oqsoqolni tahlil etish va bu ikki obrazning o‘xshash va farqli tomonlarini aniqlash maqsad qilib olingan. Badiiy tahlilning genetik, tipologik, funksional, psixologik, filologik kabi tahlil turlaridan foydalanildi.*

**Kalit so‘z :** „Mehrobdan chayon“, „Ufq“, Solih mahdum, Inoyat oqsoqol

### ABSTRACT

*This article aims to analyze Solih Makhdum, the hero of Abdulla Qadiri’s novel „Mehrobdan Chayon“, who left an indelible mark in Uzbek literature Inoyat Aksaqal, the hero of the „Ufq“ trilogy and to identify the similarities and difference between these two characters.*

**Keywords :** „Mehrobdan chayon“, „Ufq“, Solih makhdum, Inoyat aksaqal.

„Mehrobdan chayon“ va „Ufq“ romanlari o‘z davrining, balki hozir ham minglab muxlislariga ega asarlar hisoblanadi. Bu asarlarda xalqimizning tarixi aijtimoiy hayoti ro‘yi-rost tasvirlangan. Bu ikki romandagi ba’zi obrazlar bir-biriga yaqin umumiy jihatlarga egadir. Masalan : „Mehrobdan chayon“ romanida Solih mahdum , „Ufq“ trilogiyasida esa Inoyat oqsoqol. Badiiy asardagi har bir obraz xoh to‘qima bo‘lsin, xoh hayotiy prototip asosida yaratilgan bo‘lsin unda, albatta,

turmushda uchrab turadigan insonlar haqida hikoya qiladi. „Turmushning turli sohalarida ishlashim natijasida men o‘zbeklarning urf-odatlarini ular ichida uchrayturg‘on tiplarni o‘rganoldim “ [Qodiriy ,2017,436-bet] deb yozadi Qodiriy. Demak , o‘z-o‘zidan ma’lumki, Solih mahdum ham Inoyat oqsoqol han aynan yon atrofimizda uchratish mumkin bo‘lgan insonlarning badiiy asardagi aksidir.

„Solih mahdum – o‘z zamonasining istilosi bilan aytganda „maktabdor domla” dir “[Qodiriy,1994,3-bet]. „ Oyni etak bilan yashirib bo‘lmaydir. Mahdumning xasislikka o‘xshash holatlari, albatta , bor edi. Mahdum topib tutmag‘an yillarda bu ishni yo‘qlikdan qiladur, desak-da keying vaqtlarda ham shu odatini tark etmagan uchun tabiatida bir muncha xasislik bor ekan deymiz “[Qodiriy,1994,6-bet]. Yashash joyida maktabdorligi bilan tanilgan. Solih mahdumning ba’zi kamchiliklari ham ommaga ma’lum edi. „Ko‘ylak ishtoni aksar yeti-sakkiz qishdan beri guppichoponi yangilangani ma’lum emas, faqat qish kelib ketgan sayin yangidan – yangi yamoqlarga boyirdi, guppi umrida bir marotaba shunda ham mahdumdan beruxsat ammo Nigor oyimning zo‘ri bilan tog‘oraga tushgan. Mahalla kishilari mahdumning bu choponiga moltopar deb ism berganlar, guppi kiyilib chiqilgan kun mahdumga sezdirmay „ moltopar “ savdodan qaytibti deb kulishar edi. Maxdum yuqoridagi ba’zi o‘rinlardan ma’lumki, xasis kamchiqim inson. U oilasini kiyim-kechak vajidan o‘zi kabi tutar edi, faqat keyim-kechak emas, oziq-ovqat to‘g‘risida ham shunday edi. U ro‘zg‘orning ayollarga oid qismida ham „ish o‘rgatar “ edi. „ Bir oy to‘lmasdan kir yuvishga ruxsat bermas, agar Nigor oyim bir oysiz kir yuvg‘onini ko‘rib qolsa – kiyimimni tog‘oraga churutarsan!”- deb g‘ovg‘a solar edi. Ikki haftasiz palovni ko‘rmaslar, Nigor oyimning qozoni yo‘qcha elcha go‘shetni faqat palov sharofati bilangina ko‘rar edi [Qodiriy,1994,7-bet]. Solih mahdumning moliyaviy imkoniyati yeta turib yeb-ichishga qattqlik qilishi, „ Ufq “ romanidagi Inoyat oqsoqolni eslatib yuboradi. Xattoki , Inoyat oqsoqol Solih mahdumdan ham xasisroq tasvirlanadi. Inoyat oqsoqol aynan urush davrlarida, oilasi moddiy tomondan juda qiynalganda ham yashirincha yig‘ib yurgan mol-dunyosini ishlatmaydi, eng og‘ir vaqtda ham ayolini ingichka tilla bilakuzugini sotib o‘rniga ro‘zg‘orga kerakli narsalarni olib

kelgan bo‘ladi, aslida esa tilla buyumni sotmasdan yashirincha yiqqan pullaridan ro‘zg‘orga ul-bul olib keladi, bu holat uni vafotidan keyin o‘g‘li Nizomjonga a‘yon bo‘ladi .

Inoyat oqsoqol Solih mahdumdan ayyorligi, quvligi, ko‘p muommalarga chap berib keta olishi bilan farq qiladi. Masalan, qishloq erkaklari urushga ketganda, ayollar esa dala ishlarida ishlayotgan bir vaqtda u ham ularga yordam berish o‘rniga vaziyatdan foydalanib qolish payida bo‘ladi, o‘rik pishgan vaqtda qishloqdoshlarining o‘rigini suv tekinga sotib olib pullashida ko‘rish mumkin. „ Sotib olgan o‘riklarini egalari qoqib yemayotganmikin deb mahallani maxsichan aylanib devor nahrallaridan qarab yuradi (kalish kiyib yursa shaloplatib bildirib qo‘yishi mumkin ) [S.Ahmad,2019,377-bet]. Uning bu harakati naqadar odamgarchilikdan chiqqanligini ko‘rsatadi, adar uning o‘rnida boshqa inson bo‘lsa shunday o‘g‘ir kunlarda dalaga chiqib xotin-xalajlarga yordam berardi yoki o‘riklarni terib oilalarga tarqatgan bo‘lardi. Inoyat oqsoqolning yana bir o‘ziga xosligi shundan iboratki, u har qanday vaziyatda faqat foydani ko‘zlaydi, xatto kata o‘g‘li A‘zamjondan qoraxat kelganda ham uning bevasi yoshgina Dildorni kichik o‘g‘li Nizomjonga nikohlab bermoqchi bo‘ladi. To‘g‘ri, tarixda bunday holatlar ham uchrab turgan, lekin buning zamirida yetim qolgan bolalar boshqa begona erkak qo‘lida aziyat chekmasligi uchun qilingan yo‘ldir. Ammo Inoyat oqsoqol esa Dildorning otasiga tegishli hovli boshqa birovga qolmasligi uchun uy-joy, boylik vajidan bu ishni qilmoqchi bo‘ladi. „Oqsoqol hovliga, keksa tut shohlari engashib turgan tunuka tomga suqlanib birma-bir qarab chiqdi. Ko‘nglidan, jindek remont qilsa ellik mingga ketadi degan o‘y o‘tkazdi “ [S.Ahmad.2019.379-bet].

Solih mahdum va Inoyat oqsoqol singari insonlarning bo‘lishi davr va sharoit talabidan kelib chiqqan bo‘lsa ajab emas. A. Qodiriy „ Mehrobdan chayon “ romanida Solih mahdum nega bunday bo‘lib qolganligiga ma‘lum ma’noda izoh berib o‘tadi:„, Yoshlik chog‘ida otasi o‘lib, qattiqlig‘da o‘sdi, uning ba‘zi yarashmag‘on harakatlari balki o‘sha qattiqliqning ruhga singib qolgan yomon

ta'siridir<sup>1</sup>." Bu ikki obrazning ijtimoiy ta'sir kuchi judan yuqori. Ushbu asarlarni o'quvchi o'qir ekan Solih mahdumga ayniqsa Inoyat oqsoqolga nisbatan nafrat, jirkanish tuyg'ularini tuyadi. Asardagi qahramonlar tarbiyaviy ahamiyati ham shundadir, yozuvchi bu obrazlarni asarga olib kirishdan maqsadi ham jamiyat orasida uchraydigan bunday muommoli insonlardan to'g'ri xulosa chiqarishga va ulardek yo'l tutmaslikka chaqiradi. „ Badiiy asarni to'g'ri anglash va ta'sirlanish fazilati adabiy asar o'qish bilan o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmaydi. Badiiy asarning mohiyatini anglab yetish uchun har bir kishi muayyan darajada estetik tayyorgarlikka ega bo'lishi kerak.”<sup>2</sup> Yozuvchilar personajlar xarakterini ochiq oydin aytishdan qochadi, uni boshqa obrazlar orqali o'quvchiga yetkazishga harakat qiladi . „ Chinakam badiiy asarning estetik jozibasini uning sirtida turmaydi. Matndagi yashirin nafosatni, zaiflikni anglash uning badiiy qatlamlarni kashf etish uchun muayyan adabiy bilim va estetik didan tashqari go'zallikni kerakli joydan qidira bilish malakasi ham shakllangan bo'lishi kerak.”<sup>3</sup>

Xulosa qilib aytganda, bu ikki asar qahramoni asarning badiiy mohiyatini ochishda, o'sha davr muhitini yoritishda beqiyos o'ringa ega. Ularning ba'zi yomon illatlari, hayotda mavzud insonlarning badiiy aksidir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOT

1. Abdulla.Q.(1994).Mehrobdan chayon. Toshkent .Adabiyot va san'at nashriyoti .
2. Said.A. Ufq .(2019) .Toshkent . Sano –standart nashriyoti.2019. (631-bet)
3. Yo'ldoshev.Q . Mohiyatgaingan milliylik maqolasi.
4. Abdulla.Q .Mukammal asarlar to'plami 3-qism. Toshkent.Info Capital Group.(566-bet)
5. O'zbek tilining izohli lug'ati .5-jild.

<sup>1</sup> A.Qodiriy .Mehrobdan chayon . Toshkent .Adabiyot va san'at nashriyoti . 1994,6-bet

<sup>2</sup> Q. Yo'ldoshev . Mohiyatgaingan milliylik.

<sup>3</sup> Q. Yo'ldoshev . Mohiyatgaingan milliylik.



## MULTIMEDIALI TA'LIM KORPUSINI ONA TILI DARSLARIDA QO'LLASHNING AHAMIYATI

**Saydaliyeva Matluba Shuxrat qizi**

O'zbekiston Xalqaro Islom akademiyasi akademik

litseyining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

[saydaliyeva1993@mail.ru](mailto:saydaliyeva1993@mail.ru)

### *ANNOTATSIYA*

*Ushbu maqolada ta'lim korpusini yaratish va uni ona tili darslarida qo'llashning ahamiyati o'rganilgan.*

**Kalit so'zlar:** *ta'lim korpusi, multimedia, rasmlil rebus, AKT, passiv o'quvchi*

### *ANNOTATION*

*This article examines the importance of creating an educational corpus and using it in mother tongue classes.*

**Key words:** *educational corpus, multimedia, pictorial rebus, ICT, passive reader.*

O'zbekistonda ta'lim tizimini, xususan, xalq ta'limini yangi bosqichga ko'tarish zamonaviy yondashuvlarni talab qiladi. Biz bugun o'quvchining qiziqish va ehtiyojlarini, o'qituvchilarning imkoniyatlarini hisobga olib istiqbolli rejalar tuzishimiz lozim. Bugungi o'quvchi 20 yil oldingi o'quvchidan ancha farq qiladi. Globallashuv tufayli axborot almashinuvi shu qadar tezlashdiki, endi o'qituvchi sergakroq bo'lmasa, o'quvchidan orqada qolib ketishi mumkin. Ilgari o'quvchilar darslik va o'qituvchi bergan ma'lumotlar bilan kifoyalana edi, bugun bu ma'lumotlar yetarli bo'lmay qoldi. Shu ma'noda, yaratilayotgan milliy til korpusi, xususan,

ta'limiy korpus mamlakatda ta'lim tizimini yanada rivojlantirish uchun katta qulaylikdir.

Multimedia («ko'p muhitlik» degan ma'noni bildiradi) zamonaviy kompyuterlarning deyarli barchasida mavjud bo'lgan imkoniyatlar majmuini, kompleks tushunchani anglatadi. Multimedia axborotning turli ko'rinishlari – matn, jadval, grafika, ovoz, animatsiya (multiplikatsiya), videotasvir, musiqa yordamida axborotni yig'ish, saqlash va qayta uzatish vazifalarini bajaradi. Multimedia «inson-kompyuter» interaktiv (dialogik) muloqotning yangi, takomillashgan pog'onasi bo'lib, bunda foydalanuvchi juda keng va har tomonlama axborot oladi.<sup>1</sup>

Bilimlarni qabul qilish va o'zlashtirishda barcha sezgi a'zolarining faoliyatini to'g'ri uyushtirish katta ahamiyatga ega. Sezgi a'zolari qanchalik ko'p ishtirok etsa, bilish shunchalik osonlashadi. Shunga ko'ra, ta'lim sohasida multimedia dasturlaridan va umuman axborot kommunikatsiya tizimiga oid bilim va malakalarni kengaytirish va mazmunan boyitish muhim ahamiyatga ega.

Ta'lim har doim takomillashtirishga, yangilanishga muhtoj. Shu o'rinda buyuk alloma Abu Rayhon Beruniyning ta'lim jarayoni to'g'risidagi quyidagi fikrlarini eslatib o'tmoqchimiz: *“Bizning maqsadimiz o'quvchini toliqtirib qo'ymaslikdir. Hadeb bir narsani o'qiyverish zerikarli bo'ladi va toqatni toq qiladi. Agar o'quvchi bir masaladan boshqa bir masalaga o'tib tursa, u xuddi turli-tuman bog'-rog'larda sayr qilgandek bo'ladi, bir bog'dan o'tar-o'tmas, boshqa bog' boshlanadi. Kishi ularning hammasini ko'rgisi, tomosha qilgisi keladi, har bir yangi narsa rohat bag'ishlaydi”*.

Bundan 3500 yil oldin Konfutsiy “Eshitganimni yodimdan chiqaraman, ko'rganimni eslab qolaman, mustaqil bajarsam tushunib olaman” degan ekan.

<sup>1</sup> Павлова О.Ю. Использование языковых корпусов в обучении иностранному языку. 2021-yil 15-aprel

Ta'limda informatsion hamda media ta'lim qo'llanganda tinglovchi, o'quvchi eshitish, ko'rish, ko'rganlari asosida mustaqil fikrlash imkoniyatlariga ega bo'ladilar.

Ta'lim tizimida turli fanlar qatori ona tili darslarida ham multimedia texnologiyalaridan keng foydalanish mumkin. Ingliz tilini o'rgatuvchi bir qancha turdagi multimediali dasturlar ishlab chiqish keng yo'lga qo'yilgan. Biroq ona tilini o'rgatuvchi bunday dasturlar soni sanoqli. Ta'lim jarayonini yangi mazmun va shaklda yo'lga qo'yish masalasi, eng avvalo, ona tili ta'limiga taalluqlidir. Chunki har qanday fanning mohiyati ona tili orqali ifoda qilinadi va ona tili orqali idrok etiladi. Maktablarda ona tili o'qitishning noan'anaviy usullarini ishlab chiqish va axborot kommunikatsion texnologiya (AKT)lardan, media vositalardan foydalanish ona tili ta'limini yo'lga qo'yishda eng ahamiyatli sanaladi. Bu bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligini ko'rsatadi.

1-rasmda o'quvchining hafta davomidagi ish qobiliyati ko'rsatilgan. Unga ko'ra o'quvchi bir kunlik dars mashg'ulotlarining 6-soatiga kelib toliqib qoladi. Haftaning shanba kunlarida esa butunlay passiv o'quvchiga aylanadi. Multimediali ta'lim korpusidan shunday holatlarda foydalanilsa dars samarali bo'ladi. Bundan tashqari jadvaldagi «U» harfi bilan belgilangan kataklar o'quvchining o'rta ish qobiliyatini ifodalaydi. Bunday holatda multimediali ta'lim korpusidan foydalanish keyingi dars mashg'ulotlariga o'quvchini tetiklashtirishda yordam beradi.

Hozirgi amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, multimedia vositalari yordamida ta'lim sohasida o'quvchilarni o'qitish ikki baravar samarali bo'lmoqda. Ma'lumki, eshitgan materialning to'rtidan bir qismi xotirada qoladigan bo'lsa, o'quvchilarga berilayotgan materiallarni video orqali amalga oshirsak, axborotni xotirada saqlanib qolishi va tasavvur qilish imkoniyati 35-70% gacha oshadi. Shuningdek, mazkur o'quv dasturlar audio va grafika ko'rinishida mujassamlashtirilgan holatda o'quvchilarga berilsa, materiallarni xotirada saqlab qolish 70-95%ga oshishi kuzatilmoqda.

Hafta kunlari	Dars soatlari					
	1	2	3	4	5	6
Dushanba	U	U	U	U	U	K
Seshanba	N	N	N	N	U	K
Chorshanba	N	N	N	N	U	K
Payshanba	U	N	N	N	U	K
Juma	U	U	U	K	K	K
Shanba	U	U	K	K	K	K

- N – Yuqori ish qobiliyati
- U – O‘rtacha ish qobiliyati
- K – Past ish qobiliyati

1-rasm

4-ilova



Bir o‘q bilan ikki quyovni otmoq

JAVOB



Achchig‘i chiqdi

JAVOB



Yulduzni benarvon uradigan

JAVOB



Kapalagi uchdi

JAVOB

Multimedianing imkoniyatlari juda keng. Korpus tuzuvchilarning mahoratiga qarab multimediali ta'lim korpusni yuqoridagi kabi qiziqarli topshiriqlar bilan boyitish mumkin. Bunda rasmi rebuslar orqali yashiringan iboralarni topish lozim.

O'zbek adabiyotining dahosi Alisher Navoiy o'z asarlari va ilmiy qarashlarida o'qituvchilik qobiliyati va uning obro'si, odobi yuzasidan ibratomuz mulohazalar yuritadi. Alloma fikricha o'qituvchi faoliyatini ijodiy yondashuvsiz tasavvur qila olmaydi. U doimo o'z ustida mukammal ishlashi, tajriba oshirib borishi zarur deydi. Ana shu boisdan uning asarlarida odob, axloq, ziyraklik, irodaviy kuch, poklik, samimiylik xislatlari asosiy o'rinni egallaydi.

O'qituvchi kasbining nozikligi, mas'uliyatliligi va murakkabligi hamda sharafli ekanligi to'g'risida mulohazalar, muallimning mahorati, ularga qo'yiladigan talablar, fazilatlariga oid qarashlar, munosabatga kirishish mahorati, muomala madaniyati Sharq mutafakkirlarining asarlarida ham o'z ifodasini topgan. Sharq pedagogikasi va pedagogik mahorati ming yillik tarixga ega. Buyuk mutafakkir Abdurahmon Jomiy o'z asarlarida bola dunyoqarashining kamol topishida maktab va muallimning roliga katta baho beradi. Uning fikriga qaraganda, muallim aqlli, adolatli, o'zida barcha yuksak fazilatlarni mujassamlashtirgan bo'lishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, jamiyat hayotiga kompyuterning keng miqyosda kirib kelishi fuqarolarga axborot olishga bo'lgan imkoniyatlar eshigini ochib berdi. Ta'limda multimediali axborot-resurslaridan foydalanishda ularning eng samarali vosita va ta'lim mazmunini boyituvchi omil ekanligi yaqqol namoyon bo'lmoqda. Multimedia vositalari asosida bilim olishda 30% gacha vaqtni tejash mumkinligi, olingan bilimlar esa xotirada uzoq muddat saqlanib qolishi aniqlandi. Rivojlangan mamlakatlarda muvaffaqiyat bilan qo'llanilib kelinayotgan ta'lim texnologiyalarini puxta o'rganib, xalqimizning milliy pedagogika an'alaridan hamda ta'lim sohasining shu kundagi holatidan kelib chiqqan holda, O'zbekistonning milliy ta'lim texnologiyasini yaratish lozimligi bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Павлова О.Ю. Использование языковых корпусов в обучении иностранному языку. 2021-yil 15-aprel
2. Ziyodulloyev Sh., Eshmo‘minov A. Korpus lingvistikasi. Termiz davlat universiteti "Science and Education" Scientific Journal October 2020.
3. Mengliyev Sh. Multimediani ta’limda qo‘llash. 2014.12.10.

## TYPES AND ANALYSIS OF GRAVIMETRIC ANALYSIS

**Norkoziyev Firdavs Nodirjan ugli**

Student of Jizzakh Polytechnic Institute

**Maksudov Ruslan Tavakkal ugli**

Student of Jizzakh Polytechnic Institute

**Khamidov Sobir Khodievich**

Assistant of Jizzakh Polytechnic Institute

[geteroauksin@gmail.com](mailto:geteroauksin@gmail.com)

***Abstract:** this article contains various opinions and information about the method of gravimetric analysis, its essence and methods of analysis, types of gravimetric analysis, their importance in the chemical industry and their wide use.*

***Key words:** quantitative analysis, gravimetric analysis, analyte, precipitation, filtration.*

Gravimetric analysis is one of the laboratory methods in which the mass and concentration of a substance is determined by measuring the change in its mass. The chemical being analyzed quantitatively is sometimes called the analyte.

There are 2 common types of gravimetric analysis. In both types, the analyte undergoes a phase change and separates from the mixture, which in turn causes a mass change.

Quantitative analysis is closely related to mineral exploration, metallurgy and chemical technology, biochemistry and agrochemistry, soil science, plant physiology, pharmacology, medicine and other fields.

Quantitative analysis allows to obtain information about the composition of plant and animal organs, to study the effect of certain elements on their growth, development and productivity.

At the present time, the development of industries such as modern production and electronic technology increases the focus on determining the minimum amount of impurities in substances. Quantitative analysis is the main method of controlling chemical processes, raw materials, intermediate and finished products in production.

In the gravimetric driving method, the substances in the mixture are separated by heating or chemically decomposing the sample. Heating or chemical decomposition releases any volatiles in the mixture, resulting in a change in the mass of the sample, and we measure that mass.

Gravimetric sedimentation method uses a reaction that leads to the formation of a precipitate, and the substance to be determined is precipitated as a solid compound and separated. In this case, a phase change occurs, i.e., the analyte passes from the liquid phase, reacting, to the state of solid precipitation. The precipitate is separated from the liquid phase by filtration. By calculating the mass of the precipitate, it is possible to determine the amount or concentration of ionic compounds in the solution.

Gravimetric analysis is a laboratory technique that uses mass change to calculate the amount or concentration of an analyte. One type of gravimetric analysis is the driving method, in which the mass change is measured after the volatile compounds have been expelled. For example, metal hydrate is heated and water is expelled. The mass change is then used to determine the amount or purity of the metal hydrate. Some useful tips for gravimetric analysis experiments and calculations:

- Double-check the stoichiometric ratios and make sure the equations balance.
- Ensure that the volatiles are dried to a constant mass when removing them from the sample.
- Always consider the mass of your container!

The main stages of gravimetric analysis are as follows:



1. The component to be detected is isolated and weighed. A sample is withdrawn on an analytical balance and ignited in a crucible. It is burned thoroughly until the mass of the ash does not change. Based on the specific mass of ash, its proportion in the sample is calculated.

2. The component to be detected is removed and the remainder is weighed. In this case, the sample of the test substance (g) is thoroughly dried to a constant weight. The mass of water is found from the difference between the masses before drying and after drying, and its content (in percent) is calculated.

3. The detected component turns into a chemical compound. The latter is isolated and transformed into a form with a fixed composition. Based on the mass of sediment in the form of weight, the composition of the identified component is calculated.

Precipitates obtained during the analysis should usually be dried, during burning they often undergo chemical changes. As a result, sedimentation and gravimetric forms are distinguished in gravimetric analysis.

Determining the amount of substances by the sedimentation method of tensile analysis consists of the following stages:

- Taking samples for analysis;
- Dissolving the obtained sample;
- Choosing the form of deposition;
- Choosing a precipitating substance (reagent);
- Selection of deposition conditions;
- Sedimentation separation (filtering), washing;
- Transferring the precipitate to a drying form;
- Calculation of analysis results;

Filtering and washing the precipitate. Depending on the type, the precipitate is filtered to separate it from the solution. Filters are different according to the material

they are made of (ash, ashless), density and size. The size of the filter is important in filtering. The filter is selected not according to the volume of the liquid to be filtered, but according to the amount of sediment. When the sediment is put into the filter, it should not be more than half of it, otherwise the sediment cannot be washed thoroughly. The purpose of washing the sediment is to remove foreign additives and sediment from its surface.

Drying the precipitate and transferring it to a drawable form. The washed precipitate is dried in a drying oven at 90-150 °C for a certain period of time.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. M.T.Gulomova, SH.Q.Norov, N.T.Turobov.,, Analitik kimyo''.
2. M.Mirkomilova.,,Analitik kimyo''.Toshkent:2002
3. Sobirovna K. D. et al. GRAVIMETRIK ANALIZ VA UNING TAHLILI //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2023. – T. 3. – №. 1. – С. 159-163.
4. Шарипов, Х. Т., Гулбаев, Я. И., Абдуллаев, А. А., & Хамидов, С. Х. (2021). КРИСТАЛЛИЧЕСКАЯ И МОЛЕКУЛЯРНАЯ СТРУКТУРА ДИОКСОКОМПЛЕКСА U (VI) С БЕНЗОИЛГИДРОЗОНОМ САЛИЦИЛОВОГО АЛЬДЕГИДА. *Scientific progress*, 2(6), 330-339.
5. кизи Муллажонова, З. С., Хамидов, С. Х., & Хакбердиев, Ш. М. (2021). Турли усулларлар ёрдамида госсиполли комплекс таркибидан кумуш ионини аниқлаш. *Science and Education*, 2(3), 64-70.
6. Хамидов, С. Х., Муллажонова, З. С. Қ., & Хакбердиев, Ш. М. (2021). Кумушнинг госсиполли комплекси ва спектрал таҳлили. *Science and Education*, 2(2).
7. Хамидов, С. Х., & Хакбердиев, Ш. М. (2021). Бирламчи алифатик аминларнинг госсиполли ҳосилалари синтези. *Science and Education*, 2(3), 113-118.

8. Gulbayev, Y. I., Xolmo‘Minova, D. A., Abdullayev, A. A., & Xamidov, S. X. (2022). Olma kislotasi va uning xususiyatlari. *Science and Education*, 3(1), 44-52.
9. Xamidov, S. X. (2022). Gossipolning biologik faol modda sifatida qo‘llanilishi. *Science and Education*, 3(1), 61-65.
10. Хамидов, С. Х. (2022). СУНБИЙ АРАЛАШМА ВА БЕГОНА ИОНЛАР ТАРКИБИДАН КУМИШ ИОНИНИ ГОССПОЛ СИРКА КИСЛОТА ИШТРОКИДА АНИҚЛАШ. *Журнал естественных наук*, 1(1 (6)), 161-165.
11. Namidov, S. X., Mullajonova, Z. S. Q., & Xakberdiev Sh, M. (2021). Gossypol complex and spectral analysis of silver. *Science and Education*, 2(2).
12. Хамидов С., Махмудова З., Шеркулов М. ЎСИМЛИК ЭКСТРАКТЛАРИДАН БИОЛОГИК ФАОЛ БИРИКМАЛАРНИ АЖРАТИБ ОЛИШДА ЮҚОРИ САМАРАЛИ СУЮҚЛИК ХРОМАТОГРАФИЯ УСУЛИНИНГ ЎРНИ //Журнал естественных наук. – 2022. – Т. 1. – №. 2 (7). – С. 142-146.
13. Хакбердиев Ш. М. Турли тузилишли аминларнинг госсиполи ҳосилалари синтези ва биологик фаоллиги //Science and Education. – 2020. – Т. 1. – №. 9. – С. 136-140.
14. Abulkasimovich A. A., Khodyevich K. S. Recycling of molybdenum waste by hydrometallurgical method //Eurasian Research Bulletin. – 2022. – Т. 11. – С. 1-4.
15. Alisher A., Sobir X. MONOBENZOKRAUN EFIRLARI GALOGENLI NOSILALARI SINTEZI //Журнал естественных наук. – 2022. – Т. 1. – №. 2 (7). – С. 278-281.
16. Абдуллаев А., Хамидов С. ОЛТИН АЖРАТУВЧИ ФАБРИКАНИНГ АТРОФ МУҲИТГА ТАЪСИРИ //Журнал естественных наук. – 2022. – Т. 1. – №. 2 (7). – С. 325-329.
17. Хамидов С. Х., Абдуллаев А. А. КУМУШИОНИНИНГ ГОССИПОЛ РЕАГЕНТИ БИЛАН РАНГЛИ КОМПЛЕКСИ ҲОСИЛ БЎЛИШИ //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2022. – Т. 2. – №. 3. – С. 364-375.

18. Kurbanova D. S. et al. Titration of Cu (II) IONS WITH SOLUTIONS of ORGANIC REAGENTS //Eurasian Journal of Engineering and Technology. – 2022. – T. 7. – C. 47-50.

19. Abdurasulov, S., & Kurbanova, D. (2023). TITRIMETRIK ANALIZ ASOSLARI VA USULLARI. TITRIMETRIK ANALIZDA HISOBLASHLAR. *Current approaches and new research in modern sciences*, 2(1), 57-62.

## RAQAMLI IQTISODIYOT TUSHUNCHASI, AFZALLIKLARI VA AMALIY AHAMIYATI

**Xurramov Shohboz Xurram o‘g‘li,**

TUIT master, [shohboztuit@gmail.com](mailto:shohboztuit@gmail.com)

**Shokirov Shoxrux Husen o‘g‘li,**

TUIT master, [shoxruxshokirov9@gmail.com](mailto:shoxruxshokirov9@gmail.com)

**Yodgorova Muxayyo,**

TUIT, student, [muhayyo432@gmail.com](mailto:muhayyo432@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

*Ushbu tezisda raqamli iqtisodiyotining amaliy ahamiyati va jihatlari, va birinchi navbatda insonlarning turmush darajasini sezilarli darajada oshira olishi va bu uning asosiy foydasi ekanligi yoritib berilgan.*

***Kalit so‘zlar:** raqamli iqtisodiyot, raqamli texnologiyalar, taraqqiyot, tizim, internet iqtisodiyoti, CRM, Fidbek, budjet taqsimoti.*

Hozirgi kunda raqamli iqtisodiyot tushunchasi bir qator mamlakatlarning iqtisodiy nazariyasi va amaliyotida paydo bo‘ldi. Bu raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, axborot sohasida inqilob va iqtisodiyotning globallashtirish jarayonlarini tezlashtirish bilan ajralib turdi. Ulardan foydalanish samaradorligi ortib borayotgan bilimga aylantirildi va ijtimoiy-iqtisodiy aloqalar tobora kengayib bormoqda.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo‘lidan borish imkoniyatini beradi”.

Raqamli iqtisodiyot – raqamli texnologiyalarga asoslangan elektron biznes va elektron tijorat bilan chambarchas bog‘liq iqtisodiy faoliyat, hamda shu faoliyat natijasida ishlab chiqariladigan va sotiladigan raqamli tovarlar, xizmatlar yig‘indisidir. Ba’zida u internet iqtisodiyoti, yangi iqtisodiyot yoki veb-iqtisodiyot degan terminlar bilan ham ifodalanadi.

Birinchi marta 1995 yilda amerikalik dasturchi Nikolas Negroponte “raqamli iqtisodiyot” terminini amaliyotga kiritgan bo‘lsa, hozirda bu istilohni butun dunyodagi siyosatchilar, iqtisodchilar, jurnalistlar, tadbirkorlar – deyarli barcha qo‘llamoqda.

Shuningdek raqamli iqtisodiyot – bu noldan boshlab yaratilishi lozim bo‘lgan qandaydir boshqacha iqtisodiyot emas. Bu yangi texnologiyalar, platformalar va biznes modellari yaratish, ularni kundalik hayotga joriy etish orqali mavjud iqtisodiyotni yangicha tizimga ko‘chirish deganidir.

Bu tizimning asosiy belgilari quyidagilardan iborat:

- yuqori darajada avtomatlashtirilganlik;
- elektron hujjat almashinuvi;
- buxgalterlik va boshqaruv tizimlarining elektron integratsiyalashuvi;
- ma’lumotlar elektron bazalari;
- CRM (mijozlar bilan o‘zaro munosabat tizimi) mavjudligi;
- korporativ tarmoqlar.

Qulayliklari esa:

1. To‘lovlar uchun xarajatlar kamayadi (masalan, bankka borish uchun yo‘lkira va boshqa resurslar tejaladi).
2. Tovarlar va xizmatlar haqida ko‘proq va tezroq ma’lumot olinadi.
3. Raqamli dunyodagi tovar va xizmatlarning jahon bozoriga chiqish imkoniyatlari katta.
4. Fidbek (iste’molchi fikri)ni tez olish hisobiga tovar va xizmatlar jadal takomillashtiriladi.
5. Tezroq, sifatliroq, qulayroq.

Raqamli iqtisodiyotning amaliy ahamiyati va jihatlari, bu birinchi navbatda, insonlarning turmush darajasini sezilarli darajada oshiradi, bu uning asosiy foydasidir.

Ikkinchidan, raqamli iqtisodiyot korrupsiya va “qora iqtisodiyot”ning asosiy kushandasidir. Chunki, raqamlar hamma narsani muhrlaydi, xotirada saqlaydi, kerak paytda ma’lumotlarni tez taqdim etadi. Bunday sharoitda biron ma’lumotni yashirish, yashirin bitimlar tuzish, u yoki bu faoliyat haqida to’liq axborot bermaslikning iloji yo’q, kompyuter hammasini namoyon qilib qo’yadi. Ma’lumotlar ko’pligi va tizimlilik yolg’on va qing’ir ishlarga yo’l bermaydi, chunki tizimni aldash imkonsiz. Natijada “iflos pullarni” yuvish, mablag’larni o’g’irlash, samarasiz va maqsadsiz sarflash, oshirib yoki yashirib ko’rsatish imkoni qolmaydi. Bu esa iqtisodiyotga legal mablag’lar oqimini oshiradi, soliqlar o’z vaqtida va to’g’ri to’lanadi, budjet taqsimoti ochiq bo’ladi, ijtimoiy sohaga yo’naltirilgan mablag’lar o’g’irlanmaydi, maktablar, kasalxonalar, yo’llarga ajratilgan pullar to’liq yetib boradi va hokazo.

Uchinchidan, davlatning raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yo’lini tanlaganligi axborot texnologiyalari sohasida va umuman, elektron hujjatlar aylanmasi sohasida yangi yo’nalishlar ochib beradi. “Raqamli texnologiyalar” tomon burilishga butun jahon internet tarmog’i va sifatli aloqaning rivojlanishi sababchi bo’ldi. Ta’kidlash joizki, bugungi kunda bu tizimdan foydalanuvchilar oziqovqat, turli parfumeriya va zamonaviy kiyim-kechak mahsulotlariga buyurtma berish uchun Telegram botlaridan faol foydalanmoqdalar. Shuningdek, turli internet do’konlar, elektron to’lov tizimlari ham faol rivojlanib bormoqda. Demak, fuqarolarimiz elektron bitimlarni amalga oshirishga ishonaptilar. Faqat hozirgi kungacha foydalanuvchilar katta xarajatlar talab qilmaydigan kichik bitimlarni amalga oshirmoqdalar, o’rtacha xarid hajmini oshirishga esa unchalik tayyor emaslar. Endigi masala o’rtacha va yirik iqtisodiy bitimlar va moliyaviy operatsiyalarni raqamli texnologiyalar orqali amalga oshirishni rivojlantirishdan iborat.

Xulosa qilib aytganda, “raqamli” atamasi barcha sohalarda axborot texnologiyalaridan faol foydalanishni anglatadi. Agar oddiy iqtisodiyotda moddiy

buyumlar asosiy resurs hisoblansa, raqamli iqtisodiyotda bu qayta ishlanadigan hamda uzatiladigan axborot – ma'lumotlar bo'ladi. Ularning tahlilidan so'ng esa to'g'ri boshqarish bo'yicha yechim ishlab chiqiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasi.

3. Xurram o'gli X. S., Husen o'gli S. S., Jamshid o'gli B. J. KOMPYUTER SAVODXONLIGINI O'RGANISH BOSQICHLARI //SCHOLAR. – T. 1. – №. 3. – C. 2023.

4. Qalandarov V. N. et al. PROBLEMS OF MODERN SOFTWARE AND COMPUTER-ENGINEERING TECHNOLOGIES //Исследование путей развития научно-технического потенциала общества в стратегическом периоде. – 2020. – С. 19-20.

5. Xurramov S. SUNIY NEYRON TO'RLARINI O'RGATISHDA PARALLEL ALGORITMLARDAN FOYDALANISH //Scienceweb academic papers collection. – 2020.



## NAMANGAN VILOYATI QISHLOQ XO‘JALIGI TARMOG‘INING RIVOJLANISH KO‘RSATKICHLARI

**Yoqubjonov Ibrohim G‘olibjon o‘g‘li**

NamDU tayanch doktoranti

### *ANNOTATSIYA*

*Maqolada O‘zbekiston respublikasi hududida hususan Namangan viloyatida agrobiznes tuzilmalarini rivojlanish ko‘rsatkichlari tahlili qilingan. Hususan Namangan viloyatida qishloq xo‘jaligi korxonalarini tomonidan yetishtirilgan mahsulotlar hajmi hamda ularning yillar kesimida o‘sish ko‘rsatkichlari tahlili olib borilgan. Shuningdek qishloq xo‘jaligida band bo‘lgan aholi va ishsizlik ko‘rsatkichlari haqidagi ma‘lumotlar keltirib o‘tilgan. Sh bilan birga mamlakatimiz hususan Namangan viloyatini qishloq xo‘jaligi tarmog‘ini rivojlanish ko‘rsatkichlari ushbu maqolamizda tavsiflab berilgan.*

***Kalit so‘zlar.** Qishloq xo‘jaligi, yetishtirilgan mahsulot, o‘sish ko‘rsatkichi, rivojlanish imkoniyati, agrar tarmoq, bandlik ko‘rsatkichi.*

## DEVELOPMENT INDICATORS OF THE AGRICULTURAL INDUSTRY OF NAMANGAN REGION

**Yoqubjonov Ibrohim G‘olibjon**

Foundation doctoral student of NamSU

### *ANNOTATION*

*The article analyzes the development indicators of agribusiness structures in the territory of the Republic of Uzbekistan, especially in the Namangan region. In particular, in the Namangan region, the volume of products grown by agricultural*

*enterprises and their annual growth rates were analyzed. Also, information about the population employed in agriculture and unemployment indicators is given. The indicators of the development of the agricultural sector of our country, especially the Namangan region, are described in this article.*

**Keywords.** *Agriculture, cultivated products, growth rate, development potential, agrarian sector, employment rate.*

**Adabiyotlar tahlili.** Maqolada asosan o‘zbekiston respublikasi prezidenti huzuridagi davlat statistika agentligi ma’lumotlaridan foydalanilgan. Shuningdek statistika agentligining 2023-yilda nashrdan chiqarilgan ”O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi” statistik to‘plamida keltirilgan ma’lumotlardan keng foydalanilgan. Hamda ushbu ma’lumotlar tahlil qilingan. Shu bilan birga jahondagi rivojlangan mamlakatlarda qishloq xo‘jaligining rivojlanish ko‘rsatkichlari o‘rganilib bizning mamlakatimizning qishloq xo‘jaligi ko‘rsatkichlari bilan taqqoslab ko‘rilgan hamda ularning rivojlanish bosqichlari ko‘rsatkichlari ham tahlil qilingan. Shu bilan birga maqolada qishloq xo‘jaligini rivojlanish masalalari bilan shug‘ullanib kelayotgan bir qator xorijiy olimlar Dorosh Y., Doctor of Economics Sciences, Barvinskyi A., Candidate of Economic Sciences (Ph.D.), Cheong D., Jansen M., Peters M., hamda mahalliy olimlardan K.Sirojiddinov, K.Xomitov larning adabiyotlaridan ham foydalanilgan.

### **Kirish.**

Qishloq xo‘jaligida asosiy foydalaniladigan, foydalanganlik uchun haq to‘lanmaydigan, tabiiy inom etgan, tekin iqtisodiy resurs bo‘lgan hamda ma’lum bir hudud uchun ko‘plab oziq-ovqat mahsulotlari va sanoat tarmog‘i uchun xom ashyo vositalarini yetkazib beradigan asosiy resurs yer hisoblanadi. Qishloq xo‘jaligi yerlari mamlakatimiz hududidagi barcha aholini oziq-ovqatga bo‘lgan birlamchi ehtiyojlarini qondirishda hamda qishloq hududlaridagi aholini ish bilan ta’minlashda, hududimizdagi sanoat tarmog‘iga xom ashyo yetkazib berishda, mamlakatimizning eksport salohiyatini ta’minlashda asosiy resurs hisoblanadi. Chunki qishloq xo‘jaligi

boshqa tarmoqlarga xom ashyo yetkazib berish vazifasini bajaribgina qolmay bozorga to'g'ridan-to'g'ri istemol tovarlari hiblangan oziq-ovqat mahsulotlariniham yetkazib beradi. Shunday ekan mamlakatimizdagi qishloq xo'jaligini rivojlantirish chora-tadbirlarini muntazam takomillashtirib borish lozim. Buning uchun esa qishloq xo'jaligida ilmiy tadqiqod ishlarini olib borishni jadallashtirish zarur hisoblanadi.

### **Asosiy qism.**

Mamlakatimizda qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yer maydonlari tarmoq uchun fundamental resurs ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, mamlakatimizdagi umumiy yer maydonlari tarkibidagi o'zgarishlarni muntazam kuzatib boorish hamda muvofiqlashtirib borish lozim. Buning uchun esa qishloq xo'jaligidagi yer maydonlari hajmini doimo kuzatib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shu bilan birga qishloq xo'jaligi maqsadida foydalaniladigan yerlarni foydalanish maqsadlariga qarab to'g'ri taqsimlab boorish zarur albatta. Statistika qo'mitasi ma'lumotlariga tayanib qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yer maydonlari o'zgarishni 1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rishimiz mumkin:

### **1-jadval. O'zbekiston respublikasida qishloq xo'jaligida foydalanilayotgan yer maydonlari xajmidagi o'zgarish(ming gektar).<sup>1</sup>**

Yillar	2003	2006	2009	2012	2014	2016	2018	2020	2022
Yer maydonlari xajmi	3790,1	3637,4	3608,6	3628,1	3678,2	3706,7	3396,0	3396,1	3353,3

1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan respublikamizda qishloq xo'jaligi maqsadlarida foydalanilayotgan yer maydonlari xajmi yillar kesimida kamayib borayotganligini ko'rishimiz mumkin. Mamlakatimizdagi urbanizatsiya jarayoni rivojlanib borayotganligi hamda aholi sonidagi o'sish bunga asosiy ta'sir qiluvchi omil hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi yerlarini qisqarib borishi hudud aholisini ish bilan

<sup>1</sup> <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/agriculture-2>

ta'minlash, mamlakatda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish xajmini qisqarishiga, qishloq xo'jaligi mahsulotlari tannarxini oshishiga, mamlakat eksport salohiyatini pasayishiga qolaversa hududning ekologik holatigaham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Qishloq xo'jaligi yerlari maydonini qisqarib borishiga ulardan keladigan real yer rentasini qisqarib borishi asosiy sabab hisoblanadi. Ya'ni mamlakatimiz iqtisodiyotida noqishloq xo'jaligi faoliyatidan keladigan daromad manbalarini ortib borayotgani hamda noqishloq xo'jaligi faoliyatidan keladigan daromadlar qishloq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanuvchilarning daromadlariga qaraganda oshib borayotganligini ushbu holatni tavsiflab beradi. Ushbu daromadlar tengsizligi esa qishloq aholisini noqishloq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanishlariga undovchi asosiy omil hisoblanadi. Natijada qishloq xo'jaligiga kiritilayotgan hususiy investitsiyalarning qisqarishiga, tarmoqqa yangi innovatsiyalarni kirib kelishini qisqarishiga hamda tarmoqda band bo'lgan aholining daromad darajasini tushib kelishi boshqa salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Namangan viloyatidagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish xajmi iqtisodiyotimizda yaratilayotgan mahsulotlarning salmoqli qismini tashkil qiladi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlariga barcha qishloq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalarida yetishtirilayotgan dehqonchilik, chorvachilik, bog'dorchilik, baliqchilik mahsulotlari kiradi. Viloyatimizda yetishtirilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining yillar kesimidagi o'sish sur'atini quyidagi 2-jadvalda keltirilgan.

**2-jadval. Namangan viloyatida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat) larining o'sish sur'atlari(o'tgan yilga nisbatan foizda)<sup>1</sup>.**

Yillar	2012	2014	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
O'sish sur'ati	106,3	106,8	106,7	103,4	102,2	102,5	104,0	106,6	105,0


<sup>1</sup> <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/agriculture-2>

Jadvaldagi ma'lumotlardan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish xajmida o'sish sur'atlarini kuzatamiz. Bunga sabab bo'luvchi asosiy omil esa zamonaviy texnologik yutuqlardan foydalanish ishlarini keltirishimiz mumkin. Shu bilan birga qishloq xo'jaligida urug'chilik yo'nalishidagi yangi hosildor navlarning yaratilib borayotganligi, tarmoqning texnik qurollanish darajasini takomillashib borishi, tarmoqda mehnat unumdorligining ortib borishi hamda ilg'or xorijiy tajribalarni amaliyotga tadbiiq qilib borilishi tarmoqning samaradorligini oshirishga sezilarli hissa qo'shib kelmoqda. Shu bilan birga qishloq xo'jaligida ishlatilayotgan mineral o'g'itlarning miqdoridam sezilarli darajada o'sib bormoqda. Bu ham qishloq xo'jaligida yetishtirilayotgan mahsulotlarning o'sish sur'atiga ta'sir qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Ammo mamlakatimiz qishloq xo'jaligi tarmog'i urug'chilik, qishloq xo'jaligi texnikalarini ishlab chiqarish, o'simliklarni himoya qiluvchi preparatlarni ishlab chiqarish va boshqa qishloq xo'jaligida foydalaniladigan texnika va texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish borasida boshqa mamlakatlarga qaramlik darajasi yuqoriligicha qolmoqda. Bu esa tarmoqda yaratilayotgan qo'shilgan qiymatni kamayishiga, shu bilan birga qishloq xo'jaligida boshqa mamlakatlarga qaram bo'lib qolish xavfini keltirib chiqaradi. Shu bilan birga ushbu holat mamlakatimizning oziq ovqat xavfsizligigaham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Meyoridan oshiq qo'llanilayotgan mineral o'g'itlar esa yerlarni tarkibiy tuzulishiga hamda kelgusidagi hosildorlik sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishiga sababchi bo'luvchi omil hisoblanadi.

O'zbekiston respublikasi qishloq xo'jaligi tarmog'i rivojlanishini yaqin yillardagi dinamikasini kuzatadigan bo'lsak uni tubdan o'zgarganiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Hususan Namangan viloyati qishloq xo'jaligi tarmog'idaham tubdan o'zgarishlar kuzatildi. Dastlabki mustaqillik yillarida qishloq xo'jaligi mamlakat ishlab chiqaradigan mahsulotlarini asosiy qismini tashkil qilgan yetakchi tarmog'i hisoblangan hamda ushbu tarmoq asosan sanoat tarmog'iga xom-ashyo yetkazib berish vazifasini bajarib kelgan. So'ngi yillarda esa mamlakatda agrar davlat

maqomidan industrial davlat maqomiga o'tib borish tendensiyasini kuzatishimiz mumkin. Bunga dalil sifatida 1-diagramma ma'lumotlarni keltirishimiz mumkin.

**1-diagramma. Namangan viloyatining 2022-yildagi yalpi ichki mahsulotining tarmoqlar bo'yicha ulushi (ma'lumotlar yaxlitlangan holda berilgan).**



Mamlakatimiz iqtisodiyoti rivojlanib borgani sari unga mutanosib ravishda qishloq xo'jaligi tarmog'iham rivojlanib kelmoqda. Hususan Namangan viloyati hududida qishloq xo'jaligi tarmog'ining rivojlanib borayotganligini kuzatishimiz mumkin. Ammo qishloq xo'jaligini maksimal darajada rivojlantirmay turib sanoat tarmog'iniham xizmatlar sohasiniham rivojlantirish mumkin emas. Shu o'rinda yevropa olimlarining fikrlarini keltiradigan bo'lsak past va o'rta daromadli mamlakatlarda qishloq xo'jaligi sektori bandlikning asosiy manbai bo'lib qoladi<sup>1</sup>. O'zbekiston esa dunyo reytingida o'rta daromadli mamlakatlar sirasiga kiradi. Shuni hisobga olib mamlakatimizda aholini ayniqsa qishloq hududlarida aholini ish bilan ta'minlash hamda ularga daromad manbai yaratishga asosiy omil qishloq xo'jaligi hisoblanadi.

<sup>1</sup> [https://www.ilo.org/wcmsp5/groups/public/---d\\_emp/documents/genericdocument/wcms\\_212856.pdf](https://www.ilo.org/wcmsp5/groups/public/---d_emp/documents/genericdocument/wcms_212856.pdf)

Qishloq xo'jaligi mamlakatimiz hususan Namangan viloyati hududi uchun iqtisodiyotining lokomotivlaridan biri ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, iqtisodiy rivojlanishni ushbu tarmoqni rivojlantirish chora-tadbirlarini tartibga solmay tasavvur etish qiyin albatta. Bunga esa bir nechta sabablarni ko'rsatishimiz mumkin. [www.stat.uz](http://www.stat.uz) ma'lumotlariga asoslanib aytadigan bo'lsak mamlakat aholisining salmoqli qismi qishloq hududlarida istiqomat qiladi. Hozirgi kunda Namangan viloyatida qishloq hududlaridagi yashovchi aholi soni 1 milliondan oshiq kishini tashkil etadi. Bu ko'rsatkich hududdagi umumiy aholi sonining 35% dan oshiq qismini tashkil qiladi. 2000-2023-yillar oralig'idagi [www.stat.uz](http://www.stat.uz) ma'lumotlarining demografik ko'rsatkichlariga kuzatadigan bo'lsak Namangan viloyati umumiy aholi sonining qishloq hududlarida yashovchi qismi 63% dan 35% ga kamayganini kuzatishimiz mumkin. Hozirgi kunda Namangan viloyatida istiqomat qiluvchi doimiy shahar aholisi esa 2 millionga yaqin kishini tashkil etadi. 2000-yildan buyon 2023-yillarda shahar aholisi sonining umumiy aholi sonidagi ulushi 37% li ko'rsatkichdan 65% lik pog'onaga ko'tarilganligini ko'rishimiz mumkin.

**3-jadval. Yillar kesimida qishloq xo'jaligida band bo'lgan aholi soni(ming kishi).**

Yillar	2019	2020	2021	2022
O'zbekiston respublikasida qishloq xo'jaligida band aholi soni	3 544,6	3 499,2	3 414,7	3 429,6
Namangan viloyatida qishloq xo'jaligida band aholi soni	263,3	287,2	292,1	297,7

3-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rishimiz mumkinki qishloq xo'jaligi tarmog'ida ishchi kuchi soni deyarli o'zgarmagan. Hududimizdagi umumiy aholi soni qolaversa qishloq hududlaridagi aholi soni esa muntazam o'sish sur'atiga ega. Jahondagi rivojlangan mamlakatlar tajribasiga nazar soladigan bo'lsak, davlat rivojlanib bogan sari urbanizatsiya jarayoniham rivojlanish tendensiyasiga ega

bo'lad. Bizning mamlakatimizda agrar tarmoq iqtisodiyotda hanuzgacha salmoqli ulushga ega ekan ushbu tarmoqni qo'llab quvvatlash chora tadbirlarini takomillashtirib borish lozim albatta. Namangan viloyatidagi agrar tarmoqning rivojlanganlik holatiga qaraydigan bo'lsak yalpi ichki mahsulotda qishloq xo'jaligi salmoqli ulushga egaligini ko'rishimiz mumkin. Bunga ta'sir qiluvchi omillarni esa tahlil qilish orqali hududdagi aholi farovonigiga salbiy ta'sir qilayotgan muammolarni aniqlashimiz lozim bo'lad.

**Xulosa.** Yer va tabiiy resurslar cheklanganligi, miqdoran ularni inson qo'li bilan ko'paytirib bo'lmasligi hamda sanoat yoki ishlab chiqarish usulida yaratib bo'lmasligi va yerning miqdoriy jihatdan tabiiy ko'payish hususiyatidan mosuvoligini hisobga olib aytadigan bo'lsak qishloq hududlaridagi aholining birdan-bir daromad manbaiga fundamental omil bo'lgan yerni aholi bandligini ta'minlashdagi o'zagarmas manba hisoblanadi. Hududdagi aholi farovonligini oshirish, ularni yashash uchun zarur bo'lgan moddiy resurslar bilan ta'minlash, aholini doimiy va o'sib boruvchi ish o'rinlari bilan ta'minlash maqsadida qishloq xo'jaligi tarmog'iga qishloq xo'jaligini rivojlantirish borasidagi chora tadbirlarni muntazam tadbiq etish borilishi lozim. Shu bilan birga mamlakat rivojlanishini faqatgina qishloq xo'jaligi tarmog'ini rivojlantirish bilangina ta'minlab bo'lmaydi. Ya'ni qishloq xo'jaligining qoshimcha qiymat yaratish zanjiri sanoat tarmog'i kabi o'sish suratiga ega emas. Yuqoridagi yer va tabiiy resurslarning xususiyatlari bunga asosiy sabab hisoblanadi. Mamlakatimizdagi dehonchilik faoliyatini yuritish madaniyatini uzoq yillik ananalarga tayanib faoliyat ko'rsatish ham tarmoqda yuqori qo'shilgan qiymat zanjiri yaratuvchanligini hosil qilishga to'sqinlik qilmoqda.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ikromiddinovich S. K. OPPORTUNITIES FOR DEVELOPMENT OF THE AGROLOGISTICS SYSTEM IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN //NeuroQuantology. – 2022. – T. 20. – №. 18. – C. 179-189.

2. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/agriculture-2>



3. [https://www.ilo.org/wcmsp5/groups/public/---d\\_emp/documents/genericdocument/wcms\\_212856.pdf](https://www.ilo.org/wcmsp5/groups/public/---d_emp/documents/genericdocument/wcms_212856.pdf)
4. **Xomitov K.Z.** Qishloq aholisini ish bilan ta'minlashning samarali ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlari. Ijtimoiy boshqaruv jurnali. <https://ijtimoiy.uz/2325/>.
5. **Drosh Y.**, doctor of economics sciences E-mail: [landukrainenaas@gmail.com](mailto:landukrainenaas@gmail.com). **Barvinskyi A.**, Candidate of Economic Sciences (Ph.D). E-mail: [barv@ukr.net](mailto:barv@ukr.net). Land Management Institute of the National Academy of Sciences of Ukraine.
6. **EMPLOYMENT, PRODUCTIVITY, AND TRADE IN DEVELOPING-COUNTRY AGRICULTURE.** Cheong D., Jansen M., Peters M., Shared Harvests: Agriculture, Trade and Employment.

## GRAVIMETRIK ANALIZ USULI BILAN KALSIY MIQDORINI ANIQLASH

**Xurramov Samandar Komiljon o'g'li**

Jizzax politexnika instituti talabasi

**Ashurov Javohir Ergashboy o'g'li**

Jizzax politexnika instituti talabasi

**Xamidov Sobir Xodiyevich**

Jizzax politexnika instituti assistenti


[geteroauksin@gmail.com](mailto:geteroauksin@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

*Maqolada ionni kalsiy oksalat shaklida cho'ktirish orqali namunadagi kalsiy miqdorini aniqlash usuli izohlangan.*

***Kalit so'zlar:*** gravimetrik tahlil, filtrlash, eksikator, byuks, dekantatsiya


Namunadagi kalsiy konsentratsiyasini gravimetrik tahlil orqali aniqlash mumkin. Ushbu tajribada  $\text{Ca}^{2+}$  ni o'z ichiga olgan noma'lum namuna  $\text{Ca}^{2+}$  ni oksalat yordamida cho'ktirish orqali tahlil qilinadi:



Olingan cho'kma kislotali eritma ishtirokida eriydi, chunki oksalat anioni kuchsiz kislotaldir. Osonlik bilan filtrlanadigan yirik va nisbatan sof kristallar olinadi. Turli namunalar tarkibidagi kalsiyni aniqlash uni eritmaga o'tkazish lozim bo'ladi, masalan  $\text{CaCO}_3$  berilgan bo'lsa:



Eritmadagi kalsiy ionini kalsiy oksalat shaklida cho'ktirish:



Hosil qilingan cho'kmani kuydirib, kalsiy oksidi olishga asoslangan:



Hosil qilingan  $\text{CaC}_2\text{O}_4$  kristallari mayda bo'lgani uchun filtrdan o'tib ketishim mumkin. Shuning uchun cho'ktirishni ehtiyotlik bilan to'yingan eritmadan kislotali muhitda o'tkazish kerak. Bu vaqtda sodir bo'ladigan jarayonlarni quyidagicha izohlash mumkin:

Oksalat kislota iki bosqichda dissosialanadi. Eritmaga qo'shilgan  $\text{C}_2\text{O}_4^{2-}$  ionni teskari jarayon bo'yicha  $\text{HC}_2\text{O}_4^-$  va  $\text{H}_2\text{C}_2\text{O}_4$  bog'laydi, oqibatda eritmadagi oksalat ion konsentratiyasi sekin kamayib borishi tufayli yirik kristall cho'kma hosil qilish va kalsiyning to'la cho'kishi uchun sharoit yaratiladi.

Eritmadagi  $\text{Ca}^{2+}$  amalda pH-3,3 bo'lganda to'la cho'kadi. Kalsiy oksalat cho'kmasi ancha yaxshi eriydi, shuning uchun cho'kmani yuvish uchun tarkibida oksalat ion bo'lgan disstillangan suvdan foydalaniladi. Cho'kmani yuvganda undagi  $\text{Cl}^-$  ion yo'qotiladi, aks xolda cho'kma tarkibida kuydirish paytida uchib ketadi va xatoga olib keladi.

Cho'kmani kuydirganda hosil bo'ladigan CaO-kalsiy oksidi gigroskopik modda bo'lib, havodagi namlik va karbonat angidridni shiddat bilan yutadi. Shuning uchun kuydirish tugatilgandan so'ng qoldiqli sovuq tigel tezlik bilan eksikator ichidayoq byuksga joylanishi kerak.

Analizni bajarish uchun 250 ml hajmli stakanga tarkibida taxminan 0,1 g atrofida kalsiy bo'lgan tekshiriladigan modda namunasi tortimi solinadi. Analiz uchun  $\text{CaCO}_3$  olinan bo'lsa, u 4-6 ml distillangan suv bilan ho'llangandan so'ng ehtiyotlik bilan unga 6 n xlorid kislota eritmasi stakan jo'mragi bo'ylab oz-ozdan quyiladi. Stakan chayqatilib, undagi moddalar aralashtirilib turiladi. Stakandagi namuna to'liq erigandan keyin eritmaga 100 ml distillangan suv qo'shib suyultiriladi va 70-80 °C gacha qizdiriladi. Issiq eritmaga 2 tomchi metilzarg'aldog'i eritmasidan tomizilgandan so'ng unga to'xtovsiz aralashtirib turgan holda tomchilatib, qizdirilgan 0,5 n li ammoniy oksalat eritmasi qo'shiladi. Cho'ktiruvchi miqdori cho'ktiruvchi ion

